

84
M-96



Asqad Muxtor



Qodirxonalar

84
14-96



Asqad Muxtor

Hadixayot

Hikoyalar

Ikkinchi nashri



2520

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT

«O'ZBEKISTON» O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

2018

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ

DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXBOROT RESURS MARKAZI

1-FILIALI



da sh it- 18 un li, la h di i

UOK 821.512.133-3
KBR 84(50)6

M 96

To'plab, nashrga tayyorlovchi:

Farhod Hidayatov

Muxtor Asqad.

M 96

Chodirxayol. [Matn] Hikoyalar xazinasi / Muxtor Asqad. To'plab, nashrga tayyorlovchi: F. Hidayatov. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU 2018. 192 b.

ISBN 978-9943-28-400-5

Elimizning atiqli va ardoqli ijodkori, O'zbekiston xalq yozuvchisi, Asqad Muxtor XX asr o'zbek adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adiblardan biri hisoblanadi. Uning she'r, hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga va xarakterlarga boyligi bilan hamisha o'quvchini hayajonga solgan. Adibning asarlarida odob-axloq, mahaviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklari dadli yoritiladi.

«Hikoyalar xazinasi» rukni ostida nashr etilgan ushbu «Chodirxayol» to'plamiga uning turli mavzulardagi hikoyalari jamlangan bo'lib, kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinadi, degan umiddamiz. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o'sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va ayrim atamalar nomi aslyatga asosan qoldirildi.

Mazkur hikoyalar to'plami barcha yoshdagi kitobxonlarga mo'ljallangan bo'lib, kitob javoningizni yana bir sermazmun kitob bilan boyitadi.

UOK 821.512.133-3
KBR 84(50)*

ISBN 978-9943-28-400-5

© Asqad Muxtor. 2015, 2018
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2015, 2018

Chodirxayol

KECHIRING MENI, ODAMLAR

Yolg'iz o'g'li Qarshi cho'liga jo'nab ketganida Xatcha xola avvaliga ancha cho'kib qoldi. U bebosh o'sha yoqda uylanib ham olgandan keyin esa, xat-xabar siyraklashib, yolg'izlik kampir boyaqishining suyak-suyagidan o'tib ketdi. Jamoa xo'jaligidan berilgan uylari qishloqning uzoq chekkasida edi, qo'ni-qo'shni ham deyarli yo'q. Hozirgi zamonda yetti yashardan yetmish yashargacha hamma ish bilan band, yozilib gurunqlashish u yoqda tursin, ikki og'iz gap qotish uchun ham o'zing tengi bekorchini topish amrimahol.

Mana shunday sabri tugab, zerikish, uyqusizlikdan cho'pday bo'lib yurganida Xatcha xolaning ishini xudoning o'zi o'nglab yubordi. Ro'paradagi katta idan yaqinda avtobus qatnaydigan bo'lib, ko'cha o'likning shundoq yonginasiga bekat tushdi. Bekat bo'lganda ham – beton zinalariga temir quvurdan ustunlar qoqilib, tepasi yashil shifer bilan yopildi, soyabon tagiga sirlangan skameykalar qo'yildi, xullas, havasga kelib o'tiradigan.

Bekat kecha-yu kunduz gavjum, shovqin-suroni Xatcha xolaning derazasidan kirib turadi. Terlab-pishgan shofyor bir piyola suv so'rab kirs, Xatcha xola xursand bo'lganidan ko'k choy damlab yoki muzdek ayron atalab beradi. Shofyor bolaning

qora moyga belangan qo'llarida shokosani baland ko'tarib, ayronni qult-qult sipqorishi xolaga o'zi bir baxtday ko'rinadi. Qarashlari mayinlashib, suq bilan tomosha qiladi. Goho yomg'ir yog'ib qolsa, qop, tugun ko'targan yo'lovchilar ham Xatcha xolanikida pana oladi. Jazirama tush paytlari yosh bolali yo'lovchilarga rahmi kelib, xolaning o'zi ularni derazadan imlaydi, ichkariga, salqinga taklif qiladi, bolasiga pechenye yo olma tutqazib, ko'zi quvonadi. Bora-bora ko'p shofyorlarning ham, muttasil qatnaydigan yo'lovchilarning ham otlarigacha bilib oldi. O'zi esa hamma uchun «xola» edi.

– Xola, buni sizga olib keldim...

– Xola manov shu yerda tura tursin...

Birov tuguni qo'yib, birov echkisini bog'lab, yana birov go'dagini ushlatib ketadi. Biron sabab bilan avtobus uzoz kuttirib qo'ysa, choyxo'rlik, chaq-chaq gurning xolanikida bo'ladi. Ne gaplar o'tmaydi bu yerda! Shahar-u qishloqning butun yangiliklarini eshitasiz, Xatcha xolaning ham turish-turmushi ham-maga ayon: pensiyani qayoqqa sarflashi, o'g'ildan qancha kelishi, kelin...

– Kelinni qachon ko'ramiz, xola?

Ilgari bo'lsa, bu savol og'ir botardi. Lekin endi kelin tugul bebosh o'g'lining o'zi ham xayoliga kelavermaydi. Sog'inish, zerikishlarga fursati ham yo'q. Suronli, ivirsiq hayotga shunday o'rganib qoldiki, agar birov kelib, ertaga hammasi boshqacha bo'ladi, desa, xudo saqlasin, shu xabarning o'zidan oq xolaning yuragi yorilib, bir kor-hol yetishi mumkin.

Xolaning tanish-notanish odamlarning hojatini chiqarishdan bo'lak tashvishi yo'q. Bozorini ham

Siddiqjon degan pakanagina qora shofyor bola qilib berib turibdi. Tunov kuni sabzi-piyozdan tashqari, yo'l-yo'lakay xo'jalik markazidan uch oylik gaz bal-lonini ham keltirib, hovliga yumalatib ketdi.

Shunday azamat avtobusni o'yinchoqday olib yuradigan yosh, baquvrat shu Siddiqjon ham keksa xolaga havas qiladi.

– Men sizning o'rningizda bo'lganimda, taralla-bedod qilib yashardim.

– Nega unday deysiz, bolam?

– Bitta o'zingizsiz. Bizda bo'lsa, – u kir panjalarni yoyib ko'rsatdi, – yetital Chulduvaqalardan!

– Shukur qiling, Siddiqjon. Birovlar borki...

– Boqishni aytaman-da, xola. Xo'p men ketdim.

Siddiqjon doimo shoshgani shoshgan. Gapini tugatmay jo'naganida xola hamnavat orqasidan jilmayib qarab qoladi: shu yoshida yetita-ya! Bu ham shoshganidan, omon bo'lgur.

Nonni Sobira degan hamshira xotin olib keladi xolaga. Shundog non do'konining yonginasida turarkan, ishga ketayotib uch kunda bir yumshoqgina likkita non tashlab o'tish unga hech gap emas. Ba'zan esidan chiqsa, xola hech xafa bo'lmaydi. Biladiki, o'zining ham tashvishi boshidan oshib yotibdi, juvon sho'rlikning. Eri bilan ajrashib, g'ururining zo'ridan, hech narsa talab qilmay, uydin bitta ko'ylak-da chiqib ketibdi. Bo'lmasa kattagina ro'zg'orlari, mashinalari, yana birga orttirgan alanimlari bor ekan, talab qilsa, qoq yarmini olardi. Xola shuni aytga, jahli chiqdi:

– Shu gapni qo'ying, xolajon, men ochimdan o'lmayman! – dedi. Dedi-yu, uzoz jim bo'lib qoldi. Xullas, sir ko'p bu juvonda.

Bir kuni avtobus bekatga kelib to'xtaganda Siddiqjon kabinasidan salonga chiqdi:

– Oralaringda elektrik yo'qmi? Xolaning chirog'i o'chib qolgan, – deb so'radi.

Yo'lovchilar orasidan elektrik chiqmadi-yu, dera-za yonida o'tirgan keksaroq rus kishi birpasdan keyin tovush berdi.

– Bunga montyor bo'lish shart emas, ana ko'rini b turibdi – terakning shoxi simni bosib tushibdi...

Matvey degan bu xirqiroq ovozi kishining otini ko'pchilik esolmas edi-yu, o'n yashar yetim nevarasini «ish o'rgataman» deya ergashtirib, har kuni qurilishga qatnashini hamma bilardi.

– Viktor sumkani ol-chi! – nevarasini oldiga solib, avtobusdan tusha boshladi. – Uch minut kutasizlarmi?

– Kutamiz! Kutamiz! – deyishdi. Faqat Sobira bilan yana allakim shoshib turishgan ekan, soatlariga qarab burunlarini jiyirishdi-yu, ko'pchilikka bo'ysunishga majbur bo'lishdi.

Keksa ishchi qandaydir shoti topib, Viktor uzatgan qisqich bilan simni bir zunda qirgib uladi, keyin birato'la shoxni arralab tashlamogchi bo'lib, arra qidira ketdi.

– Ichkarida, divanning tagida, aylanay, – dedi Xatcha xola. U o'zi yo'lakdagi sandiqni ochib, lattaga o'ralgan pullarini titar edi: cholg'a ul-bul berish kerak, har holda, begona odam...

Viktor shotini ushlab turdi, bobosi shoxni ham qirgib tashlab, ayvondagi chiroqni charaqlatib yondirganida avtobus derazasidan hamma narsani ko'rib turgan yo'lovchilar «Ural» deb qichqirishdi. Go'yo bu yaxshilikni o'zlari qilib qo'yganday. Matvey

hovlidan chiqayotganida xola darvoza yonida yo'lmi to'sdi.

– Baraka top, znakom, – deya qo'lga uch so'm tutgan edi, keksa ishchi kulib, bosh chayqadi. Olmadi.

Avtobus jo'nab ketdi.

Xatcha xolaga bu yo'lovchilarning quvonchigina emas, tashvishlari ham tatirdi. Birovi kelib mushkul bir maslahat soladi, bironing qayg'usiga sherik bo'lib, tasalli berish, ko'nglini olish kerak. Kecha bekatga Sobira kelib, hech kim bilan gaplashmay, bir chetda yolg'iz ancha turdi, keyin Xatcha xolanikiga kirib, stol chetida tumshayib o'tirib oldi. Avtobus keldi ham, shoshilmadi. Shofyor o'zi kirib «lalayib o'tirmanglar, ketamiz», desa ham, Sobira indamadi. Siddiqjon, albatta, avvalo, bir kosagina ayron dardida kirgan. U bu uyda o'zi xo'jayin, ayronni ham o'zi qiladi: ayvonda chakillab tomib turgan sarg'ish xaltachadagi suzmadan jinday chimdib, kosada muzdek suvga atalaydi-da, ho'kizday pishqirib shimiradi, keyin g'udur peshonasini yengi bilan sidirib artadi.

– Ketdik...

Sobira burchakka tikilgancha o'tiraverdi. Avto-bus jo'nab ketgandan keyin Xatcha xola ham uning yoniga kelib, mung'ayib o'tirdi.

– O'zing chiqib ketgan bo'lsang, muncha kuyasan?..

– Ishingiz bo'lmasin...

Shu o'tirishda Sobira azongacha qimir etmadi. Yarim kechada xola turib, uning titroq yelkasiga o'zining shol ro'molini tashlab qo'ydi. Uning saharlab sovuqdan shumshayib chiqib ketayotganini ko'rgan Xatcha xola juvon o'lmagurning ko'ngliga

yo'l topmaganiga afsus chekdi. «Sho'ring qurg'urning yotari joyi ham yo'qmi, nima balo?» degan shubhaga borib, yuragi uvishganча izidan qarab qoldi.

Odam bor joyda tashvish bor. Shular bo'lmasa, xola nima qilardi. Nonushtadan so'ng shu to'ng badbaxtning tumshayish sabablarini surishtirib bilmog'chi bo'ldi. Jamoa xo'jaligiga boradi, zarur bo'lsa idoraga kirib, boshliqlarga maslahat soladi. Bo'lmasa, g'ururi qursin, qaytaga o'zini xor qilyapti, juvon o'lgur.

Lekin Xatcha xola hech qayoqqa borolmadi. Kutilmaganda o'zining boshiga kulfat tushib qoldi. Nonushtadan keyin dasturxonni o'rab, negadir sandiqni ochdi-yu, hang-mang bo'lib, o'tirib qoldi. Pensiyadan o'ttirib ikki yildan beri jamg'argan puli... Sandiqni titib tashladi, bo'g'inlari qaltirab ketdi. O'g'lining qiyig'iga tug'ib qo'yg'an edi, tuguni bilan yo'q! 430 so'm! Bu qanaqasi bo'ldi? Sandiqqa kim daxl qilishi mumkin?

Xatcha xola butun uyni yana bir titdi. Nima balo, odamlar bilan bo'lib, u dunyoligini ham unutmidi? Uch yil oldin o'g'lidin kelgan 60 so'm ham shuning ichida edi, niyatlari bor edi... Endi bunday pulni qayoqdan oladi?.. «Sho'rim quridi, sho'rim qurib qoldi, odamlar!..» deb soniga shapatlab, tovushsiz yig'lardi kampir. U birdan yana ham keksayib qolgandek, majolsizlanib, serajin nam yuzlari burushib ketdi, o'limi ko'z oldiga keldi... Nima qiladi bir tiyinsiz, qandog' oyoq uzatadi? Qandog' ko'z yumadi?..

Anchagacha bosh ko'tarolmay o'tirdi xola. Aksiga olib, avtobus ham ko'rinnmasdi, odamlarga tezroq yuragini yoray desa. Aytganday, odamlar... ularga nima deydi? Dabdurustdan... kim olgan bo'lishi

mumkin? Ular orasida shunday odam bormi? Nahotki? Xola hammasini taniydi-ku? Birontasidan shubha qilishga ko'ngli boradimi?

Lekin xola hamon tinchiyolmas, borgan sari alam qilardi. 430 so'm-a! Uch so'mdan-to'rt so'mdan, goho tiynlab o'ttirib jamg'argan edi. Uning shu puldan boshqa nimasi bor? Nahotki shunday noinsof odamlar bo'lsa?

G'azabi sal bosilganda Xatcha xola sandiqni ochgan paytlarini, uyiga kirib turadigan odamlarni bir-bir eslab, ko'z oldiga keltira boshladi. Ko'plarida pulga muhtojlik, sekin olib cho'ntakka solishga sabab, vaj bor, albatta. Siddiqjonning o'zi... yettta bolani boqish o'zi bo'ladimi? Sobira-chi, sho'ringa sho'rva to'kligur... boshpanasiz alamzada. Tag'in anavi, oti nimaydi, Matvey... xola uni yaxshi tanimaydi ham, o'sha kuni mishiqli nevarasi bilan xonama-xona yurib... Lekin, yo'q, bularning pulni olishga sababi bo'lsa ham, vijdonlari yo'l qo'ymaydi!

Xolaning xayoliga hech narsa sig'may qoldi. Boringki, gap pulda ham emas. Jumbog'ning o'zi g'alati axir. Bordi-yu, birontasidan sharta so'rasa-chi? Kampirdan xafa bo'larmidi? Masalan, Siddiqjondan... o'z uyidagiday bamaylixotir kiradi, o'tiradi, gugurt qidiradi, choy qo'yadi, qatig' ichadi, goho issiqda graifka qarab olib, bir zum cho'zilib ham olardi... Juda muhtoj bo'lib turgan paytida, shundoq ko'zi tushgan bo'lsa-yu... «Bir oyog'i go'rda, shuncha pulni nima qiladi», deb.

Shu mahal avtobus kelib qoldi-yu, Xatcha xola buni astoydilroq o'ylashga ham ulgurmay, Siddiqjoni bir chetga chaqirib, bor gapni aytib qo'ydi. Siddiqjon kampirga tikliganча anqayib qoldi.

Bunday jumboqni boshqa birovdan eshitganida-ku o'zi bilardi... Lekin hozir xolaning ahvoli ni ko'rgach, o'z izzatini ham unutib, g'azabini bosdi-da:

– Men kelaman, tekshiruv o'tkazamiz! – deya jo'nab qoldi.

Xatcha xola «men olganim yo'q», degan javobni kutgan edi. Javob mujmalroq tuyulib, allaqanday o'ylarga bordi. Bir ko'ngli – Siddiqjon pulni olib keladiganday ham bo'lib ko'rindi.

Ammo Siddiqjon kechqurun ishdan keyin juda jiddiy, qandaydir begonaroq qiyofada kirib keldi.

– Qani, qayerda edi? Qachon payqadingiz yo'qolganini? Doim ochiq turadimi? – deb xuddi tergovchiday, xuddi hozir o'g'ri ni tutib, pulni topib beradiganday savol yog'dira boshladi. U yoqqa bordi, bu yoqqa keldi, o'tirdi, o'yladi, lekin «men olganim yo'q», deb aytishni or bildimi, indamadi. Shunda xola asta kelib uning yoniga o'tirdi-da, qandaydir umid bilan, yosh bolani avrayotganday:

– Bolam, qari odam pulni nimaga jam'aradi, bilasiz... Buning gunohi...

Siddiqjon endi o'rnidan turib ketdi.

– Xola! Topamiz pulingizni! Agar o'g'ri ni sizga o'zim tutib bermasam, shu yerda til tortmay... Yoki... – uning ko'zi dahshatli olaydi, – yoki mendan ko'rayapsizmi?

Xolaning tiliga so'z kelmadi. Siddiqjon qayoqdadir shoshib jo'nab ketdi. Kampir yerga qaragancha qoldi.

Ertasiga ko'zlari qizargan, sochlari to'zg'igan Sobira shaxd bilan kelib, kechagi shol ro'molni ko'chadagi skameykaga tashlab ketdi.

Peshinga borib, Matvey chol o'z nevarasini qon-gora qaqshatib kaltaklagan emish, degan xabar yetib

keldi. Siddiqjon jahl bilan yana allakimlarni haqorat qilibdi. Xola bularni eshitgan sari eti uvishib, o'z qilmishidan pushaymon, o'zidan nafratlanar edi. Buning ustiga, uchinchi kun deganda tokchadan samovarni ko'tarsa, orqasidan o'sha tugun sabil chiqib qoldi. Xola ne ko'z bilan ko'rsinki, hamma pullari joyida! Bari esiga tushib, yerga o'tirib qoldi: o'sha Matvey chol simyog'ochga chiqqan kuni unga uch so'm beraman deb, tugunni ochganida uni sandiqqa qaytib qo'ymay, tokchaga tiqa qolgan ekan. «Esim qursin-a, bu kunimdan bekatdan ketganim afzal emasmi!» deb, ho'ng'rab yubordi kampir. Topilgan pullar ko'ziga lion-chayonday sovuq ko'rinib ketdi. «Endi nima qilaman? Nohaq ranjitgan bu odamlarimdan endi gunohimni qandog' tilab olaman?» der edi xola.

Uy huvillab qoldi. Quvnoq odamlar ham, echkning ma'rashi ham, bolaning yig'isi ham eshitilmaydi. Bekatda onda-sonda ko'ringan yo'lovchilar tezroq avtobusga o'tirib, jo'nash payida bo'lar, Xatcha xolaning ochiq derzasiga hech kim qayrilb qaramas edi.

Kunlar o'tdi, xolani yolg'izlik g'ussasi ezaverdi. U oqibatsiz o'g'lini eslar, ishtahasi yo'q, bukchayib qolgan edi. Qani endi biron-tasi eshik qoqib kirib kelsa, o'sha notanish betavfiq kelini bo'lsa ham mayli edi.

Avtobus chang to'zg'itib jo'nab qolganda Xatcha xola deraza rafiga suyanib, yolg'iz pichirlaydi.

– Siddiqjon, bolam, kechir...

Yo'lovchilar to'la avtobus yana keladi. Guvillagancha yana siljib ketadi. Xatcha xola derazadan qarab qoladi – odamlarning har biriga borib ayta olmaydi-ku, rozini. Lekin ko'zlarida hamon o'sha

mung: «Tashlab ketmang, odamlar, kechiring meni... Men sizlarni oson topgan edim, balki shuning uchun qadringizga yetmadim. Mayli, boshqa qiynoq bilan jazolanglar, lekin yolg'iz qo'ymanglar, bolalarim...»

SHERBEKNING ARG'UMOG'I

Sherbek bolaligidan otni yaxshi ko'rardi. Tanafus vaqtida daftariga chopqir toychogning suratini chizib, o'zi tomosha qilari, darslardan bo'shadi, deguncha Ippodromga yugurari edi.

U yerda uning tanishi Zokir chavandoz o'zining otni yuvib-tarashga, sug'orish, tizginidan tutib turishga ruxsat beradi. Sherbek Zokirga beminat yordamchi bo'lib qolgan. Otxonani tozalaydi, egarjabduqni joy-joyiga ilib, otni ko'l yogasiga yetaklab chiqadi. Zokirning oti juda chiroyli qora arg'umog, ismi ham o'ziga yarasha «Duldul». Sherbek yalyalang'och bo'lib, uni salt minadi-da, ko'lining chuqur joyiga chulaydi. «Duldul» yaxshi suzadi, sovuq suvda rohat qiladi.

Qaytib chiqqandan keyin, sayozroq joyda Sherbek uni maxsus cho'tka bilan ishqab, yana yuvadi. Titirab, yilt-yilt etib turgan sag'risini qayta-qayta siypab taraydi. Uzun bo'yini, ikkiga bo'linib turgan semiz sirtini, quyib qo'ygandek chiroyli, ingichka, kuchli oyoqlarini, aqlli ko'zlarini havas bilan uzoq tomosha qiladi. Ot unga xuddi odandek aqlli, mehribon bo'lib tuyuladi. Bo'yidan quchoqlasa, «Duldul» ham go'yo uning yaxshi ko'rishini tushungandek, indamay turadi...

Sherbek maktabni bitirgandan keyin chavandoz bo'lmogchi edi, shuning uchun ot zavodiga ishga kirdi. U otni bir mo'jiza deb bilari, undan o'z baxtini kutardi. Afsuski, zavodda ikki oygina chavandozga shogird bo'lib ishlagandan keyin, urush boshlanib qoldi.

Urushda ot qayoqda deysizi! Nuqul tank, pulemyot, zambarak – bari temir-tersak... Avvallari Sherbek otni xuddi qishlog'ini, ota-onasini, ukasini sog'ingandek sog'indi.

Lekin keyinroq... sog'inishga vaqt bormi! Qurshovda qoldi, atakaga bordi, yarador bo'ldi. Sekin-sekin ot ham esdan chiqib ketdi. Sanab ko'rsa, olti marta yarador bo'libdi. Bir martasida o'rtoqlari tuproq ostidan kovlab olib, gosptalga eltgunicha ham hushiga kela olmabdi. Lekin Sherbek baquvvat edi, tuzalib, yana boyagi-boyagidek safga qo'shilib, jangga kiraverdi. Jang ham endi odatdagi ishdek bo'lib qolgan edi, axir to'rt yildan beri...

Darvoqe, to'rt yil deganda Sherbek birinchi marta otga duch keldi. Otlarni ko'r-di-yu, butun hayoti, bolaligi ham, ertasi kuni ham ko'z o'ngiga kelib, o'ylari, tuyg'ulari alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Ot bilan uchrashganda bu qadar dahshatga kelishini o'ylamagan edi. To'rt yil urishib, hali hech qachon yuragi bu qadar larzaga kelmagan.

... Dengiz bo'yi edi. Sherbeklarning qismi nemislarni yarim orolning uchigacha surib borib, suvga ulotqirdi. Keyin o'zlari ham sohilga chiqib borishdi. Qirg'oq tikka jar edi. Sherbek shu jarlik tepasidan dengizga tikildi. Uzoqlarda uning to'liqlari mo'v'iy ko'rinaridi, beritrog'i esa – kulrang. Undan ham beritrog'i, sohilga tutash joylari... qip-qizil. Qon. Sher-

bek ko'zini ololmay qoldi. Yonida jangovar sheriklari gaplashishar, yerlik jamoa xo'jaligi a'zosidan birini o'rtaga olib, suhbatlashishar edi. Sherbek qirg'oqdagi to'liqlardan, yana allaqanday qora do'ngliklardan ko'zini olmay, gapga qulog' soldi.

Xo'jalik a'zosining gapiga qaraganda, fashistlar yarim oroldan qochayotib hamma narsani – yo'llarni, ko'priklarni, fermalarni, omborlarni, maktablarni portlatishgan, yondirishgan. Ammo otlarni nima qilishni bilishmagan. Bu yerdagi ot jamoa xo'jaligining bir necha ming yilqisi bor ekan. Dushman otxonalarga o't qo'yg'an-u, otlarni na yondirishning, na portlatishning ilojini topolmagan. Shunda fashistlar yilqi uyurlarini shu tikka qirg'oqqa haydab kelib, hammasini bir-bir otishgan. Ertadan kechgacha o'q ovozi eshitilib turgan. O'q yegan jonivorlar tikka qirg'oqdan dengizga ag'anyvergan...

Bir necha ming ot... Sherbek ularning sayoz sohilda toshday qorayib yotgan jasadlarini, ularning naqadar ko'pligini endi payqadi. Minglab ot jasadlari qizg'ish ko'pikli to'liqida tebranan, dahshatli dengiz o'lik uyurlarni kavshab yamlayotgandek edi...

Sherbek, ko'pni ko'rgan jangchi Sherbek shu yerda hushidan ketib qoldi.

O'rtoqlari hayron edi. Ular Sherbek uchun ot nima ekanini bilishmas edi-da. Birov «qon hidi ta'sir qildi» desa, birov «charchagan, dengiz havosi elitdi» – dedi, Sherbekni ko'tarib, medsanbatga olib bordilar.

Yarim kechada Sherbek ko'zini ochdi. U birdan qarib qolgandek, qorong'i tunda rangsiz-ruhsiz ko'rindi, sochida oq tolalar ham paydo bo'lgan edi.

Yuragi go'yo bo'm-bo'sh, misilsiz g'azab uning bolalikdan ardodlagan hislarini ham, yigirtlik darmonini ham go'yo yeldak uchirib ketgan edi. Horg'in mijjasini yumganida, qizil to'liqin ichida kishnab chopayotgan qora arg'umog' ko'z oldiga keldi...

TO'QQIZINCHI PALATA

*Nafing qancha bo'lsa – umring shuncha
(Quloqqa chalqinayotgan gaplardan)*

Qurilish shaharchasining yangi kasalxonasi juda qulay joyga tushgan – tog'ning kungay etagi, bir tomoni yosh terakzor, katta yo'ldan uzoqda. Yoz kunlari bemorlar derazalarni lang ochib, tog' havosini to'yib-to'yib shimirishadi.

Bahromovning palatadagi qo'shnisi keksa odam, ahvoli ancha og'ir, lekin ko'p sergap ekan, yotgan joyida ham inqillab gapirishni qo'ymaydi.

– Ha hozirgilarni nuqul yuragidan olyapti, taqsir, oltmishga bormay, «sersam-sersam»ga tushib qolishyapti. O'zlari nechaga kirdilar?

– Oltmish yetti, – dedi Bahromov.

– Ana. Bizniki shu yil tut pishig'ida ikkam sakson bo'ldi, xudoga shukur, sersa-persa bilan ishimiz bo'lgan emas...

Lekin Bahromov ko'rib turibdiki, choling mazasi yo'q, saqji qovoqlari sap-sariq, kecha sartarosh kelganda ham o'rnidan turishga majoli yetmadi. Undan ko'ra, qimir etmay yotsa ham, Bahromovning o'zi te-tilkroq.

Hamshira kirdi. Bu Ma'mura degan uzunchoq yuzli, bo'ydorgina qora qiz edi.

– Sizga qimirlash mumkin emas, bilasiz-a, – dedi u Bahromovning yostig'ini sal ko'tarib, – mana mundaq, faqat chalgancha yotasiz.

– Bilaman, bilaman, qizim, ming marta eshidim, faqat... qancha? Qachongacha shunday yotaman? Hech kim aytmaydi.

– Aytamiz.

Ma'mura «aytamiz» derdi, lekin uning shu holda qancha yotishi kerakligini bilmasdi – bir haftami, uch oymi... Hamshiraning vazifasi bernorni ogohlantirib, ko'z-quloq bo'lib turish.

Ammo Ma'muraning bu palatadan ko'ngli tinch edi: bemorlari beozor, ikkalasi ham keksa, bosiq odamlar, kelgan kunyoq til topishgan, u dunyo-bu dunyodan gaplashib, ortiqcha oh-u nolasiz kunni kech qilishadi.

Hamshira cholg'a ham dori ichirib, chiqib ketdi. Ochig derazadan maysazor maydon ko'rinaridi. Barra maysada hurpaygan chipor tovuq jo'larini ergashtirib o'tib borarkan, Bahromovga o't-o'langa qoqina-qoqina tizilib ketayotgan bu sarg'ish-yashil momiqchalar juda zaif, himoyasizdek tuyulib ketdi, kalxat-malxat yo'qmi, deb osmonga ham qarab qo'ydi, osmon shishadek tiniq edi. Uch haftadan beri qimirlamay chalgancha yotib, badanlari tosh qotib ketgan Bahromov hamma narsadan bezor bo'ldi, hamma narsadan to'ydi-yu, mana shu tubsiz tiniq osmonga tikilib to'ymadi. Goho shu soflikka tikilib, xayolga cho'mganida choling ming'ir-ming'ir gapi ham bachkana tuyulib, yoqmay qoladi, quloq solmay qo'yadi.

– Bugun ham kun o'tdi, – dedi chol, – ana, taqvodor qo'shnimiz namozi asirga o'tirdi, qarang...

Bahromov qaramasa ham biladi: sayxonning narigi chetida tilanak chetan bilan ibhota qilingan salqin mevazor hovli bor, hovlining egasi doim oq yaktak, oq ishton kiyadigan namozxon odam. Besh vaqt namozini kanda qilmay, mana shu hovli etagida o'qiydi.

Qo'shnisining bu taqvodorni orgavorotdan kalaka qilishlari yoqmasdi Bahromovga. Oti Hoji buva, o'zi saksonga borgan bo'lsa ham, kasalxonaning yovg'on oshini bismillosiz tushiradi. «Imonsiz chol» deb qo'yardi Bahromov ichida.

– U dunyodan umidi katta qo'shnimizning, – dedi Hoji buva.

– Ha, umid... – Bahromov osmondan ko'zini uzmay gapga qo'shildi. – Umid degan odam bolasini ne ko'ylarga solmaydi. Bir kitobda o'quvdim – Hindistonda keksalar muqaddas Gang bo'yida jon berishni orzu qilisharkan. U yerda o'lgan odam shahid ketib, to'g'ri jannatga noil bo'larmish. Shuning uchun odamlar Gang sohilida uzlat chekib, haftalab och yotishar, kecha-yu kunduz xudodan o'lim tilashar ekan. Umid shunaga. Umid har xil bo'ladi... Hoji buva. Biri dilingni kunday ravshan qilib, bannisoli qanotdek osmonga uchirsa, biri...

– Yo'q, menga unisi ham kerak emas, bunisi ham... – dedi «imonsiz» chol zahil yuzini, ko'ksiga yoyilgan sogolini silab. – Mening umidim – yashash. Shuncha umrni bergan xudo buyog'ini ham aymas.

– Nima ish qilardingiz, buva? – so'radi Bahromov.

Endi ish qo'ydimi, taqdir, – dedi chol, chamasini o'zgartirib, avobdan chalg'itishga urinishko'p ish qili-

2 - Davlat Muxtor GO'G'IKI INSONIYAT VAZIRLIGI

AXBOROT RESURS MARKAZI

1-FILIALI

AXBOROT RESURS MARKAZI

- Meniki bo'lmasa, o'zgalarniki bor, Hoji buva, - dedi Bahromov, yostig'ini sal qiya qilib derazadan boqdi. Alisher, xuddi o'ylaganidek, adashib chiqqan bir jo'aning ketidan xuddi koptok singari yumalab ketib borar, oyisining kuyib-pishgani bilan ishi yo'q edi.

Bahromov to qosh qorayguncha derazadan ko'z uzmad. Uning so'lg'in yuzida xira nurlangan shom sharpalarini tushummagan Hoji buva yana bir nimalarni gapirdi, shu yoshidagi oyisiga quloq solmagan Alisherni «tirmizak» deb so'kdimi, u odam bo'lguncha onasi qarib-churiydi, undan umidi nima bo'lardi, dedimi, bu gaplar Bahromovning qulog'iga kirmadi. Qiziqki, boshida hech qanaqa o'y ham yo'q edi, shunchaki, hech narsani o'ylamay, rohat qilib yotaverdi. Keyin shu bilan uyquga ketibdi.

Ertalab chamalab qarasa, shunday miriqib uxlabdiki, ko'p oylardan beri shunday shirin uxlagani yo'q edi. Shunday bo'laversa, tuzalib ketishi ham hech gap emas.

Biroq shu kuni kechga yaqin qo'shnisi Hoji buvaning ahvoli og'irlashib qoldi. Uning to'satdan «o'lamana»ga tushib qolishi birinchi marta bo'layotgani yo'q, lekin bu galgisi chindan ham xavfli edi, shekilli, vrachlar, hamshiralar yugurgilab qolishdi. Uzoq davom etgan kasaldan keyin sarg'ayib ketgan, xaltadek osilgan badanlariga yana allaganday ukollar qadashdi. Chohning yuzi cho'zilib ketgan, atrofdagilarni tanimayotgandek bejo tikilar, gapirolmas edi. Goh jon berayotgandek ko'zidan ma'no qochganda, atrofdagilarning nafasi ichiga tushar, yurakni muzlatadigan sovuq jimgilik cho'lkanda, Ma'muraning ko'ksini yoritib chiqqan yig'i tovushi eshitilar edi.

Ma'mura chohning qiynalganlarini ko'p ko'rgan. Avniqsa, uning halviragan badanlariga igna sanchib qiynalishlarini ko'rgani ko'zi yo'q edi. Hozir ham vrachlar to'pidan chetda. Bahromov koykasining yonida turib, yig'lab, qizarib ketgan burrini xalat etagiga artar edi.

- Nimaga qiynashadi-ya! Tinchgina jon berishiga qo'yishmay...

Bahromov yotgan joyida uning qo'lini ushlab qisdi.

- Tavba deng, qizim.

- Nimaga qiynashadi axiri! Nimaga? Bari bir...- Ma'mura baqirib yig'lab yuborishdan qo'rqib, yugurib chiqib ketdi.

Vrachlar Hoji buva atrofta kechasi bilan parvona bo'lishdi. Bemor bir zum tilga kirib: «Uydagilarni chaqiringlar, xayrlashib, roziliklarini olay», dedi. Undan yana qon olishdi, tomiriga bir nimalar quyishdi, ukol qilishdi. Ertalab Ergash yetib keldi.

Bahromov uni sira ko'rmagan bo'lsa ham, darrov tanidi. Novcha bo'yli, tiyrak ko'zli, chayir o'spirin Ergash bir necha o'rtoqlari bilan kelgan edi. Buvasi uni tanimadi, kun yorishganda Ergash o'rtoqlariga javob berdi - ular smenaga borishlari kerak edi. Yolg'iz qolganda Ergash Bahromov bilan gaplashib o'tirdi. Bobosi ko'z ochganda go'dakday quvonib, xaltasini ag'dara boshladi:

- Qishloq bozoridan oldim, buval! Mana gilos, ko'nglingiz tusasa olcha! Jindak xomroq ekan, lekin yirik-yirik, qarang!

Shu-shu Ergash tez-tez keladigan bo'ldi. Hoji buva bir haftaga qolmay, o'nglanib, oyoqqa turdi. U butunlay tuzaldi desa bo'lardi. Lekin qandaydir

xunuk to'lishib, ovqatga to'ymaydigan bo'lib qoldi. Kasalxonada berganlari yuq bo'lmay, Ergash ko'tarib kelgan pomidormi, nonmi, kolbasami – barini ko'rdim demay supurib tashaydigan bo'ldi. Shunda ham ko'zlari ola-kula. Bahromovning qolgan qutganini ham kishi bilmas yamlab, yana eshikka alanglar, ovqat kutar edi. Ovqat kelsa, og'zini chapillatib, soqollarini iflos qilib, ochko'zlik bilan tez, xunuk yeydi. Bahromov keyinroq sezib qoldiki, uning javonidan ham ba'zan beso'roq, ko'zini shamg'alat qilib, to'g'irisi – o'g'irlab u-bu yeydigan bo'ldi. Bahromov keksa odamga yarashmagan bu qiliqdan dam hayratda qolar, dam rahmi kelib tiklar, ovqatdan chalg'itishga urinib, gapga solar edi.

– Ergashingiz siz aytganchalik «ko'chada qolgan» bola emas ekan, – dedi Bahromov, – gaplashib o'tirdik – havasim keldi. Aqlli, mag'zi butun ishchi yigit. Vijdonli mehnatkash bo'ladi.

Hoji buva og'zini chapillatib, bir nimani kavshar edi, indamadi. Anchadan keyingina:

– Bugun kech qoldi, qayoqda daydib yuribdi ekan, bachchag'ar, – deb ming'illadi.

Bahromovga u Ergashni emas, Ergash ko'tarib keladigan xaltani, oziq-ovqatni kutayotgandek tuyuldi.

Endi Bahromovga juda qiyin bo'lib qoldi. Qo'shnisi bilan ilgarigidek gaplasholmaydi. Hoji buvaning gapi endi kasalliklar mavzuyidan chetga chiqmay qoldi, u ham ko'pincha ma'nosiz. Qachondir bod bo'lib, siydik bilan davolangani bormi, qaysi bir irimchi kampirning topgan giyohlari bormi, ishqilib, na aqlga, na ko'ngilga qo'r bo'ladigan gaplar. Xunuk semirib, betinim pishilab ovqat yeyishlari bo'lsa,

joniga tegib ketdi. Tezroq tuzalib chiqib keta qolsa edi. Kasal deydigan joylari ham qolmagan, o'rnidan turib ham yuradi, lekin doktorlar negadir javob bermay, ushlab turishibdi.

Bahromovning ahvoli bo'lsa o'sha-o'sha. Qimir etmay chalqancha yotgani yotgan, atrofdagi hamma gap qulog'iga kiraveradi, qiladigan ishi yo'q, goho uymalashib kelgan o'ylardan boshi tars yorilguday bo'ladi. Eng dahshatlisi – uyqusiz kechalalar.

Bugun kechasi osmonni bulut qoplab, yomg'ir yog'olmay, avval rosa dim bo'ldi. Keyin qayoqdandir beqaror shamol esib, yarim tunda to'zonli dovul turdi. Daraxtlar dengizdek shovullar, qayoqdandir ochiq qolgan deraza pallalari urilib, chilparchin bo'lar, terak shoxlari sinib tushar, to's-to'polon. Qora tun tuynugiga chang-to'zon tiqilib qolgandek, nafasi bo'g'ilar edi.

Bahromov zo'rg'a tong ottirdi. Ertalab Ma'mura derazalarni ochganda haligina sevalab o'tgan yomg'ir hidi keldi, osmon yana musaffo, ko'm-ko'k sayhonning har joy-har joyida sinib tushgan shoxlar yaproqlari so'lib yotardi.

Bahromov iliq yomg'ir yuvgan maysazorni uzoq tomosha qilib yotdi. Ertalabki quyoshda yilt-yilt etgan nam maysaning salqinini bag'rida sezganday bo'ldi, jilmaydi. Shu maysani yalangoyoq bosib, lo'klanglab borayotgan Alisherga shunday havasi keldiki, ko'zidan yosh chiqib ketdi. Kim biladi, hozir yerni qo'nsab, burishib yotgan tovonlariga shu mayssa tegsa, butun vujudiga orom yetib, dardchil badaniga jon kirib tuzalib ketarmidi...

Bahromov xayolga sho'ng'ib ketgan ekan, birdan hezovtalanib, qichqirib yubordi:

– Hoji buva! Hoji buva! Alisher kelyapti, qarang! Qo'shnisi qimir etmadi: nima bo'пти, har kungi o'sha boladir-da.

– Qoch! Qayt! Kelma, Alisher! Qarang qo'shni, qarang, simga qarab kelyapti! Qoch deymen, qayt, ana oying chaqiryapti!

Alisher lo'ppi, momiq oyoqchalari bilan maysani bosib, hamon kelardi, oldida esa, tomdan uzilib tushgan yalang'och simning uchi ilondek buralib yotibdi. Elektr simi! Bola yana o'n qadam yursa, yonib ko'mir bo'ladi!

– Qo'shni, jon Hoji buva, turing, yuguring, simga qarab kelyapti! Hoy, kim bor!

Hech kim yo'q edi, hech kim javob bermadi. Hoji buva asta turib, kavushini kiydi-da, derazaga yaqinlashdi. Qarasa bola chindan ham simga tikka kelyapti. Sim ustida kechasi dovulda sinib tushgan o'rik shoxi ko'karib yotardi, danakday-danakday g'o'ralari yiltillab, bolani o'ziga tortardi chog'i.

– Tegma, – dedi Hoji buva. Bola eshitmasdi.

– Yuguring, jon aka, oling bolani! – deb yalindi Bahromov, – uning ko'zlari bejo, o'zining ojizligidan azobda, bo'yin tomlari bo'rtib chiqqan edi. – Tez bo'lsangiz-chi!

Hoji buva bolani «bachchag'ar», onasini «qizi-g'ar», qaynatasini «taqvoyingdan o'rgildim» deb so'ka-so'ka, karavotiga o'tirib, paytavasini o'ray boshladi.

– Hoji buva! Jon aka! Qoch, qayt! – deb talvasa chekar edi Bahromov. Hoji buva ming'ir-ming'ir qarq'anib, javondan borib etigini oldi, yana kelib karavotiga o'tirdi. Etik qo'njidagi eski loyni tirsagi bilan ishqab tozalay boshlaganida Bahromovning

sabr-kosasi to'ldi shekilli, ko'rpani shartta ulotirib tashlab, derazaga o'zini urdi.

Hoji buva uning «Alisher! Alisher!» degan ovozin eshitib qoldi, xolos, qarasa – bir yarim oy qimir etmay chalgancha yotgan qo'shnisi ishtonchan maysada yugurib ketyapti!

– Hoy, sizga turish mumkin emas-a, hay siz yoting, qo'shni, nima qilyapsiz! – degancha Hoji buva derazadan qarab qolaverdi. Bahromov bolani simning shunday yonginasidan dast ko'tarib, olib kirib qo'ydi. Ichkaridan Alisherning oyisi yugurib chiqdi. Bahromov qaytib kelib simni tayog uchiga ilib, devorga ko'tarib qo'ydi. Keyin atrofiga alanglab, maysada gandiraklagancha derazaga qarab yurdi.

– G'o'radan olakeling birato'lasi, qo'shni, – dedi ichkaridan Hoji buva, – hozir qatqimi-sut payti, juda xushxo'r, nordon bo'ladi.

Bahromov eshitnadi, boshi gir aylanib, ko'z o'ngi qorong'lashgan edi, derazaga kelib suyandi, qo'shnisi uni qo'lidan tortib, ichkariga oldi.

– Hoji aka... Hoji aka, qayerdasiz! – dedi yotganidan keyin ham hech narsa ko'rmay, – qanday yugurib borganimga hayronman, dorimni olib ber-ring, – dorisini ichib ham ko'z ochmadi. – Ma'muraga aytmang, xo'pmi, Hoji buva... Xo'p deng.

– Xo'p, xo'p, akasi, lekin bekor qilding. Do'xtir buyurmaganini qilish kerak emas, rangingni qara, loxovla-a, murdaday bo'lib qolding.

Bahromov bir zumga ko'zini ochib unga qaradi-yu, yana yumdi. Tinchib qoldi.

Qo'shnisi ham yogasini ushlagancha o'rniga borib yotdi. Keyin Ma'mura kirdi. Hoji buva bo'lgan vogeani aytmadi. Bahromov aytadimi deb qo'rqib

yotgan edi, yo'q, aytmadi. Lekin Ma'mura dorilarni berib, chiqib ketayotganida Hoji buva uni to'xtatdi.

– Qizim, sen... ketma. Birpas o'tir, – deb qoldi. Ma'mura chohning nimadandir qo'rqib qaltirayotganini payqab qoldi. Shunda ikkalasining ko'zlari uchrashib qolib, qiz tushundi: Bahromov oppoq bo'lib yotardi.

Bahromov jim qolishlaridan ularning xavotirini sezdi-yu, gap bilan ovora qilishga urindi.

– Rostdan ham, Ma'mura qizim, biz qariyalar bilan ham bir nafas gaplashib o'tirsang bo'lmaydimi? – dedi madorisizligini yashirishga harakat qilib. – Yo boshqa palatada yoshlar ko'pmi? Darvoqe, bu yerga kelgandan keyin yosh bo'lib qayoqqa bordi, bu yerda yosh-u qari barobar, barining oti «bemor», – u gapni to'xtatmaslikka urnar, qizni o'zidan chalg'itish uchungina emas, o'zi ham hozir negadir sergapligi tutib, ko'nglini nimalardandir bo'shatib olgisi kelar edi. Nafasini roslab, davom etdi. – Odam bir umr esi past bo'lar ekan, qizim. Yoshimizni yashab qariymiz, munkayib qolamiz, o'lim yelkamizdan nuqib turadi-yu, es-hushimiz hamon ravshan tortmaydi. Ammo, nihoyat, shunday bir zum keladiki, qizim, es-hushingina emas, butun vujuding ravshan tortib, hamma narsani birdan tushunasan... Bir umr yongan-kuyganlaring, yig'lagan-quvonganlaring, xavotir-u vahimalaring, orzu-armonlaring, bari shu bir zumda jam bo'ladi. Titrayсан, loyillaysan, yuraging yosh to'kib, yengillashishni istaydi. O'zing ham yo'q, dunyo ham; nimadir, boshqa narsa ko'z oldingda turadi: u tunday qorong'i, quyoshdek yorug'...

Odam bu zumning kelishini ilgariidan bilganda edi... Biz bilmaysmiz-da, qizim. Kunimizga quvo-

niib, yerimizdan, odamlar mehridan nurlanib yuraveramiz. Aytmaymizki, hay, inson bolasi, buning oxirida barini chaqmoqday yorituvchi, yakunlovchi bir zum bor, unda hayotingdagi eng mayda narsalar ham buyuk bo'ladi, butun bosib o'tgan yo'ling esa, cheksiz bir olamdek ko'rinadi. Hayratda qolasan: nega buni bilmagan ekanman, nega buni ilgari o'ylamagan ekanman, deb hayratda qolasan...

Bahromovning yana ko'p gaplari bor edi, shekilli-yu, darmoni yetmadi. Ma'mura unga sehrilangandek termilib qolgan edi. Birdan payqadiki, bemorning yuzi yorishib ketdi, lablariga rang kirgan, qoshlari qop-qora, uzun-unun kipriklari nurlangandek edi. Ma'mura Bahromovning bunday chiroyli odam ekanligini ilgari payqamagan ekan, qo'rqib o'rnidan turdi. Ko'ngliga dahshatli fikr keldi: «Nega bexosdan bunday gaplarni gapirib qoldi?!»

– Endi, sen borayol, qizim, damingni ol, men uxlayman... – dedi Bahromov.

– Yo'q, men shu yerda o'tiraman! – deb yubordi Ma'mura. O'zining ovoizidan o'zi cho'chib tushdi. Nega bunday deganini o'zi ham bilmaydi, lekin Bahromov unamadi.

– Bor, men uxlayman, xayr... – dedi qizning qo'lini zaifgina qisib.

Bir soatdan keyin Ma'mura palataga Alisherning onasini boshlab keldi.

– Mana shu yerda, shu, shu, – der edi ayol; uning quchog'ida bir dasta atirgul. Alisherini yasantirib, yetaklab olgan, Ma'muraning ogohlantirishiga qaramay, bostirib kirib kelaverdi.

Ma'mura bemorning yoniga borib:

– Bahromov aka, uxlayapsizmi, mana sizga gul keltirishibdi, – Ma'mura ovozi pasaytirib, ayoldan so'radi: – Kimdan? Kimdan dedingiz?

– Alisherdan.

– Alisherdan ekan, mana, voy manavi gulni! Bahromov aka...

Bemor uyg'onnagandan keyin hamshira uning yuzini ochdi-yu, sariq devorga yuzini bosib qotib qoldi. Bir zumdand so'ng yelkalari titrab, yig'lab yubordi.

– Voy, o'lay! – deb qichqirdi ayol Alisherini bag'riga tortib.

Bahromov o'lgan edi.

Ma'mura yig'lagancha, doktorlarni boshlab kirdi.

– Bilgan edim, ko'nglim sezuvdi, nega ketdim? Nega ketdim! – deb yig'lardi Ma'mura. Ayol nima qilishini bilmay, guldastani o'rtadagi javon ustiga shisha bankaga soldi. Javonning u yonidagi o'rinda Hoji buva suyuq ovgatga qo'lini solib, bir nimani kavshayotgan edi. Javon ustida ertalab Ergash keltirgan olmalar qip-qizarib yotardi. Alisher yonib-yiltillab turgan olmalarga zavqi kelib, tikilib boqqan edi, Hoji buva isqirt qo'li bilan darrov yig'ishtirib oldi. Buni payqagan Ma'mura qizargan ko'zlari bilan cholg'a shunday achinib boqdiki, go'yo bu palatada hozirgina Bahromov emas, Hoji buva jon bergan edi.

Qiz Alisherni bag'riga olib, chiqib ketdi. Ke- lin ham o'lik yonida og'zini chapillatib ovqat yeyayotgan cholg'a g'alati qarab, uning yonidagi guldastani oldi-da, Bahromovning ko'ksiga away-labgina sochib tashlab, Ma'muraning ketidan tez chiqib ketdi.

Shom oldidan maysazorda yana chipor tovuq bilan momiq jo'jalar, yana qizil botinkacha kiygan yum-yumaloq Alisher ko'rindi, to'qqizinchi palataning derazasida esa yana katta, durkun guldasta paydo bo'ldi.

ATIR

U idoraning eshigiga barvaqt kelib qolgan ekan. Hali qorovul ham tol soyasidagi chorpayaga chopo-nini tashlab, xurtrak otib yotibdi. «Hoy, Madraim nima qilib yuribsan saharbardonda?» deydi odam yo'q. Suvchink shu-da, hamma uxlaganda ishlaydi, hamma ishlaganda uxlaydi. Quyosh nayzaga kelganda shiyponning zaxroq burchagini tanlab, jindak mizg'ib oladi-da, tun o'zinki, oydinga suv tarab tong o'ttiradi.

Hozir ham daladan kelishi. Ketmonni zinapo-yaga suyab, etigining loyini obdan qirib artgach, qabulxonaga kirib o'tirdi. Nos otib, mulohazaga tushdi: bemavrid keldi-yov... javob berishi amrimahol. Ha, saratonda suvchining joyi xuddi shaharda, deya kesatib chiqarvorsa-chi? Tag'in bilib bo'lmaydi, g'aysi tomoni bilan turganiga ham bog'liq. Omadi yurishib, yosh xotindand xursand bo'lib, chehrasi ochilib kelib qolsa... Raisning mashinasi charaqlagan quyoshni chaq-natib, soat sakkizlarda kelib to'xtadi.

– Suv qalay?

– Suv serob.

– Ko'llatmanglar.

Rais shunday dedi-yu, salomlashmasdanog ido-rasiga kirib ketdi. Madraim qabulxonada esankirab, yaktagining etagi bilan peshonasini qayta-qayta sidirib artgancha, kirsammi-kirmasammi deganday

depsinib turdi-da, tavakkal qildi shekilli, nosqovog'ini qayta belbog'iga qistirib, eshik qoqdi. Ichkaridan ovoz kelmasa ham ochib kiraverdi.

– Frontchi o'rtog'im kasalxonaga tushib qolibdi, xo'jayin. Xabar olmasam bo'lmaydi. O'zingizdan qolar gap yo'q, birga o'lib, birga tirilgan qiyomatlik oshna... Shomgacha aylanib qaytaman, xo'jayin, – dedi elanib. Nima desa ham, jerki tashlasi ham, chidab beraman, deganday yerga qaragancha kutdi. Rais uzoq indamadi.

– Mayli... – dedi anchadan keyin.

Tavba, astag'firullo, ko'z tegmasin bu yosh xotinning sharofati, albatta. Lekin aynimasan turib, paytida jo'nab qolish kerak.

– Menga qarang, – dedi rais uni ostonada to'xtatib. Madraimning yuragi shuv etdi: «Aytmadimmi, ana, aynidi!» Rais bir parcha qog'ozga nimadir yozib, ellik so'm pul qo'shib uzatdi.

– «Domdehqonga» tushasiz-ku? O'sha yerga yaqin. Shota Rustavelining muylulshida oynavandli magazin bor, «Teje» degan. Atr olasiz. – Madraimning ellik so'mni uslagancha hayron bo'lib turganini ko'rib, yuzi kengayib jilmaydi. – Keliningizga. Otini mana bu qog'ozga yozdim.

– Xo'p bo'ladi, xo'p bo'ladi, – deya chiqib ketdi o'zida yo'q xursand Madraim. Osongina javob berganining boisi bu yoqda ekan-ku. «Selmag» ga bir asil mol kelsa, avval shu kishining oldidan o'tishadi: «Kelinyimizga mabodo...?» Ellik so'mni yana olib qarab qo'ydi Madraim. O'zining kecha olgan ikki oylik «avansi» 43 so'm, mana belboqqa tuguglik... Nahotki bitta atir ellik so'm bo'lsa? Oti ham... oti ham qiyomat, begona so'z bo'lsa kerak, odamning tili kelishmaydi. Shiyponga qaytib toza etik, oq ishton,

yangi yaktak kiyib, barini belbog'ga qistirdi-da, yo'lga tushdi. Hayallab bo'lmaydi, kechga qaytib kelishi kerak. Yaxshi bo'ldi. Bo'tavoy-serjantdan hol so'rash qiyomat-qarz edi, raisga rahmat... jonon kelinga rahmat, ochig'i. Madraim o'zicha jilmayib qo'ydi. Shoshsang shaharga bor. Hamma yelib-yugurib yuradi. Ko'pchilik qatori sen ham. Imillab ko'r-chi, turtib o'tadi. Eshitasan eshitmaganingni. Shoshganingdan, ishing bitganini o'zing ham payqamay qolasan. Bozor, kasalxona, Bo'tavoy bilan apog-chapog subbat, yana «Domdehqon», Shota... Rustaveli, chakana yo'l bosmadi, o'ylab qarasa. To'g'ri, Bo'tavoy-serjant bilan uzoq o'tirishga ruxsat berishgani yo'q. Bu ham o'z yo'lga omad-da. Oynavandlik «Teje» yopilib qolsa nima bo'lardi! «Teje» degani nima degani – xudo biladi. Madraim raisning yozib berganini ichida takrorlab-takrorlab, yana o'ziga ishonmay, qog'ozni ochib boqdi. «Poisoh» – eskicha harfda yozilgan ekan. Kapitalistlarda tutganini qo'ymaydi, hali-hali o'sha eski alifboda o'qib-yozib yurishibdi. Eshikni ochishi bilan, oh-oh-oh, allaganday xushbo'y hidlar dimog'iga urildi. Sotuvchi qizaloqlarni-chi? Osmundan tushgan parizodlarni deysiz, qo'g'irchoqday bejirim, uzun kipriklari yuziga soya solib, yanoqlari yal-yal yonib turibdi. Ayniqsa, o'rtada birov chilvirsoch, ko'zlari teran chashmaday, qarashlari osuda... Xayrining yoshligiga o'xshab ketadi. Xudo haqqi, sal yondan qarasang, Xayrining o'zginasi-ya, iyaginging chuqurchasigacha... Madraimning esini yig'ib olishiga ancha vaqt ketdi. – Atirni sho'ta sotadimi?

– Atr do'konida turibsiz-ku, amaki! – deb chiroyli kaldi sotuvchi qiz. Ovozi o'xshamas ekan. Ayniqsa, hozirgi Xayriniqiga. Madraimning qulog'iga xotinning

ovozi eshitilib ketdi: «Hoy, qaysi qora go'rda yuribsiz? Avans qani, bugun yigirmasi! Opkeling buyoqqa, suprani qoqib, qozoni qantarib qo'yibman!»

Avans... Oylik, maosh degan gaplar bo'lardi, bizda avans degani chiqqan. Yalintirib beradi-da, yillik hisobda yalintirmay-netmay osongina chiyirib qoladi...

Madrainning xayoli ketib qolgan ekan, haligi parizodning ovozi o'ziga keltirdi.

– Xizmat?

– Payson degan atir kerak, – dedi Madrain qog'ozdagi yozuvni zo'rg'a eslab. Qiz yelkasini qisib, dugonasiga kulib qaradi.

– Unaqasini eshitmaganmiz, amaki.

– Nega eshitmas ekansiz, mana, – deb Madrain raisning qog'ozini uzatdi. Qizlar o'qib, kulib yuborishdi. Keyin haliginisi sodda odamdan uzr so'raganday, muloyim ovoza tushuntirdi:

– «Puazong» deyiladi bu, amakiyon, – atir nomidagi oxirgi «N» harfini dimog'idan chiqarib aytdi, – Fransuz atiri bu, juda qimmat.

– Bilaman, ellik so'm, – dedi Madrain belbog'idan pulni chiqarib. Qizlar tushunishdiki, bu sodda odamga nozik xaridni bir boyvachcha buyurgan. Olib ko'rsatishdi. Kichkinagina, tillarang xat bitilgan shishacha. Madrain uni awaylab oldi, shishacha dag'al barmoqlari orasida naq yo'qolib ketdi. Xaridor ishonqiramay, qoshini chimirib uzoz boqdi. Ajabo, ellik tomchi ham kelmaydi-ku bu! Nahotki, tomchisi bir so'mdan oshiq bo'lsa?

– Boshqa hech narsa olmaysizmi, amak, – dedi haligi Xayrining yoshligiga o'xshagan qiz bo'yalgan uzun tirnoqli barmoqlarida qalamni o'ynatib, – kelesoyimlarga ham oling, arzonrogi bor.

Xayriga atir? Madrain xoxolab kulib yuborishiga sal qoldi. Xayriga-ya! Shishasi bilan urib boshingni yorar! Bugun yigirmanchi, avansni kutib, ko'zi to'rt bo'lib o'tirgandir. Pul o'rniga mana bu shishachani olib borsa, jazavasi tutib, doktor chiqirishiga to'g'ri keladi. Bu parizodlar nimani biladi, nimani ko'ribdi, na ro'zg'or bularda, na bola... O'tgan yigirmanchi chisloni esladi. Avansni olib endi ko'chaga chiqsa, do'konga muzdek pivo tushgan ekan, to'rtta ulfat uchrab, ikki krujkani ichib qo'ydi-da. Madrain o'zi ichmaydi, hadeganda nafsga ham chalg'imaydi, ammo ko'ngil ekan, ha-ha ol, bilan yana bir krujka ichdi. Pivopurush loterey ham sotayotgan ekan, jazmanlariga yo'l-yo'lakay to'rtta-beshtasini tutqizib turibdi. Gapdan gap chiqib, olag'ovurda kimdir maqtanib qoldi: qo'shni xo'jalikda bir oshnasi shu lotereyga mashina yutibdi emish. Yana biron kimdir g'ilam, kimdir mototsikl yutgan deb xabar qildi. Sal kayf qilgan Madrainni ham shayton chalg'itdimi, yigit-yalang qatori uchta loterey olsa bo'ladimi?!

– Yutasiz, yutasiz, qatorasiga oling! – deb turishibdi tekin nasihatchi sheriklari...

Qisqasi, endi uga kelgandagi ahvolni ko'ring. «Avans»ni kutib o'tirgan Xayri loterey biletlarini shundog'oldi-yu, shirakayf erining basharasiga urdi, biletlar sochilib, shabadada hovlining burchak-burchagiga, biri toklar orasiga, biri o'choq boshiga kapalakday piriirab uchdi.

– Baloning o'qini yutasiz! Tuyani dumi yerga tek-kandal! – deb baqirdi Xayri, – ana boqing to'rtta bolani o'sha qog'ozlaringiz bilani! – bo'xchasini tugib, onasinkiga ketib qoldi.

Bunday paytda unga qarshi gapirib bo'lmaydi, jazavasi tutib, yiqilib qolishi ham bor. Madraimning kayfi yelday uchib, ostonada qaqqaygancha qoldi. Bola bog'ish nimaligini ana o'shanda bilgan Madraim. Yolg'izlikning o'n to'rtinchi kuni kechasi birinchi yig'lab, xayolida xotinining yorilib ketgan chagalarini o'rganib haligacha birovga ochilib gapirgani yo'q. Xotini o'n yetti kun deganda bolalariga tugunchada u-bu ko'tarib qaytib keldi. Adabini yegan Madraim Xayrini hali ham yaxshi ko'rishini ich-ichidan tan olgan edi, o'shanda.

– Boshqalar oladi-yu siz nega olmas ekansiz kelinoyimlarga! – dedi haligi qiz, – yozaman chek, o'n to'qqiz so'm bo'ladi, xo'pmi, amakijon?

Uning ovozi eritvordi Madraimni. Atirni qo'lga olganida o'sha shirinabonning qo'lini olgan day bo'ldi: kichkina, chiroyli, xushbo'y... Indamay o'ylanib turganida qiz chekni yozib, u tomon surib qo'ydi. Madraim tufugini zo'rg'a yutib, quruqshagan lablarini yaladi. Yuziga muloyim qaragan qizga bir nima deyolmay, pulni chiqardi, xayollari chuvalib, «men nega olmas ekanman, men... nega olmas ekanman...» deya ko'nglida takrorlab, do'kondan chiqdi. Qizchaga rahmat, xayr deyoldimi-yo'qmi esida ham yo'q. Endi uning xayoli boshqa yoqda edi: uyga qanday kirib boradi, nima deydi, xotiniga atirni qanday beradi, undan keyin nima bo'ladi? 19 so'm! Avansning qariyb yarmi-ya! Kechga yaqin eshikni g'irchillatmasdan ochib, yuvosh kirib bordi. Xotini o'choq boshida bolalar bilan chug'ullashardi.

– O'zingizmisiz? – dedi Xayri sharpani sezib, qayrilib qaramasdan. – Ulfatlar uchramadimi ish-qilib? Bugun yigirmanchi chislo-ya...

«Boshlandi!» – dedi Madraim ichida: savollarga javoban, «Ha, keldim», deganday yo'talib qo'ydi. Lekin hamon etigini yechmay, garangsibroq turardi. Ha, qo'lingiz cho'ntagingizga yopishib qoldimi?

– Yo'g'e, nega... – Madraim hali ham atirni mahkam ushlab turganini endi payqab, qo'lini oldi. Jilmaygan bo'ldi. Sun'iy chiqdi jilmayishi.

– Bir nimani yashiryapsiz, – dedi xotini. Madraim bolalarning ham kelib, «hozir janjal bo'ladi» deganday baqrayib turishganini ko'rdi.

– Qiziqmisan... Nimani...

O'zi bo'lsa o'ylardi: avval sovg'ani bersammikan, yo qolgan pulnimni? Ikkalasi ham xatarli, ikkala holatda ham o't olib ketishi mumkin...

Endi tavakkal, bo'lar ish bo'ldi. Madraim har narsaga tayyor edi. Atirni yaktak kissasidan shartta chiqardi-yu, xotiniga uzatdi.

– Manal!

Xayri beixtiyor ikki qo'llab oldi-yu, peshonasini tushitirib, bejirim qutichaga tikilib qoldi. Keyin uni asta ochib, jajjigina yumaloq atir shishasini xuddi uchib ketadigan qushchaday hovuchida ushlagancha, yana uzog tikilib turdi. Nima bo'ldi unga? Tezroq bir nima desa-chi? Yo g'azabi tomog'iga tiqildimi? Haqir, Xayri, so'k, qarg'a, faqat jim turmal... Hozir jazavasi tutadi, idish-tovog'ni ko'tarib uradi, yiqiladi... Madraim juda ko'rqib ketdi: Xayri tildan qolgan, yumuq ko'zidan yosh sizib, ko'ksi to'liqlanib, g'avdasi chayqalib ketdi.

– Oyi! Oyi! Nima bo'ldi sizga? – deyishdi bolalari.

– Xayri, – dedi uning yiqilib ketishidan qo'rqgan Madraim. Haqiqatan ham yiqiladigan ekan, eriga suyalib qoldi va shu zumdayoq bo'ynidan mahkam

quchib, osilib qoldi. – Xayri... – dedi yana Madraim xavotirda.

– Hidi yaxshi ekan,... boshim aylandi. O'zingiz yaxshisiz-da, – dedi Xayri yana mahkamroq quchoqlab, – esingizda turgan ekan... to'yimiz bo'lgan kun. Esingizda ekan...

– Xayri, o'zingni bos, bolalar qarab turibdi, – dedi baxtiyor Madraim iljayib.

– Allaqachon unutgansiz deb o'ylovdim.

– Xayri, esingni yig', kupa-kunduzi... deya shivirladi xotinining haroratini butun vujudi bilan sezgan Madraim.

– Axir kechasi yana ketasiz... bugun ham oydin, suv taraysiz...

TAQDIR KIMNING QOLIDA

Qulahmadning hushyorxonadan chiqadigan kuni edi. Zulukdaygina mo'ylov qo'yg'an yosh leytenant uni xonasiga chaqirdi-yu, bunday vaqtda qiladigan «o'git-nasihat»ini boshlayolmay, timirs-kilanib qoldi. Stolidagi qog'ozlarni yig'ishtirdi, tungi navbatchilar bul'ab ketgan kuldonna qayoqqa to'kishni bilmay, noiloj qaytib joyiga qo'ydi. Bu hamon g'ashiga tegardi shekilli, tag'in olib stol tagidagi sim savatga, g'ijim qog'ozlar ustiga to'kdi. Chekmaydigan odam, tamaki kulining hidiga burnini jiyirdi. Bosh ko'tarmay, Qulahmadga gap qotdi:

– Yara bitnabdi-ku hali ham...

– Bu... o'tgan safargi, – dedi Qulahmad ham bosh ko'tarmay, iyagida soqol aralash qo'tirlab qotgan eski yarani siladi. Keyin kir ko'yagining yogasini qayirib, yelkasini ko'rsatdi. – Kechagisi mana, bilimay ketdi...

Chodirayev

Yosh leytenant yana ancha ezmalandi-da, axiri uning yuziga tikka, achinib boqdi:

– Menga qarang, Qulahmad aka, yoshingiz ellikdan oshibdi. Men sizga, o'g'lingiz tengi odam, har gal o'git-nasihat qilib o'tiraman... – u gapidan to'xtab qoldi.

Qulahmadning turqi haqiqatan ham juda ayanchli edi. Hushyorxonada dush bor, sovun bor, majbur qilib cho'miltirishadi, soch-sogollarini qirib qo'yishadi. Bu bo'lsa o'shanda ham bir umr sovun ko'rmaganday... Yo'q, u o'zi shunaga, turgan-bitgani shu, qandaydir yuvuqsizning nusqi bor, afti-basharasida... Qovoqlari salqi, yor'og' boshiga qasmog' do'ppini bostirib kiygan, blaklarida yuvsa ketmaydigan dog'lar, qoramoy yuqi, qo'llari chaga, kulrang yuzida eski-yangi yara izlari, bo'yinlari tirnalgan...

–...baribir nasihat qilishga to'g'ri keladi, – deb davom etdi leytenant. – Hech kim siz bilan menday muloyim gaplashmaydi, bilib qo'ying. Ish joyingizga ham bu gal, mayli, qog'oz yozmayman. Buning qadriga yetish kerak. Agar yana bir marta mushtlashadigan bo'lsangiz... – qarasa Qulahmadning xayoli uzoqda, qulog'iga gap kirayotgani yo'q. Leytenant o'rnidan turib, eshikni mahkamroq jipslab yopib keldi.

– Menga qarang, g'rajdanin Qulahmad aka, agar ichmaslikning ilojini topmasangiz, iching...

– Men piyonista emasman.

– Iching, mayli, – dedi leytenant eshik-derazaga yana alanglab qo'yib, – lekin janjal-suron ko'tarmang, xudo haqqi, mushtlashmang! Hech bo'lmasa shuni eplay olasizmi?

– Men hech kimni urmayman... Meni...

– Nega meni hech kim urmaydi-yu, sizni uradi? Bekor gap! Jim yotgan itni ham hech kim tepib

o'tmaydi... – Leytenantning so'zi og'zida qolib, kamgap Qulahmadga yer ostidan qarab – kechirasiz... – deb qo'ydi-yu, o'zi ham o'ng'aysizlanib, jim bo'lib qoldi. – O'tgan gal ham shunday degansiz, – dedi ovozini pasaytirib. – Kim urdi desak, xuddi bezabon, indamaysiz. Bezorilarni, jinoyatchini yashirganlik uchun qonunda alohida modda bor, bilasizmi?

Leytenant amin edi: Qulahmad ashaddiy ichkilikboz. Ichsa shunday mast bo'ladiki, kim bilan adi-badi aytishib, kimlar bilan mushlashganini ham esolmaydi.

– Menga qarang, Qulahmad aka, odamning taqdiri o'z qo'lida, ha, har kim... Ilgari ko'p eshitgan odatdagi bu o'gitlardan zerikib o'tirgan Qulahmad shu o'rinda bir hushyor tortganday, sekanib qo'ydi, qizargan mijjalarni pirtirib, leytenantga tikildi. – Qo'lingizda hunaringiz bor, otam, shu yoshga kirib o'zingizni eplolmaganingizga... Ahvolingizga qarang... Mening sizga gap uqitirib o'tirishim uyat. Boring.

Qulahmad xuddi shunday bo'lishini kutganday, yengil turib, eshikka qarab yurdi, lekin ostonada orgasiga qayrilib, xuddi yosh bola singari:

– Ikkinchi qilmayman, leytenant, – dedi-da, eshikni tovushsiz yopib, chiqib ketdi.

JEKka qaytib kelganida soat to'qqizdan osilgan, xonalarda hech kim yo'q edi. Telefon jiringladi, Qulahmad trubkani olib, «Hech kim yo'q, hamma obyektda» dedi-da, o'zining divaniga cho'zildi. Uning yotadigan joyi shu, o'rtoqlari o'rniga kechalari navbatchilik ham qiladi, shuning uchun hamma xodimlar undan xursand. Kecha-yu kunduz tinmay jiringlab turadigan telefonga beriladigan javob ham yod bo'lib ketgan, xuddi avtomatday: «Hech

kim yo'q, hamma obyektda». Hozir yotdi-yu, yosh leytenantni o'ylab ketdi: yaxshi bola. Milisaga sira ham o'xshamaydi. Taqdir odamning o'z qo'lida emish... Jo'n gapini qara. Hay, to'xta, bordi-yu chindan ham shunaga bo'lsa-chi? Eh-he... Aytishga oson. Soddada, nimani ham ko'ribdi. Nima bo'lsa ham, bolani qynamasligi kerak. Yo'q! Endi boshqacha yashaydi, gap bita! U ishchanlik bilan o'rnidan turib, buyurtmalar yoziladigan daftarni varaqldi. Titilib ketgan varaqdarga santexnikka kechasi bilan to'rta buyurtma tushgani yozilgan ekan. Sherikchilik tumbochkasidan kechagi somsa bilan ikkita olmani olib, tikka turgancha chaynadi, ustidan shishani boshiga ko'tarib, kefir ichdi-da, asbob qutisini olib, yaqinroq manzilgohga qarab jo'nadi. Qayerlaridir zirqirar, boshi g'uvullab, qoqilib-surilib borardi.

Qulahmadning qo'li gul. Hunariga ehtiyoj ham ko'p. Zang bosib ishdan chiqqan ventillar, rezinasi yeyilib oqib yotgan kranlar, latta tiqilib qolgan oqova quvurlar, tir sillab devorga urgan qaynoq suv... Bu og'ir, gohi nopok, qora ishlarning oxiri-keti yo'q. Bu bilan bir umr kun ko'radiganlar ko'p. Qulahmad ham yuraversa bo'lardi, hech kim xalaqit bermaydi. Lekin tirikchilik ekan, ba'zan bir nimaga duch kelib qoqiladida, keyin... Ayb albatta o'zida. Yoki taqdir o'z qo'lingda degani shumlikin? Taqdir... taqdir degani bu umr-ku axir? Butun bir umrga bitta leytenant bilan duchlashuv nima degan gap, bir hafta vaqtning o'tishi-chi? Mana, bir haftasi ham o'tdi, vogeasiz, mashmashasiz... Hammasi joyida, hamma buyurtmalar bekami-ko'st bajarilib turibdi. Qulahmadning yaralari ham bitib ketdi, milisaga ham duch kelgani yo'q. Zuluk mo'ylov leytenantni ham endi yelkasining chuquri ko'rsini!

Lekin oilasiz odamning ishi qiyin, ba'zan yolg'izlik ich-ichini yeydi, yuragi ezilib ketganda dil tortib kimlargadir yaqinlashadi, ulfatga qo'shladi. Mana, hafta tinchgina o'tdi deganda, to'qqiz qavatlikning biqinida bir to'da remontchilar uchrab qoldi. Kranini tuzatgan kvartiraning issiq suvini ochib, yerto'ladan chiqib kelarkan, bu suronli, xushchaqchaq bolalar keksa santexnikni kasbdosh deya o'zlariga yaqin olishib, iliq salomlashishdi. Shokir degan bir cho'log'i bor ekan, og'zi qulog'ida, cho'ntagidan yaritmani olib, ko'z-ko'z qildi.

– Qayoqdan olaqolding darrov, Lang?

– Tekini Osmondan tushdi! – dedi Shokir cho'loq, – oltinchi qavatdan batareyani ko'tarib tushayot-sam, bir kampir tushmagur etaginga osilib olsa bo'lading! Kirsam, suv oqib, vannasi jezday sarg'ayib yotibdi. Savob bo'lar deb, shundoq olib qayta burab qo'yuvdim, tappa to'xtadi, jonivor. Endi chiqay desam, kampir manuni qo'yninga tiqayapti. Yo'q, buvi, dedim, bizga oylik to'lashadi, bo'maydi, dedim. Qani endi ko'nsa, hansiragancha, hadeb tiqishtirayotibdi-da, kampir tushmagur. Atay navbatga turib, senga deb olib qo'ygannan, bir hafta kutdim seni, deydi. Meni santexnik deb o'yilagan ekan. Tak chto, boboy, sizning ham haqingiz bor bunda, yuravering, – deya Shokir Qulahmadni yengidan ushladi.

– Yo'q, bolalar, menga to'g'ri kelmaydi!

– Be, besh kishiga nima bo'lardi yarimta, yuring, – deyishdi sheriklari ham.

– Rostini aytam bolalar, kech qolaman...

Qulahmadning bo'shgina qarshiligini noz deb tushungan ulfatlar qo'yarda-qo'ymay uni to'qqiz qavatli uyning podvaliga olib tushib ketishdi. Bu

podvalni Qulahmad yaxshi bilardi: ozodagina is-siqxonasi bor. Sozlovchilar axlatxonaga tashlab yuborilgan eski stol bilan shaloq divanni ham olib kiritib, uyoc-buyog'ini tuzatib olishgan. Goho sovuq kunlari shu yerda yashiklarga o'tirib, nonushta qilishadi. Bu gal u yerdan anchagacha ahil gangur-gungur gap, ba'zan esa baralla kulgi, gohida o'qin-o'qin gurgung bir maromda eshitilib turdi. Salkam bir soatlardan keyin podvalda nimadir taraqladi, shovqin-suron ko'tarildi, yana keyinroq esa, baqiriq-chaqiriq, so'kinish, xunuk tovushlar yangradi. «Issiqxona»ning tunuka qoplangan pachoq eshigi taraqlab, qulog'iga cha qizarib ketgan Shokir otilib chiqdi. Ketidan sozlovchi bolalar yerto'la eshigidan bir-bir chiqib, har tomonga tarqaldilar, kayfidan asar yo'q, hammasi behafsala, qovog'i soliq, gap-so'zsiz, biri tish orasidan chirs etib tuflab, biri jahl bilan nimanidir tepib, jo'nab qolishdi. Qulahmaddan darak yo'q edi.

Yomg'ir savalay boshladi. Chang bosgan yap-roqlar yoqimli shitirlab, tuproq hidi anqidi. Tar-novdan podvalning zinasiga sharillab suv oqar edi. Shu mahal pillapoyalari ko'chib ketgan o'sha iflos zinada Qulahmadning qasmoq do'ppisi, keyin o'zi ko'rindi. U ikki qo'lli bilan devorlarni ushlab, gohi esa «to't oyoglab», zo'rg'a chiqib kelar edi. Endigina hushiga kelganga o'xshaydi. Yorug' jahon bortligiga ishonmayotganday, ko'karib ketgan ko'zlarini chimirib, osmonga boqdi, hansirab kesakiga suyandi, keyin o'pka to'latib nafas oldi-da, duch kelgan joyga, devorga suykilib o'tirib qoldi. Yomg'ir quyar, ro'parasidagi daraxt barglaridan yelkalariga loyqa suv tomar, u esa, sulayib o'tirgancha, seskannas ham edi. Xuddi shu joyga kulmi, garbit goldig'imi

to'kligan ekan, osti ivib, qo'lansa hid taraldi. Lekin Qulahmad buni ham sezmad, hushiga kelishi bilan haligi ulfatlarini ko'z oldiga keltirishga urina boshladi. U bunday «kampaniya»larni ko'p ko'rgan. Ichuvchilarning ajab turfa xillari bo'ladi. Birov sal kayf qilsa, shiringina jinni bo'ladi-qoladi. Otangdan ham mehribon, umrida ko'rmagan odamning betga so'lagini surkab o'pishgani o'pishgan. Birov bo'lsa yengiltak, shilqim bo'lib qoladi. Umrida qilgan hamma iflosliklarini hayosizlik bilan to'kib soladi. Yana biri bekordan bekor yig'lab, jigarini ezib, ko'ksingni ho'l qivoradi. Boshqa biri esa, hayvon bo'lib ketadi, butun dunyo uning oyog'iga tiz cho'kishi kerakday, pichog'iga qo'l yugurtiradi. Birov beozor ko'pirib maqtansa, birov dunyoni dushman bosganday, esiga kelgan odamni yoki o'z xotini yomonlab ketadi. Uni bo'g'ib o'ldirishga va'da beradi. Yana birovning esa, bir umr ichini tatalab, bag'rini zaharday tilib yotgan biron dardi qo'zg'ab, achchiq alami posodday yoriladi-da...

Qulahmadning xayoli bo'lini: yomg'ir yuvib o'tgan yo'lkadan bilagiga qizil tasma taqqan uchta nazoratchi gurunlashib borardi. Qulahmad o'tirgan joyidan yonidagi buta tagiga asta ag'anadi. Chunki ko'z qovog'i ko'karib, bu ahvolda o'tirgan odamni ko'rishsa, nazoratchilar indamay o'tishmaydi. Qulahmad yumalab yotgan joyi bilchillagan loy bo'lsa ham, biqiniga sovuq o'tsa ham, chidadi, bordi-yu payqab qolishadigan bo'lsa ularga nima deyishini o'ylab ketdi. «Tanimayman ularni... Men boshlaganim yo'q. Nega bo'lmasa odamning yuziga tuflaydi?.. Men nima qilibman ularga...» Ko'kargan ko'zini ushlab qo'ydi Qulahmad. Nazoratchilar o'tib ketishdi. Uh... hali ham or-nomusi bor-da. Uning o'rnida

boshqa birov bo'lsa bu milisa-yu hushyorxonalarini allaqachon pisand qilmay qo'ygan bo'lardi. Ha, nomusini saqlab qolgan, naqadar azob bo'lsa ham u bilan yashash... Ammo-lekin jo'nash kerak bu yerdan. Mahallaga otning qashqasiday bo'lib qoldi. Umuman, bu tumandan, iloji bo'lsa, bu shahardan butunlay gundon bo'lish kerak. Yuradimi endi bitta zulukmo'ylov bolaga chap berib... Nega iloji bo'lmagan ekan? Bedananing uyi yo'q, qayga borsa pitbidiq. Ertasiga arizasini tashlab, asbob qutisini oldi-da, avtobusga chiqdi.

- Bitta. Ohangaronga.

- Avtobus Chirchiqqa boradi.

- Mayli, Chirchiqqa, - dedi Qulahmad. Pattachi uning aftiga bir qarab qo'yib, patta yirtib berdi. Qulahmadning yo'lidayoq omadi yurisha boshladi. Bir o'rindiqda to'rxaltalarini tizzasining orasiga olib o'tirgan qo'shnisi, baqaloqgina po'rim yigit, juda ochiq, sergap ekan, birpasda o'zini ham batamom tanitib, Qulahmadni ham miridan-sirigacha bilib oldi.

- Bizni xonim mana shunaga - to'rttani tug'yib qo'yib... Ana endi bu qop-u tugunlardan akang qarag'ayni yelkasi yag'ir... Xo'sh, endi munday qilamiz, Qulahmad aka. Avtobusdan tushib, tikka kapratiga boramiz. Temirni qizig'ida bos, degan mashoyixlar. Bizda ishlaydiganlar albatta kamida ikki-uch hunarni egallagan bo'lishi kerak, amolaykim, boshlig'imiz o'g'il bola yigit, sizning ahvolingizni hisobga oladi. Keyin, santexnik degani bizda yo'q hisob.

- Menga qarang, Hojimat uka... Boshliq deyapsiz, men uning oldiga bu qiyofada kirsam...

Hojimat qo'shnisiga razm solib, boshidan oyog'igacha yana bir ko'zdan kechirdi.

– Hechqisi yo'q, undan avval sartaroshxonaga birrov kirib, pardozi qilib chiqamiz, aka.

Qulahmad xursand bo'ldi.

– Siz o'zingiz qaysi hunarlarni...

– Menmi? Men, – deb ilib ketdi Hojimat, – hozircha suvoqdaman. Amolaykim, zarur bo'lganda oboy yelimplashni ham eplab turibman. E, yigitga hunar kasod ekanni, o'rganib ketasiz, Qulahmad aka, bizda nima ko'p – ikit-chikir yumush ko'p. Muhandis, dezayner, agronom, hatto pedagoglar ham bor, amolaykim. O'shalarining orasida siz bilan biz ham yursak nima qipti, aka. Daromad bo'lsa chakki emas.

– Bunisi menga baribir...

– Menga ham! Amolaykim mana bu zumrashalar bor-da, – deb Hojimat negadir yana to'rxaltalarini ko'rsatdi.

Bu baqaloq Qulahmadga borgan sari yogardi, ko'pdan beri birinchi marta ichi ilib, jilmayib qo'ydi. Ular to'rxaltalarni ko'tarishib tushgach, sartaroshga kirib chiqdilar-da, shahar bog'ining orqasidagi bir gavatlik bino yonida to'xtadilar. Hafsala bilan tekis oqlangan bino pesttoqiga «Fayz» – kooperativ «UYuT» degan lavha qoqilgan edi. Hojimat: «Dadil bo'ling, aka, boshlig'imiz o'g'il bola yigit, ha!», deb Qulahmadni shu yerda qoldirib, «zumrashalari» yoniga shoshildi. Boshliq chindan ham o'g'il bola yigit ekan, siyosat, qilib o'tirmadi:

– Bizda hozir birinchi galdagi masala – «Fayz» ning obro'sini oshirish. Jamoamizda hamma ziyoli.

– Tushunarli. Men ichmayman. Agar qoidalarinigizga xilof bir ish o'tsa, ikkinchi kunioy bo'shatib yuboring, roziman.

– Ish bo'shatishgacha borsa, kech bo'ladi. Men sizdan hech narsani yashirmayman.

– Men ham yashirmayman, sizga xalaqit berishi mumkin bo'lgan ikkita kamchiligim bor: birinchidan, hunarim bittagina, ikkinchidan, turarjoyim yo'q.

Boshliq birozi o'ylanib, kuldi:

– Bu ikkita kamchilikdan ikkita fazilat yasamasak, kooperator bo'lib qayoqqa bordiki!

Qulahmad tushumadi-yu, yuzi yorishibroq unga tikilib qoldi.

– Bizga «tungi direktor» ham kerak, hunaringiz ikkita bo'ladi. Shu yerda, – qo'llarini yozib, yaxshi jihozlangan keng xonani ko'rsatdi, – hozircha shu yerda yotib ham yuraverasiz. Shu bilan ikkinchi kamchilingiz ham... Keyin u «tungi direktor»ning vazifalarini uzok tushuntirdi. Shunday qilib, ajoyib odamlar orasiga tushib qoldi Qulahmad. Bunangani o'ziga ham chalingan emasdi. Uy-xo'jalik ishlarining o'nlab xillarini bajarib turgan «Fayz» kooperativini butun shahar bilardi. «Fayz»danman, chaqirganmidingiz?» desa qo'li gul bolalarga hamma eshiklar lang ochiq. Qulahmad ikki oy deganda umrida kiyimagan kostum oldi, hushyorxonalarda qirilaverib unutilib ketgan sochlari ham qorayib chiqdi. Chakkalarigina jinday kumushrang edi. Yuzidagi, bo'yidagi yaralar chandiqsiz bitib ketdi. Ammo bu yuzaki o'zgarishlar, yuzadagi yaralar ekan. Ularning bitmaydiganlari borigini oddiy bir telefon qo'ng'irogi eslatib qo'ydi.

Qulahmad tungi buyurtmalarni dispetcherga topshirgandan keyin, kabinetni shamollatib, endi nonushtaga chiqmoqchi bo'lib turgan edi, boshliqning xosxonasida telefon jiringlab qoldi.

– Allo, ha, «Fayz», – dedi Qulahmad trubkani olib.
– Ijrogoʻmdan gapiryapmiz, allo, men Mirtojiiyevman... eshityapsizmi?

Qulahmad boʻshashib, oqarinqirab ketdi.

– Kim? Kim gapiryapti?

– Komil Mirtojiiyevichman...

Ijroiya komitetining xodimi keyin kooperativ bilan tuzilgan shartnoma-yu, uning allaqaysi moddalari, qandaydir instruksiya haqida ezmalanib gapirdi. Bu tanbeh-u eslatishlar Qulahmadning qulogʻiga kirgani yoʻq, u tarashadek qotib qolgan edi. Trubkani joyini zoʻrgʻa topib qoʻydi-yu, hozir Komil Mirtojiiyev eshikdani, derazadani kirib keladiganday, atrofga alangladi. Keyin esini sal yigʻib oldi shekilli, divanga oʻtirib qoldi, koʻziga stoldagi telefon apparatidan boshqa hech narsa koʻrinmas, haligi ovoz havoda muallaq osilib turar edi: «Komil Mirtojiiyevman...» Avval, u meni atay qidirib topib, tusmollab telefon qilyapti, degan fikr keldi, unday boʻlsa, tanidimi-yoʻqmi? Toʻxta-chi... ovozi oʻxshamaydi shekilli? E, shuncha yillardan keyin ovozni tanib boʻlar ekanmi. Koʻchada roʻpara boʻlishsa ham, bir-birini tanimas... Darvoqe, bu boshqa odam boʻlsa-chi? Ismi-familiyasi oʻxshash odamlar kammi! Bu oʻylardan Qulahmadning joniga orom yetmadi. Bu oʻsha Komilmi, boshqami, endi buning ahamiyati yoʻq, goʻyo butun umrining astar-paxtasi agʻdarilib, oʻy-xotiralari ham, koʻngil mulki ham algʻov-dalgʻov boʻlgan edi. Ertasiga Qulahmad gʻoyib boʻldi. Toshkent vokzalida tasodifan oʻsha Hojimat poʻrimni koʻrib, «Fayz»ga endi qaytib bormasligini aytdi. U xuddi tuman ichida adashganday, boshi oqgan tomonga qarab yurardi, qayovga boʻlsa ham,

faqat olisroqqa ketisa boʻlgani... Kechasi bir maromda taqa-tuq, taqa-tuq qilib, shaldirab ketayotgan boʻsh vagon ichida hushiga keldi. Mudrab qolgan qariya tikkeytirib qoʻyilgan qopiga suyanib oʻtirgancha mizgʻiyotgan ekan, koʻzlarini yirtib, derazaga qaradi. Oʻshanda ham, bu vagonida qayoqlarga ketayotganini emas, oʻsha Komilni oʻylardi. Bu uzugʻ-yuluq xotiralar tushlarini oʻngiga ulab qancha davom etdi – oʻzi ham bilmaydi.

... Oʻqish muhimmi, gʻoyaviy soʻflik muhimmi? Gʻoyaviy soʻflik muhim. Bu isbot qilingan. Bu isbot talab qilmaydigan aksioma edi. Shuning uchun dars emas, majlis birinchi oʻrinda turardi. Yoshlar majlisi uch kun surunkasiga davom etganda ham pedagoglar hech narsa deyolmay, muallimlar xonasida intizom saqlab, kun-uzun shumshayib, bekor oʻtirishardi. Institutning katta zalida bu shovqin ikki kundan beri tinmaydi. Uchinchi kuni Mirkomil (u vaqtda Komilning oti shunday toʻla aytilar edi) majlisni qariyb butunlay oʻz qoʻliga oldi. Uning ovozi hamma suronlarni bosib tushar, keskin, dadil edi. Avval zalning oʻrtarogʻida kursining ustida tikka turib, qoʻllarini paxsa qilgancha, baqirib gapirdi. Keyin minbarga chiqib oldi. Minbar sahnada, baland joyda boʻlib, unga chiqib qoʻllarini yoygan odam zaldagi xalqning ustida uchib ketayotgan burgutday koʻrinardi. Mirkomil dastlab minbarga bir necha gazetalarni yoyib tashladi-da, baland ovoz bilan undagi yirik sarlavhalarni oʻqidi:

– «Gazandalar xalqning qahri gʻazabidan qochib qutulolmaydi!» «Hukmimiz beayov: xalq dushmanlariga oʻlim!» «Itga it oʻlimi – azmi qarorimiz qatʼiy!» – zaldagi mudhish jimlikka bir zum quiloq

solgandan keyin Mirkomil davom etdi – Mana shu adolati hukm-u qarorlarda institutimiz jamoasining ham munosib hissasi, vijdon ovozi bor! Sovet kishilari xalqaro imperializmining qonxo'r josuslarini temir supurgi bilan supurib tashlayotgan bir paytda biz o'z saffarimizning g'oyaviy sofligiga loqayd qaray olamizmi?! Fosh etilgan xalq dushmanlarining arzandolari oramizda bemalol yursa, biz bunga chidab turishimiz mumkinmi? Xo'sh! Mana, hali ham komсомol safida yurgan ikkinchi kurs talabasi Qulahmad Nazirovning otasi qayerda hozir, bilsizlar! U o'z arzandasining quloqlariga, uning yurasiga qanday qora niyatlarini, o'zining qanday chirkini umidlarini shipshidi ekan, xo'sh, buni kim ayta oladi? Men saffarimizni bunday shubhali unsurlardan tozalashni qat'iy talab qilaman!

Uch kundan beri shunday suronlar ichida gangib o'tirgan studentlar zalni boshlariga ko'tarishdi. Shunda ham Mirkomilning baqirig'chagirig'larini hammadan baland eshitilar edi.

– ...komсомol safida o'rin yo'qi!
– ...o'chirilsini!

– Haydalsini!

– Otasining yoniga borsini!

Qulahmad, bu suron oyog'dan yiqitadiganday, quloqlarini ikki qo'llab bekitib, baqirig'chagirig'lar ostida qoqila-suqila zaldan chiqib ketdi. Uni ovozga qo'yish, qo'l ko'tarish yo'li bilan emas, quvib haydab soldilar. Uni komсомol safidan emas, hayotdan haydab chiqardilar. «Otasining oldiga borsini!» Qayoqqa boradi, otasi qamalganiga ikki yil bo'ldi, otlidimi, surgun qilindimi – darak yo'q. Qayoqqa boradi. Tentirab yana o'sha institut yotoqxonasiga

borib qoldi. Begona ko'zdan yashirini, qo'rqapisa yotog'iga kirib, yechimmayoq, ko'rpaga o'ranib yotdi. Ko'zidan tirqirab chiqqan yoshlardan ori kelib, go'yo o't ichida to'lg'ani, kunni kech qildi. «Dadajon, o'zingiz dushman bo'lsangiz ham, menga yomon ishini o'rgatmangansiz-ku! Qulog'imga hech narsani shipshimangansiz! Nega bunday qilishadi? Endi qayoqqa boraman, endi qayoqqa sig'aman? Mirkomili-ku, mayli, u mendan Murshida uchun o'ch olayapti, ko'rgani ko'zi yo'q. Boshqalar-chi?» G'azabda to's-to'polon ko'targan zal ko'z o'ngiga keldi, baqirig'chagirig', nohaq haqoratlar qulog'ida yangrab, boshini ko'rpaga burkab oldi.

Ertasiga Murshidani hech qayerdan topolmadi. Dardini aytib ko'nglini bo'shatadigan birdan-bir yaqini shu edi, nima bo'ldi, nahotki u ham... Institutda darslar yo'q hisob. Majlislar davom etyapti. Qulahmadning esa endi boradigan majlisi yo'q. Gaplashadigan odami ham yo'q. Moxovday yakkalanib, hech qayerga sig'may qoldi. Faqat yotoqxonadagi farrosh kampir «dardingni olay, boy bo'lgur» deb, budkasiga chaqiradi-da, choy uzatib, gurrunglashib o'tiradi. U bir kuni xunuk gap aytib qoldi: Murshida qishlog'iga ketib qolganimish.

Keyin Qulahmad bu gapning tagiga yetdi. Mirkomil uning yotog'iga bostirib kirib, shilqimlik qilibdi. Avval yaltoqlik bilan: «Jazmaningni kavushini to'g'riladik, endi otasining oldiga ketadi, umidingni uz», deпти. Shu gapiga Murshidadan tarsaki yegandan keyin: «Manjalaqi, gazandaning quyqasini!» deb haqorat qilib, chiqib ketibdi. Tarsakining alami juda o'tib ketgan ekan, bunga ham qanoatlanmay, talabalar orasida Murshida haqida ffsqi-fasod targatibdi. Endi

majlisga olib chiqmogchi bo'lib yurganmish: «Fosh etilishini bilib, institutdan qochib ketdi, shuning o'zi isbot qilib turibdiki...» Qulahmad bunisiga dosh berolmadi. O'zi har narsaga, har qanday turtki-yu tepkilashlarga ko'nishi mumkin, ammo Murshidani tahqirlatib qo'yishga uning yig'itlik paylari tortishadi.

Qulahmad hali nima qilmogchi ekanini bilmadi. Bunday paytda odam o'z tarbiyasiga, o'z muhitiga, o'z zamonasiga yarasha ish tutadi. Davrlar bo'lganki, bunday vaziyatda yoshlar bir-birlarini duelga chaqirishgan. Lekin Qulahmad o'z davrining bolasi, uning miyasiga duel emas, boshqa tadbir kelishi tabiiy edi.

«To'xtab tur, Mirkomil! – dedi u yana, – to'xtab tur, tavgangga tayantirmasam! O'zingni shu kunga solmasam!» – bu tahdidning davomi borgan o'xshaydi-yu nima ekanligi darrov esga kelaqolmasdi. Esga avval boshqa bir narsa keldi, bundan bir yilcha avval bo'lgan bir dars. Ximiyadan, tajriba darsi.

Ximiya laboratoriyasi kamdan kam ochilar, qarovsiz edi. Farrosh xotinining paqir-u supurgilari, yong'inga qarshi asboblari ham shu yerda saqlanar, foto to'garagining mashg'ulotlari ham shu yerda bo'lar, keyingi vaqtda esa bu qorong'i xona naq omborga aylantirilgan edi. Tajriba darsi boshlanganda muallim bu tartibsizlikni ko'rib, o'zicha nimadir deb do'ng'illadi-yu, darsni davom ettirdi. Oyog ostida qandaydir portretlar teskari qilib devorga suyalgan, shior yozilgan qizil alvonlar g'ijimlanib chang bosib yotar, eski kursilar bir-biriga mingashtirib taxlangan, hatto biri pachog, biri butun qandaydir haykallar, byustlar ham burchak-burchakka yumalatib qo'yilgan edi. Sirkas, olingugurt hidi anqib, devordagi

krandan chak-chak suv tomar; muallim spirtovka-yu probirkalar qalashib yotgan o'z stoli yonida u yoq-bu yoqqa yurib turib gapirardi-yu, ko'rinish turardiki, oyog ostida tartibsiz yotgan lash-lush jig'iga tegardi. Ayniqsa, ganchdan yasalgan bitta oq byust bemalol yurib gapirishiga xalaqit berardi. Kimning byusti ekani ma'lum emas, lekin g'ira-shirada xuddi tirik odam oyog ostida yumalab yotganday, muallimning g'ashiga tegaverdi. U yoqqa o'tdi – oyog'i tegib ketib bir qaradi, buyoqqa o'tdi – oyog'i tegmasa ham egilib yana bir qaradi. Axiri o'sha yumalab yotgan labi kemtik oq byustni egilib qo'lga oldi-da, do'q etib deraza rafiga o'tqizdi, keyin basharasiga bir qarab, deraza pardasining orqarog'iga surib qo'ydi. Dars davom etdi.

O'sha vaqtda qorong'i omborxonalariga tashlab, ko'zdan yashirib qo'yilgan siniq-pachog byust-u haykallar ko'p bo'lar, bu o'shalardan birining, byusti edi. Xo'sh, allagachon o'tib ketgan, odatdagi, jo'ngina bu dars nima uchun hozir alamzada Qulahmadning xayoliga keldi, dersiz. Gap shundaki, o'sha ximiya muallimi, muloyimgina ziyoli odam, Mirkomilning dadasi edi.

Qasos jazavasida qolgan Qulahmad «hap sanimi!» deb tishini tishiga bosdi-da, yotog'iga bekiniib, qo'lga qog'oz-qalam oldi. Xalq dushmanining haykalini ro'parasiga qo'yib sovet yoshlariga «dars» beradigan gazanda ozodlikda yurarmidi! Tez orada Qulahmadning qora kuni Mirkomilning boshiga tushdi. Majlislar esa davom etardi. O'qishlar-chi? O'qishlar muhim emas, g'oyaviy soflilik muhim. Bu – Mirkomilning o'z iborasi.

Yillar o'tib, Qulahmadning dadasi, yupun, oriq, qarib qolgan bo'lsa ham, eson-omon qaytib keldi.

O'qishdan qolib ketgan bo'lsa-da, aqli-xushi butun o'g'lga to'ymasdi: «Men o'zimdanda emas, sendan xavotirda edim, o'g'lim, xayriyati – deb Qulahmadni qayta-qayta quchardi, – davr axir odamlarni ne ko'ylarga solmadi, otasidan kechib ketgan bolalar bor. Yomon yo'lga kirganlar qancha...»

Qulahmad hali yomon yo'lga, kirmagan edi. Yana bir yildan keyin ximiya muallimining otilib ketganligi ma'lum bo'ldi-yu, Qulahmad, ichiga loyullagan cho'g' tashlanganday, o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay, uzlat istab borib «betonka»dagi xoli restoranda birinchi marta «to'yguncha» araq ichib, yiqilib qoldi. Mastlikda kimga nima dedi, eslolmaydi, lekin noma'lum odamlardan kaltak yeb, sulayib qaytdi. Uning kimgadir nimadir deyishi kerak edi. Lekin hushyor vaqtida aytoilmaydi. Ichishi kerak. Bu qilg'i bilan uch yil deganda otasining hayotiga ham zomin bo'ldi. Ammo bu kulfat ham ichidagi cho'g'ni o'chirilmadi. Nazarida uning yallig'ini faqat araq sal paslatardi. Negadir, uni ko'p kaltaklar edilar, u esa o'chakishib, yana ichaverdi.. Goho tiyildi ham, bunga irodasi yetardi, lekin, hayot ekan, gohida bir qoqilib...

... Vagon tarq etib, tormozlar xunuk g'irchilladi. Qulahmad uzoq uyqudan uyg'onganday, bir seskandida, qop egasi qariyaga uzr aytib, vagondan tushdi. U xuddi shu shaharga kelayotgan yo'lovchiday chaqon tushdi, lekin qayerga kelganini hali bilmasdi. Buning ahamiyati ham yo'q edi. Bunday paytlarda Qulahmad Ubaydulla tog'ani eslaydi. U moldaviyalik lo'jilardan bo'lib, asli oti Bodulay. Burni doim qip-qizil, sochlari jangalak-patak, bilmagan hunari yo'q, qo'li gul odam edi. Qulahmad ikkinchi kursdan haydalib, behujjat, bekasb, sargashta-yu sargardon bo'lib yurganida

shu odam uni qanoti ostiga oldi. «Senga bir hunar o'rgatamanki, hujjatning ham hojati bo'lmaydi», dedi. Chindan ham, Qulahmad santexnik bo'lganidan beri hali beish qolgani yo'q. Bodulay tog'aning bir hikmatli gapi hozir yana yodiga tushdi: «Shahar yo'qki, unda JEK bo'lmasa, JEK borki, unda santexnikka albatta ehtiyoj bo'ladi!» Shuning uchun qayerga kelib tushganining ahamiyati yo'q edi. Darvoqe, tez orada ma'lum bo'ldiki, bu yer Bekobod ekan.

Qulahmadning oldida eshiklar yana ochildi. U ishdan qo'rqmaydi, duch kelgan joyda tunab ketaverishga ham o'rgangan. Faqat yana o'sha eski dard – yolg'izlik. Ayniqsa, charchab kelganida u jismoniy og'riqqa aylanadi. Gohi shunday tuyuladiki, yonida bir subhatdoshi bo'lsa, balki hoshi ham chatnab og'rimas, beli ham zirqiramas edi. U odamlarga intiladi-yu, ulfatdan hadiksiraydi. «Odamovi ekan» deyidiganlar uning dardini bilmaydi albatta, tasodifan uchrashib, ikki og'izgina gap qilib o'tib ketadigan odamlar, o'tkinchi muloqotlar uning uchun birdan-bir najot.

Bekobodliklar odamshavanda, xushmuomala, soddaso'fial bo'larkan. «Usta» deganni Qulahmad shu yerda eshidi: «Bo'ldimi, usta?», «Baraka toping, usta!» Shamolini aytnasangiz, shaharning o'zi ham durkungina ekan. Shamol nima, Qulahmadning ishi yuzada emas, shaharning tagida. Binolar yangi bo'lganidami, «yer osti xo'jaligi» hali ancha botartib, zanglash, yoritish, avariyaalar kam, ko'pincha, maydanchuyda ish: kran, ventill, deganday... eshik qo'ng'irog'i jiring etadi, «Texnik, chaqirganmidingiz?», «Ha, keling, usta!» Unga hamma peshvoz, hamma kursand. Kunlardan bir kuni zavodga qarashli to'rt

qavatli uydan buyurtma tushdi. Bu ham o'shanaga, arzimagan yumush: oshxonada idish-tovoq yuvadigan kran hushtak chaladigan bo'libdi. O'ynab-kulib borib, o'ynab-kulib to'g'riab keladi. Uchinchi qavatda yogimtoygina ayol eshik ochdi, tisarilib yo'l berdi. Uda yolg'iz ekan shekilli, Qulahmad unga razm solib boqqani ham yo'q, salomlashgach, oyog'ini artib, oshxonaga o'tdi-da, qutisidan asbolarini oldi. Kran chindan ham ancha xunuk chinqirib, g'ashga tegadigan bo'lib qolgan ekan. Burradi, yeyilib ketgan rezinkalarini olib tashlab, zanglarini tozaladi. Qutisidan yangi rezinka topdi. Arzimagan shu ishga terlab ketganini sezib, xijolat tortdi. Manglayini ho'l qo'lining sirti bilan artib, nima ish qilayotganini unutganday, birpas to'xtab qoldi. Negadir xayoli joyida emas. Orgasida... haligi ayol tikilib turganday bo'laverdi. Oshxonaga-ku yolg'iz o'zi kiradi, undan boshqa hech kim yo'q, buni biladi, lekin kimdir... Kimdir emas, uy bekasi, haligi ayol, nazarida hamon yelkasiga tikilib turardi. Qulahmadning qo'li qaltirab, kalitni zo'rg'a buradi, endi tekshirib ko'rish kerak, kran hushtak chaladimi-yo'qmi... Chaladimi-yo'qmi... Qarasa, qo'llari xuddi shol, hech narsa qilo olmay, shunday qotib turibdi. Orgasiga qayrilib qarashga yuragi dov bermaydi.

– Murshida... – dedi beixtiyor shivirlab. Qayoqdan keldi ko'ngliga bu ism... Badani yonar edi. Orqasiga qayrilib qarasa – haqiqatan ham, hech kim yo'q.

Otilib tashqariga, havoga chiqqisi keldi, nima bo'lyapti o'zi, yolg'izlik dardi unga turli ko'rinishlarda kelib yopishadigan bo'lyapti, bu ahvolda jinni bo'lib qolish ham hech gap emas. Hali eshik ochganida

bamaylxotir yonidan o'tgan beparvo ayol nega hozir birdan miyasini lovvlatib qoldi?

Qo'lini chayishni ham unutib, oshxonadan chiqdi. Ichkari xonaning eshigi ochiq, undan bosiq yig'i tovushi eshitildi. Burchakdagi yumshoq kursiga mukka tushib, yuzini yashirib olgan uy bekasining yelkalari titrar edi.

– ...Hamma... si... bo'ldi... – dedi Qulahmad odatiga ko'ra. Lekin behis, beixtiyor.

– ...Rahmat... usta... – dedi uy bekasi boshini ko'tarib. Qizargan yonoqlari nam, ko'zi hech narsani ko'rmayotganday mo'ltirab turar edi. Qulahmad ketolmadi. Bu yig'lagan xotinni yupatmoqchi emas, o'zining yig'lagisi kelardi. Ma'nosiz termulishib turdilar. Nihoyat, Qulahmad buning tush emasligiga ishondi shekilli:

– Murshida! dedi sekin, nimadandir qo'rqib, ilkilanibroq. Ayol o'rnidan turib, yuz-ko'zini arta-arta, burchakdan yorug'roqqa chiqdi.

– Shubhalanmang, Qulahmad aka, menman, men... – to'lishgan yuzida kulgichi yoyildi. Qulahmadning tiz-za bo'g'inlari bo'shashib ketdi, bu o'sha kulgich edi, o'zi to'lishib ancha o'zgargan bo'lsa ham, bolalarga xos kulgichi o'sha-o'sha. Yo'q, kulgichi ham o'zgargan albatta, ilgargidek nurlanib turadigan sehrli chuqurcha emas, jilmayganida ko'z tagidagi ajinlarga tutashib ketadigan g'amgin xotiraga o'xshardi. Murshida ham yo'q, umr ham yo'q, bu tasodifiy uchrashuv ham yo'q, hammasi xotirai! G'amgin xotirai! – Xushnud emasga o'xshaysiz... o'tiring axir. Uchrasharmiz deb men ham hech o'ylamagan edim, – dedi uy bekasi.

Qulahmad duch kelgan kursiga cho'kdi, ko'z oldida g'ujgon o'ynagan qora nuqtalar tarqay boshladi.

– Murshida... – dedi yana, endi unga astoydli tikilib. Uning ilk muhabbati! U nimalarni, kimlarni ko'rdi, hayot uni ham ayovsiz mijg'ladimi, undan nimalar qoldi? Shubhasiz, nimadir qolgan, yoshlikning o'sha sehiridan nimadir qolmasa, ular hozir bir-birlarini tanimagan bo'lar edilar.

Ular bu safar kam gaplashdilar, tikilishib o'tirib, bir piyoladan choy ichdilar-da, Murshidaning yolg'izligini bilgandan keyin, Qulahmad negadir ketishga shoshildi.

Nega shoshib chiqib ketganiga o'zi ham hayron, yolg'izlikdan qynalib yurgan odam yolg'izlik ishtab qolgani g'alati edi. Uning xayoliga boshqa hech narsa sig'may qoldi, bir vaqtlar besh qo'lday bilgan Murshidasi endi unga noma'lum bir olamdek, tobora uni ko'proq bilgisi kelaverdi. Bir bahona bilan, asbob qutisini ko'tarib, yana bordi. Bu safar ular o'tgan yillar haqida uzoz, ochiq gaplashdilar. O'zlari haqida bir-birlariga hikoya qilib, go'yo boshqatdan tanishdilar. Murshidaning eri taksist ekan, mashina halokatida nobud bo'libdi. O'zi hozir zavod bolalar bog'chasida murabbiya. Bir qizi bor, eri bilan turadi.

– Men shu yerda qoldim, ish joyiga yaqinroq.

– Uying fayzli ekan. Ana u tikka quvurlarni almashtirish kerak, xolos. Quruvschilar kalibtni no-to'g'ri tanlashibdi.

– Kamchiligi ko'p... – dedi Murshida qandaydir aytilmagan o'ydin uyalgandek, bosh egib.

Qulahmadning keyingi kelishiga Murshidaning o'z «buyurtma»si bahona bo'ldi. Umuman, keyingi vaqtda uning «buyurtma»lari tezlashib, ko'payib qoldi: goh suv bosadi, goh dush ishlamaydi. Duch kelgan joyda quruq-sovuq tamaddi qilib yurgan,

boshpanasiz Qulahmadga bunday kunlar – bayram. Murshida binoyidek pazanda ekan, buni yolg'izlikda o'zi ham bilmagan ekan, ochilib ketdi, pilta yonida yuzlari lov-lov, qo'lli qo'lliga tegmaydi. Bir kuni qizi kelib qoldi. Juda ochiq-sochiq, sergap, serkulgi qiz ekan:

– Voy, chuchvaraning ustidan chiqippani! – dedi kirasolib, shirin taom hidlariga chiroyli burnini jiyirarkan.

Qulahmad unga qarab hang-mang bo'lib qoldi.

– Murshida! – dedi ko'zlarini pirpiratib.

– Murshida emas, Mavluda, – dedi onasi kulib. U qiziga Qulahmad haqida o'tgan safar gapirib bergan, qizi esa uning hazin ohanglaridan bir nimalarni payqagan edi.

– Yo'q, sen emas, mana bu – Murshida! – deb turib oldi Qulahmad. U o'zining zavqli haziliga berilib, Murshidani xafa qilayotganini payqamas edi. Ayol chetroqda teskari qarab, bosh egib qoldi.

– Axir mana-ku o'sha Murshida! Qayroqlarda yurgan eding? – dedi yana Qulahmad go'yo hazildan xayolotga o'tib, xotiralar domiga tushib qolganday. Qiz onasining yoniga borib, yelkasidan quchdi. Qulahmad birdan o'ziga kelganday xomush tortib, kursiga o'tirdi. – Juda ham o'shar ekansan-da, qizim... – dedi uzr so'raganday. Nega uzr so'rash kerak – hech biri tushuntirilmamas edi. Oniy noxushlik oradan tez ko'tarildi. Bunga ko'proq Mavludaning «bir qop yong'oq»ligi sabab bo'ldi, dasturxon ustidagi sho'x kulgisi, beto'xtov gaplari bilan og'ir xotiralardan o'sha chalgitdi.

– Qulahmad amaki, oyimlarni yolg'izlatib qo'y-mang-al – degani yana bir shaddodlik bo'ldi.

Bu ochiqlikdan ko'ngli ko'tarilgan Qulahmad ham uni:

– Yolg'izlanib qolmasliklari uchun u kishiga nevaracha kerak, puchug! – deb kuzatib qo'ydi.

O'sha kuni Qulahmad ketishga shoshilmadi. Qizining shaddod gaplaridan uyalingiragan Murshida allaqanday hayajonda edi, «uni ovutmay tashlab ketish noqulay», deya o'ziga bahona qidirardi, Qulahmad ham. O'zining qarovsiz hayotidan, Qo'riqda, BAMda ishlagan boshvoqsiz yillaridan gapirdi. Divanda qo'l ushlashib, peshana tirashib o'tirib, tunni yarim qildilar.

– Murshida... o'sha yonib-kuyib yurgan yillarimda ham seni o'zimga bu qadar yaqin olmaganman...

– Yonib kuyibsiz-u, quyilmabsiz... – deb kuldi Murshida uning qo'lini chetlatib...

Xullas, yanagi uchrashuvda ular, to'y-po'y emas-u, besh-o'nta yor-u birodarlarini chorlab, kichkina bir o'tirish tashkil qilish haqida osongina kelishib oldilar. Muyulishdagi kafening kichik zali juda qulay, xuddi shunday kamtarin marosimlarga moslab jihozlangan, begona ko'zdan xoli, hatto gulzor tomonga chiqadigan alohida eshigi ham bor edi. Dam olish kuni kechga yaqin shu yerga o'ntacha odam to'plandi. Qulahmadning JEKda orttirgan bir mo'ysafid tanishi, bog'chadan ikkita durkun juvon, bitta kampir, qo'shnilaridan ikki juft er-xotin, ko'pi qariyalar. Yoshlardan faqat sershovqin Mavluda-yu uning ashaddiy kashanda eri, ular ham dasturxonga o'tirmay, xizmatda bo'lishdi – biri magnitofonga kasseta tanlashdan bo'shamadi, biri kabobpaz yonida. JEKdan kelgan –veteran ekan, qo'shnilaridan biri – baxmal do'ppi kiygan muallim, ikkalasi

«kelin-kuyov» haqida ortiqcha gapirib, ularni uyaltirib o'tirmay, har xil zamonaviy hazilomuz «turmushaviy» hangomalar bilan o'tirishni qizitib yuborishdi. Dasturxon yashnagan, pepsimepsidan tashqari, burchak-kunjakda, muallimning iborasicha, andak «aqiqayi-taqiqa»lardan ham bor edi.

– Bu, deyman, «Yovuzlik saltanati» degan fikridan qaytibdi-a Reygan ham, – dedi veteran «oq»idan bittasini ochib.

– Qaytmay iloji qancha, mana o'zi kelib hurmatni ko'rib turibdi-ku, – dedi muallim.

Xalqaro ahvoldan gap boshlagan edi. Lekin «bitta-yarimta»dan keyin xotin-xalaj o'z xonaki mavzuyiga o'tib ketdi. Dasturxon ustidagi bu erkin, bemalol g'ovur Qulahmadga yaxshi tushaduy tuyuldi. U o'sha Chirchiqda olgan yangi kustumini kiyib, to'rda o'tirar, Murshidaga zimdan boqib, o'zicha shirin jilmayar edi. Shuncha haqir sargardonlik yillaridan keyin sevgisiga duch kelib, shunday to'y qilishni, yaxshi odamlar davrasida, dasturxon to'rda o'tirishni xayoliga keltiribdimi?! Umri ham, umidni ham, o'zligini ham, hamma narsani yo'qotdim, deb yurgan paytida... U hali kuyovlarga xos kamtarlik bilan ho'plab qo'yib qo'yg'an birinchi qadahni... olib ichib yubordi. Ha, bugun ichsa arziydi! Bugungisi savob. Bugun ichmagan noshukr... Davrada g'ovur musiqa bilan aralashib ketgan edi. Kabob kelganda muallim bilan veteranning ovozig'a zavq qo'shildi.

– Ular, bilasizmi, hozir bizni nima uchun maqtab qolishdi? Bilmaysiz, taqdir... – dedi veteran. U muallimga gapirardi-yu, yonidagi juvonga xushomad

qilishni ham unutmay, unga issiq kabob tutardi. –
Ularga biz emas, qayta qurishimiz yoqib qoldi.

– Qayta qurishni kapitalizmga qaytish deb
tushunishyapti ular. Umid shundan, taqsir, ha...

Ularning bahsi dam g'ovur-g'uvurga ko'milib
ketar, dam kutilmagan joydan yana yuzaga qalqib
chiqardi.

– Ammo shaxsga sig'inishning hammasini chiqarishyapti baraka topkurlari! Kecha «Oqshom»ni o'qidingizmi, taqsir?

– Boplashayapti, gazetada ham, televizorda ham.
– O'zimizam, ey, qo'yday yuraverган ekanmiz, taqsir, necha o'n minglab begunoh odam bekordan bekor nobud bo'lib ketga-yal! Hech gap emas edi-da, odamni yo'q qilish. – Juda to'g'ri aytdingiz, qo'shni, – deb Qulahmad ham gap qotdi. U anchadan beri gapga aralashgisi kelib o'tirardi-yu, nimadir yetishmasdi chog'i, dasturxon egasi ekanini eslab, qistab qoldi, – Qani olib o'tiringlar, hadeb gap bilan bo'lmay...

Yana «qittak-qittak» olishdi. Gap esa uzilmay davom etdi.

– Bittasi «dushman» bo'lib ketga, ketidan o'ntasi «dum» bo'lib ketardi-da, qarang.

– Nimasini aytasiz, taqsir, boshimizdan o'tgan, ha. Bironta oila yo'qki...

– Juda jo'n edi-da, bu ish, men sizga aytсам, qo'shni, – dedi Qulahmad hangomaga astoydil kirishib. U ovqatni ham yer, oldida taom to'la likobchalar qalashib ketgan, o'zi esa qo'lida somsam, mantimi, nimanidir bilchillatib ezig'laganicha gapirar edi. Artilmagan moyli barmoqlari bilan piyolani ushlab, qolgan araqni yana ichib qo'ydi. Gohi adashib qo'shnisidan qolganni ham ko'tarib yuborardi. –

Bir parcha qog'ozga yozilgan jo'ngina xat lyuboy odamning boshiga yetardi, men sizga aytсам.

– Bo'lgan, bo'lgan, Qulahmad og'ayni, nimasini aytasiz.

– Bo'lganda qanday! – Qulahmad endi bironing gapini eshitmaydigan bo'lib qolgan edi, – dushmaningiz bo'lsa, shartta yozasiz, tamom-vassalom, bir kechada aspalasopinga ketadi! Ko'rganmiz-da, mana Murshida guvoh. Deylik, mana sizning o'nta dushmaningiz bor-a? Qani, oldin bittadan ichaylik... oling. Ha, deylik, mana o'nta, hay o'n beshta dushmaningiz bor. Kechasi yotoqqa kirib, qalamni asta qo'lga olasiz-u, bitta-bitta... nishonga olib, «chiq!», «chiq!» A labbay? Ha, bannisoli qalam emas, men sizga aytсам, ovozsiz o'qday gap bu. Faqat tepkisini boshga joyda boshqalar bosadi. Men o'zim ham bittasini... Mana Murshida guvoh, gumdon bo'lib ketgan.

– Qulahmad aka... – bu hang-mang bo'lib qolgan Murshidaning zaif yolvorgan ovozi edi. G'ovurga ko'milib ketdi.

– Lekin bitta-bitta qilib o'tirmay, avtomat bilan tarillatsa ham bo'lardi. A, labbay? Buning uchun o'n beshtasini bir xatga ro'yxat qilib tirkaysiz. Dondaraksiz ketadi, meni aytdi deng!

Bu payt kimlardir dasturxonni tashlab chiqib ketgandi. Ovqatlar sovgan, gap-so'z tugagan, faqat Qulahmadning «ma'ruzasi» eshittirdi.

– Jining sevmagan odamlarni pashshaday terib tashlash mumkin edi-da, a labbay, qo'shni. Bir kalima gap topsangiz bo'lgani... Og'zingizning yeli. Go'yo xalq poda-yu sen hukmronsan!

– Qulahmad! – Murshidaning yig'lamsiragan ojiz tovushi yana eshittildi.

– Yomon odam bo'lishi ham shart emas, menga qarang. O'sha otilib ketgan ximiya muallimimiz yomon odam emas edi, Lekin o'g'li Mirkomil-chi? Mana Murshida aytsin... Ba'zan odamni ayaysan, bitta chertish bilan ketadi, sho'ring qurg'ur. Lekin navbat unga kelganida u seni ayaydimi, qani aytang...

U murojaat qilgan odamning o'zni bo'sh edi. Umuman, davra tarqagan, veteran bilan muallim ham yetaklashib chiqib ketib borar edilar. Qulahmad gapiraverdi. Bir vaqt barzangi gavdali veteran eshikdan qaytib kirib, hamkasbining yoniga keldida, yuziga shartta tuflab, asta chiqib ketdi.

– Mana, ko'rdingmi, Murshida, nega tuflaydi, ayt qani! Har gal shunaga... urishadi, tepkilashadi. – Qulahmad panjasida ezg'ilab o'tirgan go'shtni tashlab, taom yuqi qo'li bilan yuzini artirdi-yu, yana davom etdi. Shu vaqt kimdir uni qo'ltig'idan olib, «turing», dedi. Bu Murshidamidi, boshqamidi – bilolmadi. Lekin endi u faqat Murshidaga gapirardi. – Turmayman. Menga qara, Murshida, men turolmayman, ichimda... tosh bor, O'shanda shum xabarni eshitgandan keyin, peshonamga bir shapati urib, – u peshonasiga tars etib urib ham qo'ydi, – peshonamga shunday bir urib, «men qo'til-man!» dedim-u, yiqildim. O'shandan keyin turganim yo'q. Ichimda tosh emas, dard bor, Murshida, o'sha yuzaga chiqadi. Qanday alpozda chiqqanini men bilmayman, eslolmayman... Murshida es-esingdami... Inson mag'rur yangraydi, a? Shunday deb o'qiganmiz maktabda, esingdami? Lekin uni yanchish, lattaga aylantirish mumkin. Qayoqqa ketishdi? Men ularga shuni aytmoqchi edim. Latta... mana ko'rdingmi? Mudhish gunoh bor, Murshida. Kimda? Bilmayman.

Bu muammo yechiladimi-yo'qmi, qachon yechiladi, Murshida? Bilasammi, bitta armonim bor: mening ham kimningdir yuziga tuflagin keladi. Lekin kimning yuziga, Murshida? Bilmayman. Bir tuflasam, mast bo'lganda yoriladigan ichimdagi o'sha pasod balki tufugim bilan birga chiqib ketardi...

Qulahmad oldidagi idish-tavoqni nari surib, atrofga qaradi. Yonida Murshida ham yo'q, allaqachon chiqib ketgan edi chamasi. Shunday bo'lsa ham, yana Murshidaga gapirdi:

– Mendan ko'ngling qolgani durust. Samoderjaviye... Esingdami tarixda o'qiganmiz. Men... yangi samoderjaviye davrida yashab, endilikda u bilan birga tarixdan tushib qolgan odamman. Yuragim sovuq...

«Kuyov»ni chiqarib yuborolmay uzoq burchakda nima qilarini bilmay turgan oftsiant chakkasiga ko'rsatkich barmog'ini bigiz qilib buradi-da, sherigiga shipshidi:

– Qandaydir samoderjaviyadan gapiryapti...

QORA DOMLA

Qishlog'imiz Shovvasoyning yassi sohili bo'ylab cho'zilib ketgan. Shunday cho'zilganki, narigi tikka qirg'oqqa chiqib qarasangiz, shakli xuddi kattakon yashil chumoliga o'shaydi: beli ingichka, boshi uzilay deb turibdi. Shuning uchun qishlog'imizning oti ham ikkita: «boshi», ya'ni Shovvasoyning yuqori oqimidagi kichik qismi Bolokapa, etagi Quyikapa deb ataladi. Qishloq tuman markaziga aylanganidan beri, ayniqsa, Quyikapa hisobiga yana ham yoyilib, ajabtovur kent bo'lib qoldi. Yeri toshloq, har bahor

soy toshib, sel kelib bezor qilsa ham, xalq mana shu sohliga naq yopishib olganday, aholi ko'payaveradi: suv serob, bog'-rog' tutash... Bolokapa bo'lsa yersiz, siqiq joy, tog'-tosh orasida rivojlanmay qolib ketdi. Maktabi ham pastakina sinch-sovuq binoda, to'rt sinfli boshlang'ich maktab. Maktabning joni esa - Bolokapaning birdan bir ziyolisi Qora domla.

Bu laqab bo'lmasa kerak, chunki u kishi uncha qora emas edilar. asli otlari Qoravoy bo'lsa ehtimol, biz bilmadik, ishqilib katta-kichik hamma uni orgavoratdan Qora domla, o'ziga esa, Domla deguchi edi. Qora domlaga o'rganib qolgandik, kunimiz shu kishi bilan o'tar, domla bo'lmasa nima qilirimizni bilmay, zerikib qolaridik. Ayniqsa, bahor, erta kuz kunlari domla bizni zax sinf hujralarida olib o'tirmay, tabiat qo'yniga boshlab chiqar, toshloq yo'llar oralab Shovvasoyning yuqori oqimiga qarab, turnaqator bo'lib yurardik. Bu yerda domla yaxshi ko'radigan ajoyib joylar bor: toshlar orasidan o'sib chiqqan na'matak butalari, quyoshda qizib yotgan chiqqan supaday xarsanglar. Shovvasoy esa, o'z nomiga yarashiq - shovalari ko'p, suv uchquniga boqqanda nuqtasini topib tursangiz naykamalak ranglarining tovlaniganini tomosha qilasiz. Bu yerlarni domla ham, biz ham tushlarimizda ko'radik. Sayohat payti goho to'xtab, silliq soy toshlariga o'tirib, domlanning tabiat haqida, Shovvasoyning boshlangan joylaridagi sovuq chashmalar, suvning necha ming yillik mehnati tufayli paydo bo'lgan ko'm-ko'k va zaxkash daralar, chaqir xarsanglar yumalab, tarashlanib mana bu silliq soy toshlarining paydo bo'lishi haqidagi hikoyalari ruhimizda tabiatning salqin soy havosining shavqi

bilan qorishib ketganidanni, hamma narsani unutib, quloq solar edik. Bularning ko'pini o'zimiz ham taxminan bilardik albatta, lekin domlanning gapirishlari bo'lakcha, u kishi go'yo shularning barini bir umr unutmanglar, deb uqitrayotganday, o'z muhabbatini ham qo'shib dilidan so'zlardir. Nazarimda, hammadan ham bizning og'iz ochib quloq solganimizdan xursand, shundan rag'batlanar, unga sari toshib gapirar edi.

Bizning eng xush ko'rgan joyimiz - qayoqdanam kelib qolib tosh ostidan o'sib chiqqan ikkita jiyda soyasidagi ko'rpadekkina may sazor. Bu yerda uzoq qolib ketishimizni bilib, nonimizni ham belimizga tugib kelardik. Asli bu joyda ortiqcha qiziq narsa yo'q, faqat narigi tikka qirg'oq, undagi qalding'och uyalari, oldimizda esa yoyiq oqqan soy: uning shovqini bu joyda ancha bosiq, shuning uchun jon orom oladi. Undan tashqari, domlanning aytishicha, narigi sohildagi jarlikda xarsanglar ostidan otilib chiqqan muzdek buloq jimirlab yotibdi ekan.

- Digat bilan qarasanglar, buloq suvining soyga qo'shilmay, anchagacha qorayib oqqanini ko'rasizlar, - deydi Domla. Biz tosh ustida tikka turib qaraymiz. Chindan ham, tinqligidan cho'yan singari qorayib oqqan buloq suvi toshlar orasidan ko'piklanib kelgan oqishroq soy suviga xuddi qilchday sanchilib tushdi.

- Sizlar qimirlamay o'tirib turinglar, - dedi bir kuni Domla. O'zi pochalarini ko'tarib, yenglarini shimarib, choy qaynatadigan tunuka choynagimizni oldi-da, soyga kirdi.

Biz Qora domlanning mushaklari o'ynab turadigan poylari, chayir biag-u boldirlarini o'shanda ko'rdik.

Kuchli odam edi u. Toshidan toshga sakrab, goh noxos sirg'anib tushib, beligacha shalabo, biz tomonga qaragancha kula-kula sohilga chiqib qoldi. U yerdagi siyrak quvoqzorda anchagacha ivirsidi. Biz nima qilayotganini bilolmay qarab o'tirdik. Intizomli editk, domlanning chizgan chizig'idan chiqmasdik. Anchadan keyin choynakni boshiga ko'tarib, hali belgilagan toshlari ustidan sakrab-sakrab, yiqilmay-qoqilmay bu yoqqa o'tib keldi. Sochlari gacha ho'l, katta ish qilib qo'yganday xursand edi. Nima ajoyibot, yo bir mo'jizani boshlab keldi, deb betoqat kutib o'tirsak, choynakda oddiy suvi!

– Bulog suvi, tatib ko'ringlari! – dedi, – hali munaqangi shirin suvni ichmangansizlar. Nonlaringni olinglar, nonushta qilamizi!

Domla ixlos bilan ta'riflagani uchunmi, ochiq havoda yurib ochiqqan ekannimizni, yo chindan ham suvning o'zi shunaqamidi, ishqilib bizga shu qadar shirin tuyuldi, hind-u seylon choylaringiz uyogda tursin. Suv ichganday emas, sof havodan nafas olayotganday vujudingiz yavrab rohat qilasiz. Sovuqligi ham beozor, mayin, shishadek tiniq, ichgan sari ichgingiz keladi. Nonimizni ham ivitib yeb qo'ydik. Domla ko'rib kelgan bulog'ining ta'rifi qilardi. Keyin, bu mo'jiza oldida so'zlari o'jizligini sezib, va'da qildi:

– Ikki haftada soyda suv qaytadi, kelgusi safar hammanglarni u qirg'oqqa olib o'taman, buloqni ko'rasizlar.

Jyda soyasida birpas dam olib, Shovvasoyga suqlanib o'tirdik. Shovvani gancha tomosha qilsangiz ham zerikmaysiz. Suron bilan tosh yumalatib, ko'pirib oqishidan bo'lak hech narsasi yo'g'-u,

baribir zerikmaysiz. Narigi sohilda bir qiz bilan bir yigit paydo bo'ldi. U tikka qirg'oqdan qanday tushib kelishdi – bilolmadik, butazorda biron aylanma so'qmoq bordir-da. Yigit pochasini shimarib olgan, ikkisi ham oftobda pishib, yuzlari bo'g'riqib ketgan; buloqni topib borib, uzala tushgancha, rosa suvga to'yishdi, yuzlarini chayib, bir-birlariga suv sachratib o'ynashdi, yayrab ketib, xoli joyda ekanliklarini unutishdi, shekilli, xuddi o'z uylaridagiday qiy-chuv qilishdi. Biz kino ko'rganday kulib qarab o'tirdik. Chindan hammasi xuddi kinodagidek edi.

Narigi tikka qirg'oqning tepasida katta yo'l bor, og'ir-yengil mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi. Shu atrofda bulog borligini bilgan yo'lovchilar, ayniqsa, shofyorlar goh to'xtashadi-yu, pastga tushish uchun yo'l topolmay, chanqoq lablarini yalagancha attang, deb yana ketishadi. Lekin bir-ikkitalari ilojini topib pastga tushishdi ham. Ayniqsa, qaytib chiqish mushkul edi. Nishabroq joylarni tanlab tirmashisha-da, baribir toshlar yumalar, tuproq ko'char, sirg'anib ketib tizzalari, tirsaklari shlinar, xullas, buloqning shirin suvi tatimas edi. Bir amallab, azobda ko'tarib chiqqan qimmatbaho suvlari tirnalgan yara-chaqalarini yuvishga ham yetmasdi. Biz bir kulamiz, bir achinamiz. Ana katta yo'lda brezent yopilgan yuk mashinasi kelib to'xtadi. Avval shofyor tushib, qirg'oq tepasida turgancha, bilar ekan shekilli, bulog tomoni – pastni ko'rsatdi. Brezent ostidan chiqib kelgan besh-olti yosh-yalang, hammasi sho'x, olov, hech narsadan qaytmaydigan boshvoqsizroq bolalar ekan chog'i, yo'l tanlab ham o'tirmay, o'zlarini jardan tashlashdi. Tosh-tikan demay, ketlari bilan sirg'alib, ildizlarga tirmashib,

xuddi buloq sapchib yotgan joyni mo'ljallab tusha boshlashdi. Lo'mboz-lo'mboz tuproq nurab, chang-to'zon ko'tarildi, toshlar yumalab, biri ikkinchisiga urilib, tog' ko'chkisiday suron turdi. Haligi beboshlar bir-birlariga baqirib chaqirar, o'zlari ko'rimas edi. Domla o'rnidan turib ketdi. U haligilarning birontasi mayib bo'lmasa, fojia yuz bermasa edi, deb xavotir olardi. Anchadan keyin, ko'chki tinib, buloq boshida chang buluti bosilgach, sho'x ovozlari, chinqirib aytilgan behayo so'zlar, kulgi aralash baqiriq-chaqiriqlar eshitildi. Buloq boshida haligilarni ko'rgach, domla joyiga o'tirdi. Uning yuzida boyagi xushnud shu'la o'chgan edi.

- Bunaqada bir kun emas bir kun buloqning ko'zi yumilib ketadi... - dedi u ma'yus ko'zlarini narigi sohildan uzmay, - Yaxshilab pillapoya qilib qo'yish kerak edi. Nima ko'p - Shovvasoyda tosh ko'p. Sergatnov yo'l, o'tgan-ketgan zinadan sakrab sakrab tushib, muzdek buloq suvida yuzini chayib, hordig'ini tashlab, changqobosdi qilib ketardi. Jumlayi fugaroga tatiydigan shirin buloq. Savobtalab bo'lsang yo'lovchiga bir piyola suv ber, deganlar... Afsus, Ispolkomning qo'li kalta-da. Bekorchi bo'lganida o'zimoq urinardim, shu ishga...

Biz Qora domlani keyingi so'zlariga, shunchaki aytdi-qo'ydi-da, deb e'tibor bermadik. Bolalik ekan, «buloqning ko'zi»ni, kipriklari piriptirashini, kalta qo'li Ispolkomni tasavvur qilib o'tirardik. Orada Sotti merov deganimiz bo'lardi, semiz, dangasa, ochiq havoda uyqu bosib, mukka ketmaslik uchun cho'p bilan qumga har xil suratlar chizib o'tirardi. Qarasam, qo'li kaltagina odamning rasmini solibdi. Ispolkomni odam deb bilsa kerak. Suratga qarab

kuldim. Qiziq, qo'li kalta odamning oyog'i uzun bo'lib ko'rinar ekan... Biz, bolokapalik bolalar, boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin har qayoqqa tarqab ketdik. Kimdir Quvikapadagi o'rta maktabga qatnaydigan bo'ldi, kimdir shaharga jo'nadi, kimdir otanasi bilan butunlay ko'chib ketdi. Men o'shandan keyin Qora domlani ko'rmadim. Shuning uchun buyog'iga u haqda eshitib bilganlarimnigina hikoya qilaman.

Qora domla pensiyaga chiqqandan keyin shirin buloqqa tushadigan tosh zinapoya haqidagi niyatini amalga oshirish uchun bel bog'ladi. Uydagi zerikib qolganidan emas, u hali baquvvat, ezgu orzu esa, chindan ham xayolini butkul qamrab olgan edi. Buloq atrofida kun bo'yi aylandi, tikka qirg'oqning o'pirlamaydigan nishab joylarini timirskilab o'rgandi. Toshga o'tirib uzog' o'y surdi. Shovvasoy supaday-supaday toshlar orasidan buralib oqar, shovullashlari uzog'dagi tog'-tosh, yashil, zax daralar hikoyasini so'ylaganday battar xayolga toldirar edi. «Nechta pillapoya bo'lishi mumkin», deya bir qo'li bilan boshidagi do'ppisini ushlab, qirg'oqning balandligini chamaladi, domla. «Nishabini tanlab aylanibroq chiqilsa, 40-50 pillapoya bo'lar... Qanchaga boradi bu ish? Yolg'iz o'zi say' etsa o'tgan-ketgan bir nimalarni o'ylamasmi? Hay, bunisi go'rga. Birov machit insho etadi bu dunyoda, birov - kutubxona. Qoravoydan bir zinapoya qolsa qolibdi-da. Savobtalab qariya, u dunyoligini o'ylab qopti», desa der.

Qora domla, ochig'i avval savob haqida o'ylagani yo'q, buloqni saqlash, uni odamlar uchun ardoqlab qolish haqida o'yladi. Axir toliqqan yo'lovchi, shofyor-mofyor, yosh-yalang, bola-chaga xarsang

zinadan yugurgilab tushib, saratonda ko'ksini sovuq toshga berib, oyna buloqdan muzdek suv ichsa, yuzini chaysa, ruhi ravshan tortib atrofga qaraydi, tabiatning kamtarin yashnashini dildan sezib, nimadandir mamnun bo'ladi. Buloq tiniqligi ko'zlarida, shu kun qalbida, Shovvasoyning bir maromda shovullashi esa quloqlarida qoladi... Qora domla shularni o'yladi, ammo-lekin savob degan so'z ham ko'nglining allaqayerida aylanishgani aniq, buni tan olish kerak.

O'y-xayollar tiniqib, dilda niyat qaror topgandan keyin cho'kich-ketmonni yelkalab keluvdiki, reja-ning andak xomligi bilindi: pillapoyaga toshni qayerdan oladi? Soy toshi yaramaydi, tikka jarda uning o'rnashuvi mushkul, xavfli. Bunga yassi xarsang yo bazalt kerak. Bazalt degani taxta-taxta bo'lib qatlanadigan qizg'ish qumtosh, zina-bop bo'ladi. Shovvada har xil toshdan ko'pi yo'q, albatta. Istagancha topladi. Lekin qazib olish, tashib kelish... Birinchi kun ish yurishmadi. Asboblarni butalar orasiga yashirib, uyga qaytdi. Ertasiga tomorqaga go'ng tashiydigan ikki g'il-dirakli temir aravachasini ham g'ildiratib, yana bordi. Yugori oqimga yurib, ikki-uch bo'lak yassi toshni ko'chirib keldi. Tosh ko'p edi, lekin kamida bir tomoni yassi bo'lmasa, pillapoyaga yaramaydi. Qora domla qirg'oqning tuprog'ini toshlarning g'udur tomoniga moslab o'yib, dastlab topgan xarsanglarini joyladi. Toshlar cho'kich bilan moslab o'yilgan joyga chippa yopishganday, jips joylashdi. Domla mamnun bo'lib, manglayini sidirib artida, birinchi pillapoyaga o'tirdi. A'zoyi-badanida og'riq sezdi, bunday charchashni o'ylamagan

edi. Shunday bo'lsa ham, buni pensionerligiga emas, tosh ishiga, past-u baland yo'llar azobiga yo'ydi. Birinchi kun axir, o'rganib ketadi. Mana, dastlabki ikki pillapoya, oqarib-buralib tepaga chiqib ketadigan bo'lg'usi zinapoyani ko'z o'ngiga keltirsa bo'ladi. Shirin buloq zinapoyasi, Qoravoy domla zinapoyasi! U tosh zinaning shunga o'xshash nomlar bilan tildan tilga o'tib mashhur bo'lib ketishiga shubha qilmadi. Yo'g'-e, yana o'sha gap... Shaytonga hay bermasa bo'lmas. Yana shunday savob... Odam xayol suraversa oddiy ishdan ham, jinday g'araz deymizmi, minnatmi, manfaatmi - kelib chiqaverar ekan. Yaxshisi o'ylamaslik kerak. Qora domlani ikki narsa qiyhardi. Biri - yurakning zo'rig'ib hovliqishi, hansirash, ikkinchisi - tosh masalasi. Birinchisi - go'r'ga, tez-tez dam olsa o'tib ketadi, bu yoshda bo'ladigan gap. Lekin ikkinchisi muammo... Bir necha kundan keyin aravachasini sudrab, qadimgi qadrdoni Sadr sangtaroshning oldiga bordi. Oshnasi katta yo'lning naryog'idagi qabristonning pastida ustaxona tutardi. U yerdan keladigan betnim taq-tuq, chiq-chiq, cho'kich bilan iskana tovushi go'r'iston jimligini doim buzib turadi. Qora domla borganida usta semiz, soqol qo'ygan, to'nkaday toshlarni chap oyog'i bilan surib tashlaydigan anqovroq shogirdi Polvon bilan ochiq bostirma tagida ishlayotgan ekan. Mehmonni ko'rib, yiltillab ketgan brezent peshgiri yechdi, gardishiga charm qoplangan ko'zoynagini asboblari yoniga qo'ydi.

- Kel, Qoravoy.

- Omonmisan, Sadridin og'ayni? - Quchoqlashib ko'rishdilar. Ular bo'y-basti qotmaligi, qoramag'izligi

yana bosiqlikmi, mulohazakorlikmi, nimalari bilandir bir-birlariga o'xshab ketishar, chetdan qaraganga aka-ukadek edilar.

– Hay... – dedi Qora domla tosh kursilarga o'tirib, fотиha o'qiganlaridan keyin. Ustaxonaning peshtoq tomoniga suyb qo'yilgan sag'ana yodgorliklariga ko'z soldi. Tarashlangan yapasqi xarsanglar, katta-kichik bazalt toshlari, onda-sonda marmar bo'laklari, biriga arab imlosida qandaydir yozuvlar, raqamlar o'yib bitilgan, biriga sellofanli to'garak fotosurat o'yima qilib yopishtirilgan, biri hali chala. – Buyurtma serobmi deyman?

– Shukur deb bo'lmaydi, oshnal Ammo dunyo ekan, bandasi omonat, ishsiz qolganimiz yo'q. O'zing qalaysan?

– Alhamdulillo, senga mijoz bo'lganimcha yo'q, – domla o'zi boshlagan ishi haqida gapirib berdi.

– Yaxshi niyat qilibsan, og'ayni, – dedi usta Sadriddin, – o'likdan o'lja yig'gandan, tirikka tekin xizmat qil, degan mashoyixlar. Qani endi har kim hech bo'lmasa bitta buloqning ko'zini ochsa. Savob ishga qo'l uribsan, Qoravoy.

– Gap savobda emas. Ko'ngil... Xo'sh, o'zing-chi, o'zing qancha olasan mana bularga?

– Biri besh so'm, biri o'n so'm, har xil.

– Ko'rdingmi, aslida har biriga haftalab ko'z nuringni to'kasan, o'pkangga tosh gardi yuqadi. Quloqlaring bitib ketadi. Besh so'm, o'n so'm, qancha arzon pullasang savobi shuncha katta.

– Qo'ysang-chi, Qora, xayolga kelmagan gaplarni gapirasan. Bizga kulfatzada bandalar keladi. Savobga-ku, qarshi emasmiz. Lekin insof kerak, jo'ra.

– Ana endi o'zingga kelding, bizniki ham shu.

Polvon choy damlab kelib, tosh ustiga qo'ydi.

Qora domla ustaxona orqasidagi qiyaliklarga ko'z soldi. U yerda nishxo'rdga chiqqan xarsang bo'laklari dumalab yotar, undan narida ham necha yillik uyumlar oqarib ko'rinar edi. Sangtaroshning o'g'li beton zavodida muhandis, otasiga har zamonda samosval topib berib, Shovvasoyning yuqori oqimlaridan sag'anabop yassi xarsanglar yuklatib keladi. Nishxo'rd ko'p chiqadi, albatta. Biri tashiganda sinadi, biri iskana uchi tekkanda darz ketadi, biriga tish o'tmay tashlavoriladi. Qora domla aslida mana shularni o'yilab kelgandi. Qadrdoni ham ortiqcha gap-so'zsiz tushuna qoldi.

– Muhandisga aytay, samosvalda eltib tashlaydi.

– Yo'q, har kuni kelib, aravachamga ikki-uchtasini tanlab-saralab yuklab ketaman. Shoshadigan joyim yo'q, seni ham ko'rib turaman bahonada, – dedi Qora domla.

Shunday qildi ham. Deyarli kunda keladigan bo'ladi. Olib borgan ikki bo'lak toshini yer o'yib joylaydi-da, yana bir pillapoya ko'tarilganiga ko'ngli o'sib, do'sti yoniga keladi.

– Bo'lyaptimi?

– Bo'lyapti.

O'tirib choy ho'playdilar. Polvon domlaning aravachasiga brak bo'lgan zinabop yassi xarsanglardan yuklab beradi. Bir kuni qarasa, Polvon uch gaz keladigan yaxlit, yassi bazaltli aravachaga joylab qo'yibdi, qanday ko'targan – xudo biladi.

– Yo'q, buni olmayman, – dedi domla, – tupkaning tagidan yuklab kelingan mol-al Eshakka tilla tushov bo'ladi, bu. Olmayman.

– O'laqol, bizda ko'p.

– Yo'q, o'zingga kerak bo'ladi, egasi kelib qolar... Qara, tabiatning o'zi tarashlab, sag'anabop qilib qo'yibdi. Tushir, Polvon ukal!

– Hay, mayli, tushir, – dedi usta. – Aytganingday, egasi kelib qolar.

Shunday qilib, Qora domla kun ora kelib yuklab ketgan toshlaridan binoyidek zinapoya tiklay boshladi. Yuqorida aytganimday, toshlarning notekis tomoni puxtalab tuproqqa chippa yopishar, oqarib ko'ringan pillapoyalar qiyalikning nishabroq joylaridan eshilib-buralib kun sayin tepaga o'rta borar edi. Domla gohi qora terga botib holdan toyadi, sangtaroshning bostirmasida birpas o'tirib choy ichadi. Hordiq chiqaradi-da, aravasini sudrab borib, ishga tushadi. Ba'zan qattiq charchaganida tizzalari qaltirab, zinaning tikka qirg'oq tepasigacha chiqib borishiga ko'zi yetmay qoladi. Shunday kunlarning birida yelkasiga belkurak tashlab Sotti merov kelib qoldi. Yodingizdadir, bu – hov o'sha, tabiatni mahiyo bo'lib tomosha qilish o'rniga qumga surat chizib o'tiradigan sinfdoshimiz. Yolg'iz o'zi Bolokapada qolib ketgan ekan. Qayoqqa ham boradi. Oramizda ashaddiy «ikki»chi shu edi. Biz uni otaliqqa olib, darslarini yodlatib, obdan qiroat qildirib, imthonga rosa tayyorlaganimizda baribir bir amallab ikkinini olib chiqardi. Mana bugun bir qarashay deb kelibdi. Domla xursand bo'ldi. «Odam bo'pti shu merov ham» deb. Uning bo'yi cho'zilgan, suyagi buzuc, oyog'ida qo'pol etik, qo'li ishga chopib turardi. Ish yurishib, zina go'yo tepaga qarab «yo'rg'alab» ketdi. Sotti merov tushgacha astoydil ishladi. Lekin kechga yaqin toliqdi chog'i, tili chiqib, achchiq-tizziq gap ota boshladi.

– Dashti biyobonda kinga kerak ekan bu dahmaza, domla?

Qora domla yalt etib qaradi-yu, indamadi. Kutilmagan bu fikrdan esankirab, merovning mishiqli bola paytini ko'z o'ngiga keltirdi.

– Hamma shunga... hayron, – dedi Sotti merov.

Domla yana indamadi. Nima ham derdi. Bu merov shogirdini tuzlab qo'yishi mumkin edi-yu, endi... katta bo'lib qolibdi, mo'ylov ham qo'yibdi. Bir chekkasi hasharga kelgan odamga qattiq gapirib ham bo'lmaydi.

– O'tib ketgan eski dunyoning bandasi ekansiz, domla, – dedi merov ham indamagan sari oshib.

Domla andishaning otini qo'rqqoq bilgan bu merovni javobga arziymadi. Inson bolasining o'sish, ulg'ayish, o'zgarishi, bunda o'zining, umuman domlarning o'zni haqida o'ylama toldi. Bularga ko'p narsani o'rgatdi, o'git-nasihat qildi, tabiat go'zalliklarini ko'rsatdi. Lekin beminnat, beg'araz ishlar tabiatgagina emas, olamni yashnatgan bahorga, tiriklikni bargaror etib turgan sof havo va soy chashmalar, oy-u yulduzlargagina emas, insonga ham xos ekanligini gapirmagan, amalda ko'rsatmagan ekan, o'ylab qarasa. U Sotti haqida o'ylamay qo'ydi. U endi ketadi va qaytib kelmaydi. Gap bunda emas... Bu mahal Sotti chindan ham etagini qoqib, etigini yuvib kiygandi.

– Shogirlaringiz ko'p, qarashvor deb chaqirsangiz bo'lmaydimi? – dedi domlanning tundligidan battar xafa bo'lib, – savobingizga sherik bo'lishadi, deb qo'rqasizmi? – dedi iljayib, belkuragini yelkalab jo'narkan. Shu ketgancha chindan ham qaytib kelmadi. Lekin ish to'xtagan yo'q. Qora domlanning

dilxira bo'lgani qoldi. Uning ilhom chirog'i so'ndi-yu, lekin o'chakish shami yondi. O'chakish esa charchash, toliqish bilan hisoblashmaydi. Bir oy deganda domla tamom darmondan qoldi-yu, ammo zinapoya buralib, to'lg'anib qirg'oqning eng teppasigacha chiqib bordi. Qora domla etik yechib, soy kechib o'tdi-da, bo'ynilarini, yuzlarini uzozq yuvgach, ikki jiyda soyasidagi toshga o'tirib, o'z ishini bamaylixtir tomosha qildi. Qarasa, o'z mo'ljalidan oshiq, 53 pillapoya bo'libdi, uzozqdan oqarib yo'lovchi-yu, sayyohlarni o'ziga chorlab turibdi. Joyida! Domlanning ko'ngli o'rniga tushib, besaranjom tuyg'ulari bosildi, malolli o'ylari unutildi, hordig'i chiqib, dilidan g'ubor ko'tarilib, bo'g'inlari bo'shashib, tanasiga orombaxsh bir ilig'lik yayradi. Joyida... Hali bu yer misli bir qadamjo bo'lib shuhrat topadi, horg'in o'tkinchi changog'ini bosib, ehtimol «bu zinapoyani kim qurdiykin, baraka topkur?»-deb ham qo'yar, qari-qartang duoga qo'l ochar, bilganlar esa balki Qoravoyni tilga olar. Yaxshi gap tez tarqaydi, zora bir chaqqon muxbir ham chiqib, gazetga chop etsa, ya'ni shundoq-shundoq niyatli odamlar bor, falon joyda shunday ezgu bir ish bo'libdi va hokazo, deb.

Qora domla o'z qo'li bilan qilgan ishga suqlanib, ko'zi to'ymay, horg'in xayollar uyoz-buyozga sudrab, jiyda soyasida uzozq o'tirdi. Quyosh oqqan bo'lsa ham, endi bu zinapoyadan havas bilan birinchi bo'lib tushib kelgan biron zotni ham ko'rib ketay degan niyatda yana jindak kutdi. Qosh qoraymasdan, tepadagi katta yo'lida ikki ayol ko'rindi. Boshini ro'mol bilan tang'ib, kamzul ustidan belini bog'lagan bu ikki xotin Shovvasoyning yuqori oqimidagi tog'lardan

do'lana terib kelishayotgan bo'lsa kerak, qo'llarida og'ir kajava, jarilik tepasiga kelib to'xtashdi.

- Voy, ovsin, zinapoya bor ekan-ku, - dedi yoshrog'i chinqirib. Namozshom jimgida ularning quvnoq chug'ur-chug'urlari yangrab eshittilib turardi. Kajavalarini boshlariga ko'tarib, yangi zinadan birinchi oyoz bosayotganlarini o'ylamay, hakkalab-hakkalab tushishdi. Soyaday qorayib turgan tosh va butalar ortida, buloq labida ularning sho'x qiy-chuvlari anchagacha eshittilib turdi. Domla qariligi tutibmi, yo bo'lmasa shu sokin oqshomda ko'ngli juda yayrab ketganidami: «lloyo qadaminglar quti bo'lsin» - deya duo qildi, o'rnidan turdi. Cho'kich, ketmonlarini olib ketish bahonasida ertalab kelib, zinapoyani yana bir ko'rib ketdi. Joyida. Oqarib uzozqdan chorlab turibdi. Qattiq zo'rriqgan ekan, domla doktorga qatnab, bazo'r o'ziga keldi. Doktor yordam qildimi yo ko'ngil tinchligimi, ishqilib, belidan gardanga, undan biqinga ko'chib yuradigan zirquirashlar harna qoldi. Ko'ngil nisbatan tinch edi-yu, bir chekkasida nimagadir intiqlik, bir bezovta his bor edi. Ochig'i, domla zinapoya haqida hech bo'lmasa biron gap-so'z bo'lishini kutardi. Bu kutishni birovlardan, hatto o'zidan ham yashirmoqchi bo'lardi-yu, eplolmasdi. Buloz obod sayrgoh bo'libdi, yosh-yalang yayrab qolibdi, katta yo'lida hamma to'xtab o'tarmish, degan gaplar bir nechta haftadan keyin yetib keldi. Ammo na buloz, na zina va na domla haqida gazet-pazetda hech narsa chiqmadi...

Aytishlaricha, bir havaskor muxbir tuman ro'znomasiga maqola yozib olib borgan emish, muharir ko'rib: «Xo'sh, nima, DneproGES qurilibdimi,

bu haqda butun boshli maqola chiqarsak? «Xronika» bo'limiga kiring, uch-to'rt satr qilib berishsin», deya qaytarvorganmish. «Xronika» bo'limining xodimi ham yelkasini qisib, «Yo'q, birodar, biz xronikada jizilab turgan o'tkir faktlarnigina beramiz. Masalan, bosqin, toshqin, yong'in...», deya barmog'larini bir-bir bukb uzoz sanab, havaskorning hafsalasini pir qilibdi.

«Xronikabop» jizillagan o'tkir voqealar haqidagi ovoza bir necha oydan keyin tarqala boshladi. Avvalo, qandaydir bir guruh yoshlar obod buloq labida ulfatchilik qilib, qattiq mushtlashishdan keyin, boshi shisha bilan urib yoritgan, birovi kasalxonaga olib kelinganmish... Bu mish-mish yetib kelgan kuni Qora domla gangib qolganidan, pensiya olgani borish yodidan ko'tarilib, oilasida xafagonlik yuz berdi. «Ha, esi pastlar, aroq ichadigan joymi-yal» deya, kechasi bilan g'o'ng'illab, uyqu ololmay, u yoq-bu yoqqa ag'darilib chiqdi. Yaxshi hamki, bu gap gazetada chiqmay, el og'zida qolib ketdi. Bundan keyingi ovoza ham mish-mish darajasida bo'ldi: kimdir Qora domlanning zinapoyasidan yiqilib, oyog'ini sindirgan emish. «Emish» bo'lsa ham, bunisi domlaga qattiq botdi, chunki xalq og'zidagi gapda «Qora domla zinasi» degan so'zlar ham ora-chora quloqqa chalinar edi. Domla ezilib ketdi. Bundan keyingi voqea esa, gazetada do'mbira bo'lib, o'lgan ustiga tepgan, deganday, domlani astoydil esankiratladi. Markazdan kelayotgan bir tanikli oila quvnab-yayrab buloqdan suv ichib chiqsa, katta yo'lda qolgan «Volga» mashinalari yo'q emish! Taxminlarga qaraganda, bu xoli joyda shunag'alarni atay poylab chakalakzorda yotgan «shaytonlar» sharta haydab ketishibdi. Hali shunday poylab yotadigan «shaytonlar» ham

chiqibdi desangiz-chi! Domladan sovuq ter chiqib ketdi. Xayriyatki, bu gal gazetada uning nomini tilga olishmadi. Olishsa o'rni bor, nojo'ya bo'lmasdi. Xudo saqlabdi. Yo tovba...

O'sha haftaning o'zida «Xronika» chashmada noma'lum bir qizni zo'rlab ketishganini xabar qildi. Shundan keyin bir oycha tinch bo'lib, domla endi o'zimga keldim deb turganida, buloq atrofidagi butazordan o'lik topildi. Qora domlanning bulog'i-yu zinapoyasi tumanda odamlarning ko'ngliga dahshat soladigan xavfli joyga aylandi. O'zingiz bilasiz, el oshirib, qo'shib-chatib ham gapiradi, ko'p o'tmay o'sha joylarda hech narsadan tap tortmaydigan kallakesarlar ham paydo bo'lganmish, degan gap tarqaldi. Kim biladi deysiz...

Qora domla bosh ko'tarib ko'chaga chiqolmay qoldi. Yaqindagina, qilgan ezgu ishimni bir og'iz gazetaga ham yozishmadi, deb ichidan xafa bo'lib yurgan odam, bugun birdan yomon o'tlig' bo'lib, o'sha zina haqidagi niyatni diliga solgan kuni-soatini kechalari bilan la'natlab chiqadi. Uyda o'tirib, cho'ktib-bukchayib qoldi. Qulog'ini bekitib o'tirgan bilan qutulib bo'larkanmi? Bir oycha o'tkazib, bozor-o'charga chiquvdi, ikki joyda notanish odamlar uni «Ana, Qora domla!» deb barmog'i bilan turtib ko'rsatganini payqadi. Nariroqdagi rastada bir xotin sotayotgan pomidorining ustini yopib, domla o'tib ketguncha yuzini o'g'irib turdi. Shundan keyin bozor ahli, hamma unga qiya qarayotganday bo'laverdi, qulog'iga «Qora domla!», «Qora domla!» degan betinim shivir eshitilardi. O'zidan o'zi darmondan qolgan domla keragini xarid qilolmay, gandraklab yurib bozordan zo'rg'a chiqib ketdi. Uyda ham uni

shumxabar kutardi: hov o'sha zo'rlangan qizning onasi, telbami-sog'mi bilib bo'lmaydigan darajada, kelib, domlanning darvozaxonasida sochlarini yulib, dod-u suron solibdi. Qo'ni-qo'shmini boshiga to'plab, mudhish qarg'ishlar aytib ketibdi.

Qora domla kechasi bilan bosinqirab chiqdi. Ko'zini yumishi bilan goh changalzorda yotgan kalla-kesarlar, goh sochini yulgan telba xotin, goh buloq bo'yida uzala tushib yotgan murda, gohi bozordagi testkari yuzlar, sirli naftrat chaqnagan qarashlar ko'z o'ngiga kelar, o'rnidan turib ketardi. Oxirgi turishda obrezda yarim satil sovuc suvni boshidan quydi-da, tandir biqiniga suyalgan lo'mni yelkasiga olib, chiqib ketdi. Tong salqin edi, yo'tal tutdi. Yo'tal zo'riddan ko'zi tingan domla Shovvasoy yoqasidagi o'zi sevgan chakalakzor gullarini ham, undagi oqish shabnam sarinligini ham, endi uyg'ongan chipor kapalaklarni ham ko'rmadi. U buloq tomonga shoshardi. Qani o'sha «shaytonlar», qani o'sha zo'ravon-u bezorilar, qani o'sha kallakesarlar?

Bu darg'azab dard uning ruhida bor-u, jismi bo'shashgan edi. Zina bosib yuqoriga chiqqanida bu yana bilindi, lo'mga suyanganiha kattiq hansirab, pastga, atroflarga ma'yus qaradi, hech zot yo'q edi. Tongda oqarib, namlanib yotgan zinapoya xar-sanglariga qaraganida, negadir ko'zidan tomchi yosh sitilib chiqdi. Shuning zo'ri bilan eng tepadagi birinchi pillapoya ostiga lo'm urdi. G'azab bilan qayirib tashladi. Tosh shag'al aralash tuproqni shovullatib o'pirgancha, yumalab tushib ketdi. Qizishgan qariya ikkinchi pillapoya ostiga jon-jahdi bilan lo'm urdi, jahl bilan birga qandaydir yovuz kuch ham to'lishib ketdi. Domla nafas siqishini

unutgan, qora terga botib, tosh qayiradi. Qurish qiyin, yemirish oson, tepa qismini bir lahzada o'pirib tashladi. Sal tinsa butunlay to'xtab qoladiganday, urinib-surinib davom etar, lo'm qo'lidan chiqib ketse, inqillab yana olar, «mana bo'lmas!» deb urganida tosh chaqnab, domlanning o'zi munkillab ketar, lekin tinmas, urar, tepar, qayirar, buzar edi. Pastdan o'n-o'n ikki pillapoya qolganida ichida xuddi bir narsa uzilganday, domla «ing» dedi-yu, toshga o'tirib qoldi. Qo'lidan chiqqan lo'm toshdan toshga urilgancha jaranglab, pastga tushib ketdi. Domla, ko'z oldi qorong'ilashgach, belini ushlab, qayrilgan zinapoya o'rniga yonboshladi. Lekin u o'z ahvolini o'ylash o'rniga, negadir, Sotti merovni ko'z oldiga keltirdi: «Domla, o'tib ketgan eski dunyo-ning bandasi ekanisiz...» esladi-yu, ingrab yubordi. Quyosh tikkaga kelib qolgandi, lekin uning ko'z o'ngi qorong'i. «Xudoyim-ey, – dedi u hamon o'z ahvolini o'ylamay, – qanday kunlarga qoldik? Yaxshilik qilib bo'lmasa dunyoda...» Bu payt yuqorida mashinalar to'xtab, ikkita shofyor qichqirdi:

– Hoy, jinni bo'ldingmi, nega buzayapsan zinapoyani? Hey, senga gapiryapmiz! Birovlar ne azobda quradi-yu, sen buzib tashlaysanmi!!! Esing joyidami o'zi...

Ular pastga tushishdi. Qora domla tepasida turgan odamlarni ko'rib, o'z ahvolini esladi:

– Bolalar... belim...

Qarashsa, bu «tentak»ning ahvoli chatoq. Ko'tarishib chiqib mashinaga soldilar. Tuman kasalxonasida qaytalab so'rashdi.

– Qayoqdan?

– Buloqdan, dedik-ku. «Qora domla» zinasida beli chiqib yotgan ekan.

– Obbo, yana Qora domla! – dedi doktor ko'zida vahima bilan. Uch kundan keyin kasalxonada Qora domlaniing joni uzildi. O'sha katta yo'l yogasidagi qabristonga yetladilar. Sadr sangtarosh Qoravoyni maqtay, aravachasiga olmay, «egasi kelib qolar» deb tashlab ketgan o'sha katta bazalt toshga do'stining nomini o'yib yozdi-yu, do'ng tuproqning bosh tomonida uzog o'tirib qoldi. Xotira toshiga qarab gapirdi:

– Yaxshilik qilding, savobini olding-ketding ekan-da? Yo'q, undog emas, Qoravoy og'ayni, ovora bo'lasan, savob degani yaxshi zamonlardan qolgan gap. Bizning kunlarda esa...

JINNI

Saidumarni olti-yetti yildan beri ko'rganim yo'q edi. Kabobxonada bir yarim soatcha o'tirib, mirqib gaplashdik. Maktabdoshlardan biri qizini uzatibdi, birining o'g'li askardan qaytibdi, falonchi bobo, joyi jannatdan bo'lgur, o'tgan yili kuzda tom bosib qazo qilibdi, falonchi kelinoyi bo'lsa ikki bolasining ustiga... Ishqilib, bir dunyo xabar, naq borib kelganday bo'ldim qishloqqa. Yaxshi-yomon tanishlar qatori, Halim domlani so'rab qoldim.

– ...domla chatog'... – dedi Saidumar kabob chaynab turib.

– Ha, nima, kasalmi?

– Undan battar.

– Yo'g'-e, nima... gamoqdami?

– Yo'q... koshkiydi.

Garangsib, Saidumarga tikilib qoldim. Halim domla eng yaxshi muallimimiz edi, ijtimoiyatdan.

Ko'z o'ngimga keltirdiki: endi saksonlarga borgandir, nima bo'lishi mumkin?

– Tirikmi, ishqilib domla, gapirsang-chi, mujmal qilmay! – dedim toqatsizlanib. – Kirdi-chiqdi bo'lib qolgan domla, – dedi Saidumar, ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga bigiz qilib.

– Qo'ysang-chi... jinnimi?

U g'amgin bosh irg'adi. Men jiddiy qabul qilmadim bu gapni, ishonmadim, ochig'i. Bunga ishonish qiyin, nihoyatda esli, sog'lom, ehtiyotkor odam edi. Haytovur... qariganda nimalar bo'lmaydi.

– Nimadan iborat... jinniligi? Nimalar qiladi?

– Nima qilardi... g'irt, sho'ring qurg'ur.

– Yo'q, menga qara, aniqroq gapir, balki tushunmagandirsanlar uni... Axir, ular... – «ular» dedim-u, domlaga xiyonat qilayotgandek o'zimdand g'azablanib, anchagacha asabiy lashib, jim o'tirdim. Rubiy kasallar haqida o'qiganlarim yodimga tushdi: – har xil bo'lishadi: biri Napoleonman, deb da'vo qiladi, biri...

– Ha, ha, buning ham da'vosi zo'r – yozuvchiman, deydi. Yozgani yozgan.

– Nimani yozadi?

– Har baloni, jinnining gapi-da, nima bo'lardi, qalin-qalin daftarlarni to'lg'izib tashlagan.

– O'zing o'qib ko'rdingmi?

– Ko'rdim-da.

– Xo'sh?

– Masalan, qarg'a haqida... velosiped haqida...

– Nima debdi... qarg'a haqida?

Saidumar kulib yubordi:

– Qarg'a... tumshug'i falon santimetr. Kuzda janubdan uchib keladi, Qanoti... e, qo'ying-chi,

hamma biladigan shunday gaplarni daftar-daftar qilib... jinnining ishi-da.

– Velosiped-chi?

– Egari uch burchak, iktita g'ildiragi bo'ladi. Rezinkadan. Rezinka esa... hay, jinni bo'lsa ham biladi vey. Masalan, sen rezinkaning nimadan bo'lishini bilasanmi? Yo'q, u biladi. G'afur G'ulom hazillashardi: falonchi shiringina jinni bo'pti, deb. Bu ham esliga jinni bo'lgan. – Saidumar lablarini artib, selkillab kuldi. – Ko'rinishdan binoyiday, qilgan ishlari bo'lsa... Axir, o'rik haqida butun bir daftar-a! O'zimizning oddiy o'rik haqida. Dovchaligida bolalar talashib yeydi emish. Iyun oyining boshida pishadi, ichida danagi bor, chaqib mag'zi yeyiladi, mag'zida yog' bor. Quritib, turshak qilish. Hokazo. Kim bilmaydi buni! Kimga kerak, ayingi! Balki, chukchalar, eskimoslar uchundir! – yana tebranib kuldi Saidumar. – Qisqasi... domla bechora chatoq.

Turdik. Saidumarning domlamiz ahvoriga beparvoligi menga yogmadi. Shunaga ham bo'ladimi! «Ishqilib» «qisqasi»... Masxaromuz gaplar. Shunday fojia haqida-yai

Yo'q, men domlani borib ko'rishim kerak. Ertasigayotq qishloqqa jo'nadim. Halim domlanning hovlisida deyarli hech narsa o'zgarmabdi. Choyxonaday keng ayvon. Uy orqasi molqo'ra, suvsizlikdan qurib yotgan o'rikzor. Biz bolaligimizda domlaga qarashib, tomga g'o'zapoya g'aramlar, chipta qopga tezak qoplab, o'choq boshidagi bostirmaga g'amlab qo'yar edik. Shuncha yil o'tishiga qaramay, hali ham hammasi o'sha-o'sha. Halim domla bo'lsa sira qarimabdi, ajabo, saksondan oshgan odam... yuzlari qip-qizil, o'zi jonsarak, serharakat... Tavba deyishim kerak,

kallamga bir fikr keldi: telbaning miyasi ishlamaydi-da, nimaga ham qarisin: demak, Saidumarning gapida jon... Domla meni juda xursandchilik bilan kutib oldi, qayoqqa o'tqazishni bilmaydi: «Yozuvchi o'g'lim... yozuvchi inimi!» Nazarimda, shoshib ham qoldi. Men o'z o'yimdan xijolatman-u, lekin domlani hamon zimdan kuzataman... Yo'q, domla tuppa-tuzuk gaplar gapirayapti. Bola-chaqalarimni surishtirdi, yozganlarimni o'qib turar ekan, xursandligini aytdi. Men esa, o'z shubhalarimda o'zimni noqulay sezib, gapimni yo'qotib o'tiribman-u, hamon sinamoq bo'lib, savol qidiraman: nima desam nima derkan? Unga o'zim jinni bo'lib ko'rinnasam edim. Domla kamtargina dasturxon tuzadi, men bir vaqtlardagiday, unga qarashgan bo'ldim – bu uyda hamma narsaning joyini bilar edim. Ayvonning poli – yer, bo'yra ustida namat tashlangan, xontaxta yonida eski ko'rpacha, shu yerda o'tirib, bir piyola choy ichdik.

– Domla, siz ham... yozar emishsiz, deb eshitdim.
– Ha, bizning yozishlar endi... – deb kamtarona jilmaydi, – bizning yozishlar boshqacha. Ko'p yoza-man, ammo-lekin.

Ana... Domla kitob javoni qatidagi tokchani ko'rsatdi. U yerda o'nlab qalin daftarlar taxlog'liq edi. Saidumarning gapi yodimga tushdi: «Yozgani yozgan. Qalin-qalin daftarlarni to'lg'azib tashlagan... Aqlligina jinni...»

– Bir ko'rsam maylimi? – dedim choydan keyin o'rnimdan turib.
– Sen albatta ko'rishing kerak, – dedi domla, nazarimda, quvonib ketdi.

«Yozganlarini hech kim so'rab o'qimasa kerak-da», deb o'yladim ichimda. Daftarlardan birini olib

varaqladim. Chindan ham, hamma sahifalarni to'latib, hafsala bilan yozilgan edi. Boshqa daftarlarni ham olib, ochib ko'rdim, ular ham shunday. Tig'iz, puxta yozuv bilan to'la.

– Bularning hammasi... bitta asar bo'ladimi? – Bitta kitob... bo'lishi kerak. «Ezgu kitob».

– «Ezgu kitob?» Nomi shunaqami?

– Ha, hozircha, taxminan. Ammo, bilib qo'y, bu badiiy asar emas. Aslo! Badiiylikka da'vo qiladigan jinni emasman.

Badanim jimirlab ketdi: nahotki, o'zi ham tushunsa? «Ezgu kitob» emish... Ezgu kitoblar yozilib bo'lgan, ular asrlardan buyon yashab kelayapti. Buni tushunmaydigan odam... Dastlab birinchi daftardagi sarlavhalarga ko'zim tushdi: «Zig'ir», «Parovoz», «Dallo!», «Chumchuq», «Bezak», «Nosvoy»... I-ya, biri tog'dan, biri bog'dan-ku? Domlaga qarab qo'ydim. Qarashimda qandaydir shubhani payqadi, shekilli, zo'r berib tushuntira boshladi:

– Bu mavzular keyin sohasiga qarab, alfaviti bilan tartibga solinadi: tabiat, texnika, ijtimoiyot, siyosat, ashyolar, jismlar, mavhum tushunchalar...

– Lug'atmi? Lug'atlar, qomuslar bor-ku?

Domla o'ychan jilmaydi.

– Sen ham meni barcha lug'at-u qomuslarni qayta yozib chiqishga ahd qilgan jinni ekan, deb o'ylayotgan bo'lmagin tag'in, yozuvchi inim... Bu kitobda narsalarning, ashyolarning, hayvonlarning oddiy va batafsil ta'riflari bo'ladi.

– Ko'rib turibman... Mana, arava. Mana, qurbaga... unga yarim daftar ta'rif. Haqiqatan ham oddiy... Hatto jo'n.



– Ha... Ham keng ta'rif. Kechirasiz, sizni jinni deb o'ylash xayolimga ham kelgani yo'q. Bu – uzozq avlodlar uchun bo'lsa kerak, hoynahoy?

– Uzozq, juda uzozq avlodlar uchun, – dedi domla tetiklanib. – Uzi, men seni ba'zilariga o'xshatmoqchi emas edim, qaytaga meni tushunishiga aminman. Bilasan, dunyoda hech narsa abadiy emas. Faqat so'z, yozuv uzozq yashaydi... So'z, yozuv bo'lmaganda biz; masalan, qadim dunyo qiyofasi haqida tasavvurga ham ega bo'lmadik.

– Qadim yunon eposlari...

– Barakalla!

– Lekin, domla... Mana, chunonchi, eshak... Unga yarim daftar bag'ishlabsiz...

Halim domla jilmayib, nimalarnidir esladi chog'i, dam o'tib, davom etdi:

– Buni... Xrushchev davrida, yodingdami, bu jonivorlarga qiron kelib... hamma qo'rasidan dashtga, sahroga haydavorib, juda xor qilishgandi. O'sha kunlari yozganman. Bilasanmi, inim, yer yuzida mamontlar yashagan vaqtda bir senga o'xshagan azamat qalamkash hafsala qilib, ularning ta'rifini qog'ozga tushirganda edi...

– U zamonlar qog'oz, yozuv bo'lmagan-da.

– Hozir esa bor! Mamont ta'rifini yozilmagani uchun hozir olimlar uning bir suyagi topilsa katta kitob yozishayapti. O'z taxminlari uchun fan doktori unvonini olishayapti. Iloji bor ekan, dunyoda avlodlar uchun har narsaning ta'rifini qolishi kerak, deb o'ylayman. Mana hozirgi yoshlarning hammasi ham qo'qon aravaning qanday bo'lganligini bilavermaydi. Ming yil o'tib, hozirgi «jiguli»ning qandayligini kim bilarkan, aytolasanmi?



– Ha, ming yilda ko'p narsa o'zgaradi, ko'p narsa izziz yo'qolib, ko'p yangiliklar...

– Ming yilni aytasan, yozuvchi inim. Mana «Qorag'olpoq qissasi» degan kitobing bor-a?

– Ha.

– O'shani yozganingga necha yil bo'ldi?

– 25-30 yil bo'lgandir.

– Ana! Unda sen Mo'ynoq ko'chalari turib dengiz, to'qinlari, chag'alay galalari, teploxod gudoklari haqida gapirasan. Qo'ng'irotdan boshlangan qamishzorlar, tutash ko'llar, jing'il chaklari, to'qaylardan o'tadigan yo'llar haqida yoza-san. Shu kunda Qo'ng'iroq, Mo'ynoq bolalari yuz kilometr narida dengiz, hatto dengiz ham emas, sho'r botqoqlar borligini eshitibgina biladilar! Qissangni o'qib hayron bo'ladi. Ba'zan arzimagan bir narsaning ta'rifi butun bir tarixiy-madaniy qatlamni qayta ochish uchun kalit bo'lishi mumkin. Magnit lentasi, mikroteka, kompyuter davri kelayapti. Bola «pero» nima deb so'raydi. G'oz pati bilan dohiyona kitoblar bitilgan zamonlar uning uchun ertak.

– Sizing rejangizga ko'ra... butun borliqni ta'rifiab, chiqish kerak... bu, kechirasiz, ertakdan battar, utopiya-ku, domla?

– Buni jinnilik deb baholamaganingga xur-sandman. Utopiya esa, to amalga oshmaganuchagina utopiya bo'ladi.

– Buni bizdan keyin ham kimlardir davom ettirar, demogchisiz?

– Xuddi shunday. Eng muhimi – boshlash. Keyin borib... balki shu bilan maxsus shug'ullanadigan uyushma, ehtimol, butun bir akademiya paydo bo'lar...

Bunga men o'zim ham qiziqib qolib, subhatni maroq bilan quvvatlay boshladim.

– Domla... Nazarimda, bu ishing bir qismi bajarilgan ham, barcha tillardagi so'zliklar, qomuslar... ularni bir joyga to'plash... yo «Ezgu kitob»ga qo'shish, jamlash...

– Balli!

– Lekin, domla... – axir tillar ham borib-borib o'zgaradi, yo'qolib ketadi. «O'ilk tillar» degan tushuncha bor.

– Gap shunda-da... – Halim domla o'yg'a toldi. Umidisiz, asabiy... nazarimda, sal... jinniroq ham bo'lib ko'rindi. – Gap shunda-da... Odanning o'zi yo'qolib ketmasdan burun qilish kerak buni...

KO'K TOSH

1993

Men toshman, ko'k tosh. Otim – Yashm. O'n ming yillardan beri ko'rmagan tomosham qolmadi. Birov boshiga ko'taradi, birov sirtinga minib o'tiradi, birov to'riga qo'yadi, birov – go'riga. Yurmagan yo'lim, ko'rmagan elim yo'q. Bir yer yuzining qaysi bir nuqtasida yotsam, menga-ku baribir, lekin odamlarga hayronman, tog'-u tosh demay, daryomidengiz demay, dam dunyoning u chekkasiga, dam bu chekkasiga sudraganlari sudragan meni. Chiroyli ekanman, asil ekanman, shaffof ekanman, xo'sh, kelib tomosha qilaver. Yo'q-da, meniki bo'lsin. Shu «senikimeniki» degan faqat odamda bo'ladi, nazarimda – urush-janjali ham, qirg'ini ham shundan, o'limi ham, kulfati ham. Tag'in, buning gunohini o'zlaridan soqit qilish uchun, mening to'g'rimda mudhish afsonalar

to'qishganini aytmaysizmi! Keyingi bir necha ming yil davomida-ku Chin-Mochinning hashamatli saroylarini bezab, ancha tinch o'tirdim. U xogonning, gasridan bu xogonning saroyiga surgalib, ancha saygallashib qolgan bo'lsam ham, bus-butun edim, birov jon bergani ham yo'q meni deb. Ammo, mana endi, Chingiz degani kelayotganimish, tuman-tuman lashkari bilan dala dashtni dud-u to'zonga chulg'ab. Meni deb kelayotganimish. Men kerak bo'lsam, mana turibman-ku, kel, ol. Nima qilasan butun bir mulkatni o'tga tutib, shaharlarni ko'kka sovurib, lak-lak lashkarni qirib, begunoh elatlarni qon-qora qaqshatib! Yorab!!!

Aytdim-ku, dunyoning qaysi chekkasida yot-sam - menga baribir, deb. Mana endi, tag'in sudrab ketishayapti. Chin-Mochinda meni muqaddas hisoblar edilar, mana endi tinchligim buzildi, meni deb yuzta ot, uch yuzta navkar o'vara. Ko'p o'tmay, qumda sudraydigan yog'och chanaga tushdim. Chun-ki ustiga xoda qo'yib, meni lo'killatib olib ketayotgan to'rtta fil kecha kechasi o'lib qoldi. Cho'lga yaramas ekan-da, jonivorlar. Keyin to'rtta tuya o'rkachiga joylab ko'rishdi, bo'lmadi, sirg'alib tushib, qumga yumaladim. Olitta navkarni bosib qoldim, yerga chalpakday yopishib jon berishdi, sho'ring qurg'urtlar. Bu voqeadan keyin xogonning o'zi yana to'rttasini ehtiyotsizligi uchun qamchilab o'ldirdi. Endi mana «chana»daman. Ey, aziz jonini ayamagan odamlar-ey...

Menga-ku, ming yil cho't emas, bu gumrohlarning umri axir bir nafas. O'ylab ko'rsa-chi, qadriga yet-sachi! Meni joyimdan qo'zg'aganing o'zi bir falokatga duchor bo'ladi. Bu afsonani, hali aytganimday, odamlarning o'zlari to'qib chiqargan, o'zlari shunga

ishonishadi ham. Asli o'zi shunday, shekilli-da, necha marta sinaganman, o'zim ham ishonib goldim afsonaga. Qo'l tekkizishsa xavotirlanib turaman. Lekin odamlar... hamon joyimda tinch qo'yishmaydi-da. Hali Chingiz degani ham mana meni ne azob bilan olib keldi-yu, o'zi, o'sha afsonada aytilganiday, bekordan bekor shamollab, to'satdan qazo qildi. Mening Chin-Mochindan Movarounnahrqa ko'chib olganim goldi. Bu yerning xo'jayini ham, uning oti Chig'atoy edi, nafimni ko'rib-ko'rmay o'lib ketdi. Odamlar buni ham mening kasofatinga yo'yishdi, albatta. Inson o'tmishdan saboq olmas ekan-da. O'sha Chig'atoyning nevarasi yana menga qo'l urib, Naxshabda taxt qilib, ustimga minib o'tirdi. E... bunga ham yorlaqagani yo'q. Ochig'i, gap mening haqimdagi afsonada emas, hammasi odamlarning ochko'zligidan.

Axir, Chin-Mochin xogonlari meni qaytib olib ketish uchun ne-ne hiyla-nayranglar ishlatishmadi, ne-ne pora-yu boyliklar va'da qilishmadi, oradagi sotqinlik xiyonalar g'oyib bo'lgan, o'lib ketgan, ne-ne odamlar. Axiri, mening bo'lg'usi xo'jayinim ulug' Temur bariga chek qo'ydi, ochko'z urishqoqlarning nafsini tiyib, boshini qo'shib, bir toj ostiga lipslashitirdi. Bu mashg'ulotlar bilan bo'lib, u zot mening taqdirimni jilla ko'zdan qochirdi! Ammo bir donishmand nabiralari qadringa topib, poytaxtga ko'chirish uchun degar soldirdi. Shikast yetmasin, degar Samarqandgacha dastlab men yurgan hali ham bor, balki ko'rgandirsiz. Y buyuk bobosining qabriga qo'y husnim shu zotning abadiy shu

bir necha yuz yil odamlarga shu fikrni eslatib, tinch yotdim. Afsus, ulug'lar o'lar ekan-u, odamlarning badnatsligi o'lmas ekan. O'zini jahongir hisoblagan yovqur hukmdor Nodirshoh yana menga ko'z tikdi. Samarqandning boshqa ganjinalari bilan birga meni ham Mashhadga ko'chirib olib ketishni buyurdi. Ulug' zot qabridan qo'porib... Ammo o'z amri o'z ko'ngliga g'ulg'ula soldi, mening haqimdagi mudhish afsona yodiga tushib, hukmdor sust ketdi. Qo'rqoq yuragiga tasalli qidirib, ulug' Temur xotirasiga fothalar o'qitib, meni poytaxt qasrida muqaddas tosh deb e'lon qilishga va'da berib, o'z dilini ovutdi. Biroq u, baribir, qo'rqoq bir o'g'ri edi. Dildagi hadik halovatini oldi. Avliyolarning arvoqlari, oh, Sohibqironning qo'porilgan qabri, maqbara vayronalari tushlariga kirib, badanini sovuq ter bosib, uyg'onib ketardi. Qo'rquvdan telba bo'llishiga sal qolganda axiri meni Samarqandga qaytarib, o'rnimga qo'yishga farmon berdi. Yana safar, yana sudra-sudra. Yo'l azobidan darz ketgan kunim, Nodirshohni o'z odamlari so'yib qo'yibdi, degan gap tarqaldi. Buni ham odamlar, noiloj, mening kasofatimdan ko'rdilar. Shundan keyin qabr tepasida yana bir necha asr tinch qo'yishdi. Sag'anada yastanib yotish men uchun yangilik emas, yotaverdim. Maqbara muhtasham, hamisha gavjum, to'da-to'da bo'lib, dunyoning har chekkasidan kelib ziyorat qilishadi. Mundog bo'pida, kelib ko'rish mumkin bo'lgandan keyin, senki-meniki qilib talashish, qo'porish, buzish, urushishga na hojat! Yugorida aytdim-ku, yer yuzining qaysi nuqtasida yotish mening uchun baribir, deb.

Shunday qilib, odamlarga es kiribdi, deb bamay-ixotir yotsam, e-voh, nadomatlar bo'lsinki... Bir kuni

yana kelib qolishdi. Bu safar ular ko'pchilik edi, na afsonaga, na qismatga, na xudoga, na arvohga ishonadigan odamlar. Kelishdi-yu, bismillosiz, qo'l-lariga mitsang-u cho'kich olishdi. Ular halli... ertasiga jahon bo'ylab qonli qirg'in boshlanishini, to'rt yil davomida ellik milliondan ortiq inson yer tishlashini bilishmas edi. Bu 1941-yilning 21-iyuni edi-da. Hali tarixning eng fojiali tongi otmagan edi.

INSONGA QULLUQ QILADURMEN

«Dillarni yoq so'zing bilan, payg'ambar!»

A. PUSHKIN

Q uyosh subh yoqasini chok etib, ko'k maydonida jilva ko'rguzgach, Sohibqiron Qur'oni karimini lavh ustiga qo'ydi. Kun saraton burjida edi, shiddati beaded. O'rda sahnida davlatpanohning oq chodirlari shukuh-u as'asa ila charaqlab, kunga yuz tutdi. Shu mahal xirgohning ko'rinishxona yo'lagida soch-sogoli o'siq, darvishona xirqa ustidan kumush fo'ta bog'lab, unga esa, tug'ro bezagi taqqan bir kimsa paydo bo'lib, mungli ko'zlarini yerdan olmay, shohona ostonaga qarab o'taverdi. Chodirning davlatxona qanotida Sohibqironga ko'rinish bermog uchun muntazir o'tirgan kazo-kazo saltanat ustunlari, fuzalo-yu ulamo, sipohsolor-u no'yonlar, xos-u raiyadan kelgan kalontar-u kadxudolar - biri hayratda, biri g'azabda, noiloj qarab goldilar. Belidagi darxon-u tug'ro nishonlari buning uchun huquq beradirkim, ul zot naqshinkor eshikni beijo-zat ochib, ichkariga yuz tutdi.

– Shul nopok devona bila mahrami asror bo'libdurlar, davlatpanoh, – deb nadomat qildi kimdir.

Yana birov mahzal ila kuldi:

– Bir mahramlari kal Inoq, bir mahramlari bul ro'dapokim, boshi kesilib ketmaganidan holo mamnun emas... «Devona» kirganida Sohbiqiron jig'ali sallani boshlaridan olib, mehmonga joy ko'rsatdilar. U o'tirgach:

– Niyatlarimiz, iloho, mustajob bo'lg'ay, – deb Oллоhga takbir aytdilar. Sohbiqiron chorpayadagi nardni ham chetga surib, mubohasaga kirmoq uchun shaymiz, degandek e'timod bildirdilar. Ul zot hamon ko'zini yerdan olmay, taammulda qolgani uchun, Sohbiqiron uning yodiga soldilar:

– Mubohasa Iso alayhissalom xususida erdi...

– Bale... Alhol Bibi Maryam vaz' to'lg'oqida aftoda erdi, – fasohat bilan boshladi «devona», tovushni ajab ohangdor, tiniq edi, – quloqlarig'a vahiy keldikim, ayo umminiso, bu kun sandin bir o'g'lon tavallud o'lg'aykim, bu olamda shoh-u gado va jam'i malikussalotin anga tiz cho'kib, toat qilgay va abadul-abad atbo' bo'lurlar. Darhaq, ul sabiy manglayida shu'layi gardish ila keldikim, to jonibi Quddusi sharif tamom munavar o'ldi. Bu xabari aroif isroil qavmining Irod otlig' shahanshohiga yetib, zulm-u fazihatda mashhur erdi, aning oshubi haddin oshdi. Tahlkada qolgan ul g'addor amir-u umarosig'a, mirshab-u shabdonlarig'a, hatto jam'i yahuda doxonlarigacha amri darg'azab qildikim, ul karomatsaro sabiyi topsinlar va mahv etsunlar. Illo go'dakni topmadilar. Alhol, ul iblis alayhulla'na: «Jam'i shahr-u kentni, tamomi isroil mulkini justijo'

qilib, shul kecha tavallud topgan o'g'lonki bor, barini qati om qiling», deya...

– Bas qil, mug'anniy... – dedilar Sohbiqiron. – Fahmladikim bizning go'dakligimiz afsonalarig'a shama qilursen.

– Ore, – dedi tinglaguvchining e'timodidan gulft-dili ochilgan so'zamol subbatdosh. – Ore, sening chirog'ingni tangri yondiribdur. Iskandari Zulqarnayn tug'ilgan mag'orada Arastu hakimning lavhayi nomasi topilmish, ani eshitib bilursen. Hukamoyi Rum lavhani o'qidilar: Movarounnahrda bir o'g'lon tavallud topg'aykim, yetti iqlim salotinun zabun etgay, ismi Iskandari Soniy atalur va rub'i maskun aning tasarrufida bo'lur, deb. Alhol, vahimaga tushgan yetti salotinning josuslari ulus aro yelib-yugurib...

– To'xta. Darhaq, biz ko'p jang-u zahmat ila ul yetti saltanatga muzaffar-u mansur bo'lib, alhamdulliloh, Movarounnahrda barini yaksar etdik...

– Tamomi mulki Turonzamin, Ho'qond-u Xo'jand, Andijon-u Marg'inon, Qoshg'ar-u Turkiston jatta zulmidin omon topdilar. Movarounnahrni itini inson go'shti bilan boqadig'on jattalardan mosuvo qilib, parchin-u qirpichq bo'lgan Chig'atoy ulusini davlati qaviy aylading...

– Illo sabiyliqdag'i sehr-u asrori karomat – bari fasonadur. Arastu ulamon yunon turur. Alarda asotir-u fasona bisyor bo'lur. Sen ham fasonago'y erkansen, Ayri. Hamd sano Oллоhga bo'lsin, lof bandasig'a noloyiq. G'iyosiddin Ali Yazdiykim, jangnomasida sha'nimizga lofni ko'p aytibdur, hadiasini rad etdik. Yunonistonda dag'i Homer otlig'

asotirgo'y o'tgan. Ulku batamom so'qir ermish. Sen esa, bizni ayon ko'rib turibsen.

– Baribir, el, Amir Temur Oллоh taoloning barguzidasidir, derlar. Zero, Zuhul ila Mushariy burjida tavallud topibsenkim, Oллоh taborak yer-u ko'ni shul soatda yaratmishdir. Nujumotning bu holati har saktiz yuzlikda bir kelurkim, alarning chehrasida nuri ilohiy zuhur o'lgay. Avvalo, Iskandari Zulqarnayn, andin so'ngra Muhammad alayhissalotu vassallam va dag'i sen, qiblagoh...

Sohibqiron, odatlaricha, lat yegan chap yelkalariga sal engashganча silkiniб kuldilar:

– Abas bu, nag'masoz! Hisobda g'alat ketding. Avvalo, Iskandari sohibqiron kalimayi shahodatdin bexabar mushrikdur, bizning qatorimizdan emas. Sen Iso alayhissalomdan boshlab eding, aning taval-ludi ...– deya yana o'rinlarida tebranib kuldilar: – yo'q, bu bari to'qima, sen esa xizmatimzidasen, nomunosibdur.

– Yo'q, men so'z xizmatidamen, deb aytdim. So'z esa haq xizmatidadur.

– Bale, she'r-u shoir ilohdin. Demishlarkim, otamiz Tarog'ay bahodirning to'fang o'qidin o'lmagan raqiblari Qozog'on no'yon hazrat Sayfiddin shayxul-a'lanning bir ruboiylaridin telba bo'lmish. Sen ham bizni abyotgo'ylik ila telba qilmag'ay erding, – deya yana kuldilar, ammo ko'rdiarkim, hamsubatlari yuzida tabassum yo'q. Shuning uchun jiddiy davom etdilar:

– Go'dak chehramizda nuri ilohiy zohir o'lg'oni lofdur, illo ulamoliar mashvarati joriy yuzlikda islomg'a rivoj bergan shu zot deya bizga fatvo ber-ganlari rost.

– Ha ... Olam sehlridur. Sohibqiron. Uning tarixi sening jang-u jadallaringdangina iborat emas. Anda ruhiyat, fusunkor afsona-yu ilohiy hikmatlar...

– Sening tungi navolaring...

– Ore, bari omuxtadurkim...

Hurmati kitobxon, ijozatingiz bilan, biz muhoba-sani shu o'rinda bo'lib, diqqatingizni o'zga bir nimarsaga jalb etamiz.

Kimdir bul tap tortmas shaddod?

Dunyoda hech kim, hatto ota-onasi ham senlamagan jahongir hukmdorni senlab, u bilan muroqaba qilar? Nahot, uning joni shirin bo'lmasa?!

Vogea bunday bo'lgan edi.

Movarounnahr hukmdori Xuroson-u Seyistonni o'g'illariga suyrug'ol qilib, Shom-u Ajam orzulari bilan fors hududlarida qarorgoh tortib turganlarida Mozandaron dorug'asidan shikoyat yetdi. Sheroz ulusi muzaffariylarning zulm-u musallatidan dodini kimga aytishni bilmay, qon yig'lab, Sohobqironidan imdod kutar emish. Bu payomdan sarkardaning tashvishlari chandon ortdiki, toqat-u halovatlari yo'q edi. Yo'rab, bu mumsik voli-yu hokimlar so'qirmiki, na Xudo qahrini, na ra'iyat kasrini ko'radir! Sherozga lashkar tortish sardori mualloning mo'ljallarida yo'q edi, xayollari besari poy bo'lib, oronlari qochdi.

Malomat ikki kelur, naqlidan bo'lib, ustiga ustak, shu kecha vatandan yalavoch chopar yetib, yana bir shumxabar aytdi. Yalavoch aqib otidan bemajol yiqilib, o'lar holatda shivir berdikim, Dashti qipchoqdan To'xtamishxon yetovida kelgan katta sipohlari Movarounnahrni yag'mo g'orat qilib, Sohobqironning ona beshigi Zanjirsaroyni otashzada, Buxoroyi sharifni esa gamal qilibdurlar.

Buxoroda tolibi ilm-u ahli fuzaloning qatlig'a jazm etmishlar...

Davlatpanoh yuzlariga qon qalqib, u yon-bu yon yurgach, qo'llaridagi jo'ji cho'qmorini urib sindirib, jahl otidan tushgan bo'lib toshga o'tirdilar.

– Ey fosidi fuzuhl – dedilar To'xtamishni eslab. O'g'limiz tengi, nuri ayn degan edik murtadni. Xoja Shams mozorida Qur'oni majidni dastiga olib, «Sizga nauzanbilloh jihod qilmagaymen», deya ont ichgan edi, gasamxo'r'i G'addori!

Sohibqiron shu kecha birinchi marotaba horg'in qariyadek oromga yotdilar. Qasri Orifonda bezovta tunadilar. Tushlarida Bahouddin Naqshbandni ko'r-dilarkim, qalandarsifat emish, aytdilar: «Ayo o'g'lon, jam'i kavkab hut burjiga kelbdur, qiron bo'lar. Nuh to'fonida ham mundog erdi, jatta hukamolari buni bilmas. Buxoroyi sharifga lashkar tortg'il», deb.

Ertasiga davlatpanoh mashvarati umaroga ayon etdilarkim, «Movarounnahrda darhol qayturmiz, yurtimiz musulmonlari bizdan najot kutadir». Tasarruflariga olgan yaqin-yovuq shahr-u kentga voliyalar tayinlab, ruhi Rasululloh alayhissalomga tilovat bag'ishlagach, ertasiga bo'z ot minib qararoni dubulg'aga o'rnatdilar-da, nayza-qalqon qo'llarida, zarrin fo'ta bellarida, yaroq taqqan ming to'fangchi davrasida, yashil tug' ostida saf boylagan ikki tuman lashkarni shimol tomonga siljittilar. Bunday paytda Sohibqiron marqabi kajavada emas, uzoz yo'lga ot minar edilarkim, aqqim otning yobon yo'llarida yelishi dillaridagi g'azab cho'g'ini andak sovtar degan umidda. Illo, yo'q, bil'aks, horib-tolganlarida ham osoyish topolmay, yana To'xtamishni eslab ketdilar.

Ul nobakor bir necha yil muqaddam Urus-xonning qasdi qatidan qochib, Sohibqironni qibliagoh deya panohlariga sig'inib kelgan edi. Samargandda uni iltifot va siylov bilan kutdilar. Davlatpanoh unga O'tror-u Sabron uluslarini peshkash qildilar. Dag'i bir tuman lashkar boshiga qo'yib, «Bor, yog'iyingni daf' et», deya fotha berdilar. Mehr ko'rguzub, nasihat aytdilarkim, «Nuri aynim, zafarga ko'zing yetsa, yog'iyg'a omon bergil, bog'-bo'stonni vayron qilma, bacha-bag'lini asir olma, avrot qo'lg'a kelsa, asokirg'a ayt – fasad qilmag'aylar», deb. Ul nonko'r esa, barining aksini qilib, Dashti qipchoqdan befath-u zafar, mulzam qaytib keldi.

Sohibqiron bu noshukrni otasining qotili Urusxondan pana qilib, uning xunxor o'g'illari Qutlug' Bug'a va To'xtaqiya qasdidan uch tobqir qutqazdilar. To'rtinchi bor ham necha tuman lashkar berib, Mamayxonni mahv etishiga, Oltin O'rda taxtiga o'tirishiga, jo'chi ulusining nufuzi ortishiga hamiyat qildilar. Endi esa, ul gustohning ko'zlarini fazihat pardasi bosib...

Qirq kun deganda Jayhunning Xorazm sohillarida Amir Temur lashkarlarining to'zon bulutlari va «suron» sadolari osmonni tutdi. Kokil qo'ygan Temur siyohylarining muborizlik vajohatini ko'rgach, kelg'ini jatta saflariga g'uluv tushib, parokanda qocha boshladilar. Sohibqironning Xudodod Husayn, Shayx Ali otlig tumanbeglari To'xtamishni Sarig'suv va Zarruq yoqalarigacha quvib borib, Anbar tepaligida tamom musahhal etdilar...

Bu janglar tinganda hamal kirgan edi. Sohibqiron qur'orgoh ko'targan Xo'jand suyining Akar tumanida

navro'zi ajam, xushbo'y subhi saboda qizg'aldoqlar tebrananar, tundayoq ko'prik qurishga chiqqan pulsoz sipohiy to'dalarning tarq-turuqi olisdan eshittilar edi.

Sohibqiron aslahasiz, yengil xil'atda xos chodirlaridan chiqib, tong nafasini olmoq uchun daryo sarig'a yo'l tutdilar. Izlarida, rusumga ko'ra, sodiq qutvollari Inoq borar edikim, mulozimotlarida sidqidil, o'limdan tap tortmaydigan gaviy jo'sha va daler muboriz edi, ikov sohi ustiga dohil bo'ldilar. Ko'rdilarki, quyida bir to'da juldur-u notavon jo'chi asirlar yuzboshi amir Qatag'on posponlig'ida o'tib boradir. Sohibqiron ko'zlarida alomati savol zuhur etdi.

- Mahkum yog'iyalar, Sohibqiron, qatliom etilur, - dedi Inoq.

Davlatpanoh andak taammulga toldilar va safdan birini ko'rsatdilar:

- Ani huzurimizga chorlag'il, - deb.

Inoq ul asirni oldiga solib olib keldi. Soch-soqoli o'siq, darveshsifat bu zot, behog'ida kadusimon qo'buzki, ko'lnaligidan saygallanib ketmish edi, ko'zini yerdan olmadi.

O'tgan kechasi Sohibqiron daryo jonibidan shul qo'buzning dardli nag'masini eshitib, uyqu va oromlari qochib, hushlari parokanda bo'lib edi.

- Nasab-u nasabingni ayt, - dedilar Sohibqiron.

- Mahkum bandamen, - dedi asir behadik.

- Biz seni o'limdan xolis qildik.

- Yo'q, men alar bilan o'limga borurmen, - dedi ul zot. Javobi dag'al eshittildi. Sohibqironga «yo'q» deguvchi bo'lmasdi. «Bir devona ekan», degan andishaga bordilar.

- Ixtiyor ila o'limoq bandasiga gunoh.

- O'z ulusingni qatliom etmoq undan ortiq gunohdur, - dedi darveshsifat asir.

- Bular xususlan sen ham, behayo g'animlar, bosqinchi jattalarsizi! - dedilar Sohibqiron g'azab xurujini bosib.

- Yo'q, men turk farzandimen, bular ham zoti-budi bilan turk-u tojik!

- Nechuk?

- To'xtamishxonning odati borki, jang saflarida o'zi qo'ngan manzili atrofig'a Turon zamin farzandlaridin, qari-quri fuqaroni tizib qo'yib, ishrat qiladur. Bular o'shal begunoh sho'rliklardan. Amir Qatag'on asir olib haydab keldi.

Sohibqiron hang-mang bo'ldilar, qonlari chehralariga toshdi. Illo bu «devona» o'ziga yarashmagan bir fashohat bilan gapiradirk, aytganlari talbis yo makrga o'xshamasdi. Uni xirgohga boshladilar. Inoqqa amr qildilarkim, «Bu mojaro tatifish qilinsin, agarchandi gap haq bo'lsa, «asirlar» emas, amir Qatag'on qatl etilgay.

«Darvesh» Movarounnahr xogonining toqi-ravogiga har kuni kirib yurgan odamdek, na masnad-u maqomiga, na hasham-u aslohiga hayrat ko'rguzdi. O'tlur, desalar, - o'tirdi, gapur, desalar - gapirdi.

- Tunda abyot aytib nag'ma qilgan seinni eding?

- Men.

- Oting nimadur?

- Ayri Qo'buz derlar.

Sohibqiron, hazil qilur deya, jilmaydilar.

- Nechun «Ayri»?

- Termiz sayidlari yetakida murid ekanmen, yo'qlikdan ayriya sim tortib chertar edim... asli ismim Muhammad.



– Bor. Libos yopurlar, xizmatimizda bo'lursen.
– ... Men so'z xizmatidamen, – dedi Ayri Qo'buz tap
tortmay, – so'z esa haqiqat xizmatidadur. Sohbiinni
senga ham almashmasmen.

Sohibqiron lol qoldilar. Bu nag'makash so'zida
olampahoni biron marta ulug'lamadi, endi esa
betga chopib... Sohibqiron g'azabdanni, hayratdanni
vujudlarida andak titroq sezdi. Hozir bu
qulbachani darhol chopib tashlasalar haqlari ham,
hadlari ham bor edi. Ammo bu devonayi benavoning
ko'zimi, so'zimi – nimasidir bunday say'idan tin-
di, quloqlarida uning tungi sirli navosi yangrab
ketganday bo'ldi.

– Bu hayotda ulug' p'yrimiz va gaynotamiz
rahmati Ubaydulloh Sadr ash-shariatdin o'zga
hech kimsa bizni senlab aytmagan. Sen ikkilamchi-
sisen, – dedilar qayg'adir, chet bir nuqtaga tikilib.
– Jasorat egasiga qo'l ko'tarmasligini bilurmen,
Sohibqironning mardligini yana bir bor imtihon
qilishga jazm etdim. Zotan, mening uchun buning
evazi baland emas, umrimning bu yog'i tekinga
qoldi, shohidsen.

– Unda jasur emas, tavakkalchi tentak ekansen.
– Eshitgan edimki, Sohibqiron'ga tab'i mah-
zul bir so'zamol sozanda manzur bo'lmish, mash-
shoqlar ichra davrada ko'ngul ochar erdi. O'zi esa
so'qir ekan. Bir kuni davlatpanoh andin: «O'ting
nimadur?», deya so'radig. «O'tim Davlat», dedi
sozanda. «Davlatning ko'zi ko'r, bo'lurmi?», deding.
Sozanda aytdi: «Davlat ko'r bo'lmasa, oqsoqning
qoshig'a kelurmu?!».

Sohibqiron beixtiyor kulib, noxush sovigan
vujudlari yayradi.

– Bu rivoyatdur... – dedilar.
– Mening Iskandari Soniyi senlab gapirishim
ham bir kun kelib afsona bo'lur... – dedi Ayri Qo'buz.
Shundan so'ng bu tungi mug'anniy Sohibqiron
ko'zlariga go'yo boshqa bir qiyofada namoyon bo'la
boshladi. Nogoh uning kecha tunda kuyagan navoyi-
nolasi butunicha yodlariga keldi. U so'zlar go'yo
musiqaga birla eskir mavjlarida saytrona edi:

Bargi sabz yoz bo'yi kun nurin emdi.
Kuch yig'ib, dedi: «Bas, kun – o'zim endi».
Hasaddin sarg'arib, chirt uzildi-yu
Pildirab-shildirab qabrog'a indi.
Kuzning qaro tuni, momaqaldiroq,
Yig'och tegrasinda tentirar yaproq.
Barq qilich sermab, yogar gulxanlar,
Sarosar tutanqib biqsir gulshanlar.
O'shal gumroh bargdin tutashib olov,
Ul durkun ham o'rtnur lov-lov...
Barg yengil, yengiltak mulhidi zardusht,
Ona mulkin yoqib bo'lur modarkush,
Makruhdir kim kechsa uhuvvatidin,
Alhazar yomonning mazammatidin...

Tunda daryo sohilidan yetgan bu ohanglar
Sohibqironning oromini olgan edi, endi esa bor
ma'noki fikrasti bila uquvlariga keldi. Sohibqiron
bu navoda avval go'yo tamomi o'z umrlarini, keyin
sarbasar o't tutashgan dunyoni, Movarounahrni
ko'rdilar. Agar gumroh yaproq To'xtamish timsoli
bo'lsa, bu bandayi benavoning sehrli qo'buzi bizning
may' qo'shishimizga ishorat qilmasmu?

– Ayri Qo'buz... ko'nglimizga kelurkim, navoyi
abeting ila ertangi jang-u zafarimizni bashorat

qilursen. Ayt, quvib borsak, nobakor To'xtamishni mahv eturmizmu?

– Asrori g'oyibni bilmam, Sohirqiron, fol-u ta'bir ham ochmam, qur'a ham solmam. Vale, Olloh diling'a solsa, chertib, kuylag'aymen...

Bu javob mujmal bo'lsa hamki, To'xtamish daf etilmasa, xonadonda yong'in o'chmagay, degan fikr Sohirqironning dillaridan ketmay qoldi. Kechalari Ayri Qo'buz abetidan hikmat-u karomat izlab tong otdirar, shaddod qo'buzchini juluslariga chorlab, yana muroqaba qurar edilar. Bu mubohasalar odat bo'lib qoldi. Shoirning sirli, mavhum suhbatlari manzur bo'lar, farosat-u basiratig'a botinan tahsin aytar edilar. Shuyla, Ayri Qo'buz, chaptast Inoq qatori, Sohirqironning o'zgalar uchun hayratomuz, rasamad mantiqidan g'ayri bir mahramlari bo'lib qoldi. Baxshi o'zini ortiq erkin tutishi bilan goho Sohirqironning g'azablarini oshirar, ammo ul zot bu shaddodg'a negadir «Bor, ozodsen!» deya aytolmas edilar.

Endi aziz kitobxon, tushundingizki, hikoyamizning ibtidosida ular o'rtasida to'satdan boshlangan mubohasa ham shul jumladan edi. Sohirqiron bu g'alati shoir bilan gohi xayolan ham olishar, aslida esa, yolg'izlikda o'zlari bilan o'zlari ziddiyatga kirar edilar. Ba'zan esa, unda o'zlarini ko'rar edilar. Shiddati voqealar asiri bo'lib, o'limdan tap tortmay, beto'xtov qonli janglarda minglab asirlarni ko'rib, diydalari qotgan Sohirqiron o'zlarini gohi shu odamga yoki dillarini bosim chirmayotgan bir mavhum ruhiyatga asirdek sezar edilar.

Dashti Qipchoqqa qochib daraksiz ketgan To'xtamish halovatlarini o'g'irladi. Ul qayonda,

tinchib ketdimi? Yo quvib borish lozimmi? Oq O'rdaga lashkar tortish xususida mashvarati harb chorlashga ham ikkilanib, bezovta bir qiynoqda yurganlarida ul dog'ulidan elchi kelib, noma tutdikim, mazmuni va uslubi chunon dabbalilkidir:

«Noma yetib Sohirqiron qiblagohing'a ma'lum bo'lg'aykim, avval hamd-u sano Tangri taborakkakim, ko'kni muallaq, yerni mutabbaq yaratibdir, duoyi durud Muhammad sallollohu alayhi vassalamgakim, Olloh taolo aning tufaylidin o'n sakkiz ming olamni vujudg'a keltiribdur, shariat andin joriy bo'lib, zalolat cho'lida qolg'onlarni hidoyat yo'lig'a solibdur. Alqissa, bizning ham shu yo'lg'a kirishimiz vojib, oramizdag'i behuda nizo-yu muhoribada ko'p ahlolohi begunoh zabun bo'ldi. Musulmonni musulmong'a muxolif etmay, shariat taqozosi bila janobimdin sulhi xayr umid qilurmen. Qiyomatning andeshasini qilaylik, deb muhr bosdim. Noma tamom – vassalom».

Buni o'qigach, Sohirqiron ruhlarida yengillik sezib, Xudoga shukrona aytdilar: «Inshoolloh, endi dashtni bejang-u jadal, bexun-u ajal musahhar eturmiz», deb. Xushxabar suyunchisi uchun ulamoyi fuzalog'a ikki qalqon zar in'om berdilar, To'xtamish taboh qilgan Samarqand madrasasi ta'miriga musarraf etilg'ay.

Ko'ngillari tinchib, ko'p tunlar sirasida ilk bor jon-u tan rohatida uyqu olar edilar, ammo subhidamda yobondagi qo'y qo'ralaridan bir nag'mayi ajab og'oz etdi. Beshak, Ayri Qo'buzning navozishi erdi, e'timodlarini tortdi:

Tong kavkabini uyg'otgan sabo,
Dala-tuzda mavjlan, marhabo,

Qo'ychibonning nafasi, yoki
Nay navosi, so'lim, dilrabo...

O'taringni tundan qo'riqla,
Og'llarni, cho'pon, qulflar:
Yo-yu hadangingni unutm.

Sovimasin gulxanning qo'ri,
Hid oladi o'q yegan bo'ri.
Qon hiddan mast-u makkor u,
Qaytib kelsa – cho'ponning sho'ri.

Quyruqini qisib keladur,
Tulki yanglig' pisib keladur,
Tun firibgar sokin g'afiatki,
Sharpasini to'sib keladur...

Buni eshitgach, Sohbiqironning ko'z o'ngida Qipchoq dashtida yaralangan bo'riday tentirab yurgan To'xtamish gavdalandi. Sapchib, shabgoh hijobini yirib, oyoqqa turdilar. Ul qasamxo'ning balandparvoz nomasiga laqqa tushayozgan ekanlar, hozir tun o'rtasida oyoqyalang qaltirab turgan bu begona zotga nafratlari toshdi. U nomaning tazvir ekanligi ayon edi-kul! Qani u zobiti muzaffar?! Sohbiqiron gohida o'zlariga bir dam chetdan nazar solib, illo bag'irlarini ko'p oluda qila bilmay, bu holatdan tezda chiqar edilar. Asfariy sallani boshga olgach, xulla qabo ustidan shohona fo'ta bog'lab, isfahoniy qilichni salanglatib, davlatxonaga chiqdilar. Sohbiqiron holatidan hamisha voqif Inoq zunda paydo bo'lib, amirlarni mashvarati harbga chorladi. Shahzodalar tasarrufidagi uluslardan qo'shin talab qilib yorlig'lar yuborildi, barlos, arg'in, jalo'vir, do'ldoy, to'g'ay, artlot

kabi qirq aymogga choparlar, elatlarga tovachilar ketdikim, boricha lashkar yuborsinlar.

Ikki hafta o'tmay, salkam bir lak lashkar Qo'rg'on ostida Sohbiqironning ko'riklariga dohli bo'ldi. Rahtiroh but bo'lib, tilovati Qur'ondan keyin tabal degan dovul nog'oraning sadosi falakni tutdi. Chor tarafdin el-u ulus kelib, navozishlar aytib, qiblagohning mulozimatlarida bo'ldilar, duoyi fo'tiha bilan fath-u zafar tilab qoldilar. Alambardorlar ichida Sohbiqironning oltin zirthli dubulg'alari yiltillaganda «Suron» nidolari eshitilib, qorovul to'dasi ketidan hirovul va chopovul qismlari siljidi. Chap va o'ng qanotlar esa, Sig'noqning yayoq yalangliklariga chiqqandagina bemalol yoyilib, o'z o'rinlarini oldilar. Tuman-tuman otlig' – piyoda lashkar larzasidan osmon guvlar, nayza-yu qalqon chaqmoqday chaqnar, biydek Qipchoq dashtlarida siyrak yulg'un tebranar edi.

Kun og'ganda ufqda g'ubor ko'rindi. Ko'p o'tmay qorovul to'dasidan xabar yetdikim, jatta lashkari yetti bayroq ila keladir, chovurtkadan ziyoda, deb.

Haqiqat Sohbiqironning boshlariga nayzadek kelib urildi: «Ana, Ayri Qo'buzning yarador bo'ri makri haqidagi tungi qo'shig'i ayri karomat ekani Sulhi xayr deya noma bitib, o'zicha bizni g'afatga qo'yib, orqasidan oq lashkar solibdur, g'addori Mayli, ul bizni bu yerlarda kutmas, qanotlarni yoyib «quchog'imizga» olurmiz!...»

Yog'iyga ikki farsang qolganida Sohbiqiron tizgin tortdilar. Juvong'or va barong'or to'dalarni ikki qanotga keng yoyish uchun dasht kengliklari qo'l keldi. Alhol, qorovuldan chopar yetdikim, qipchoqlar

har otg'a ikki bog' o'tni surgatib, siyosat birla to'zon to'zg'itib kelurlar. Sohbiqiron mo'g'ul jangarilarining bu ko'lna-yu jo'n dasturini fahmlab jilmaydilar va to'satdan bosqin qilg'uvchi chopovul to'dasini shabixunga, ya'ni tungi hujumga yo'lladilar.

Shabixun mudhish chopqin bilan boshlandi. Firi bi fosh bo'lganini payqagan g'anim orqaga yuz tutdi. Va qanot to'dalari ichra arosatda qolib, qolgan qutganlari parokanda holatda qochdilar. Sohbiqiron lashkarlari dasht tunining jahannamidan chiqib, yog'iyini tongdin shomgacha, so'ngra yana bir tongdin yana bir shomgacha quvib bordilar.

Endi faqat hirovul to'dalari oldinda, jangovar holatda edi. Qolgan cherik aslaha-yu rizqi-ozuq zaxirasi bilan, har bir askar to'rt xil yarog'i, do'rdig'-u qozoni bilan orqada borar, oddiy safar tirikchiligi davom etar, kapalakday qo'nib uchadigan chodirlar orasida gulxan yallug'lanar, qung'on gaynar, mol so'yilib, changaklarda go'sht qoqlanar edi.

Ikki hafta o'tib, rabbiul-avval kirganida hirovul to'dalari bir kichik kent qo'rg'onining mustahkam istehkomlariga yo'lliqdilar. Josusning xabaricha, istehkomlar doira-doira bo'lib, ularning necha qatlam ekanligi noma'lum. Har istehkom zabt etilganda yog'iy himoyatning bari jonini fido qililar, aslo qaytmas edi. Ko'p qon to'kildi, Sohbiqironning chopqinchi to'dalari ham goh janglardan sovuti ushalib, o'pchin-u qalqonlari qilich zarbidan pora bo'lib, talafot ila qaytar edilar. Sohbiqironni talafotlardan ham ko'ra ul qo'rg'on elatining jonfdolig'i, behad qurbonlari, qonli taloto'plar charchatdi. Bu tosh yong'oqni aylanib o'tib, sadqayi sar, deya safarni davom ettirishni maslahat ko'ruvchilar ham bo'ldi.

Ammo Sohbiqironning bosgan iziga o'z ma'muriy - valiylarini tayinlamay orqada zabt etilmagan yog'iy albotisini qoldirish odatlari yo'q edi.

Yeti istehkomni qon bilan olgach, to'xtadilar. Bu qo'rg'onni yanchib o'tish asli hech gap emas edi. Illo, tinmay qirilyotgan bu fidoyi elatning ne asrori bor? Yo' Oллоh, bu ne hikmatkim, bu xil qon-u qiron din ko'ra sog'-u omon taslim bo'lmoq kichik qo'rg'on uchun ming avlo emasmu? Bu gilqo'rg'onning nimasini asraydur?

«Hay, shabixun qilib betalafot olurmiz», deya, Sohbiqiron shomda bu azobi o'ylar bilan behalovat, hobgohlariga kirdilar. Safar charchog'ida qarorgoh ham tez tindi. Bedor-u dilxun sokinlikda jang suronidan qutulgan yobonlar bir maromdagi munglig' chirildoq sadolariga to'ldi. Buning ustiga, qaydadir Ayri Qo'buz noxun chertib nola qililar edi. Uyquni boy bergan Sohbiqironni yolg'izlik, cheksizlik, ayriliq va darbadarlik ohanglari chulg'adi. Baxshining esa, bundan uzog' o'z dunyosi, o'z ertaklari...

Piri komil raxt yuklab xarig'a,
Yurar erdi mulki Ajam sarig'a,
Yo'lto'sarlar chiqib aning yo'lidin,
Xurjunini yulqib oldi qo'lidin.
So'rtilar: «Ne xurjuningda, ey bobo?»
Dedi: «Bunda bordur durri behaho».
Shunda yirtib matosini otdilar,
Durji bekunij - yig'och quti topdilar,
Andin dag'i xarsang quti topdilar,
Yig'ochini bolta bilan choptilar,
Xarsangini yanchib - tuyib otdilar,
Andin bitta qumaloq mum topdilar...

Yo'lto'sarlar dur qidirar edilar,

Bul mum ekan, o'tga tashla, dedilar.

Piri konil tiz cho'kti shundayoq:

«Yolg'on dedim, men gunohkor, meni yoq!»

Mum to'fon mavlarida ushibdur,

Nuhning najot kemasidin tushibdur.

Anda pinhon erdi bug'doy donasi,

Ki habotot – nabototning onasi.

Alqissa, pir o'tga berib jonini,

Asrab qoldi bani bashar nonini...

Horg'in Sohibqiron mug'anniyning nimasidir
hikmatomuz bo'lsa ham, bunday uzoq va beg'am
rivoyatiga miyiqda jilmayib, pinakka ketdilar.

Yarim tunda shabixunga suron tortilib, Gil-
qo'rg'on zabt etildi. Qon ko'p to'kilib, muhofizadagi
elatdin kam kishi omon qoldi. Tongda qo'rg'on o'r-
tasidan bir qur qariyalar Sohibqironga peshvoz
chiqdilarki, ularning qurshovida bir yusufamol o's-
mir bor edi.

– Bu norasida kimdur? – dedilar Sohibqiron.

– Bu bizning, Olloh muruvvati va shahodati bi-
lan, bo'lg'usi shoirimiz, – dedilar mo'ysafidlar, – shu
yoshidan ilohiy so'zlar va go'zal ash'or aytadur.
Shoyat istiqbolida elatimizdan avliyo chiqar, degan
umiddan o'zga hech narsamiz qolmadi. Xonumonimiz
kuydi, faqat umidning joni qattiq, barchadan keyin
o'ladir. Bu sabiyini himoya qilib, ko'p fidokor
farzandlarimizning qoni-jonini qurbon qildik. Uni siz
Sohibqironga ham bermagaymiz.

– Biz... biz... – deb Sohibqiron hayratda anchagacha
so'z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy
qariyalarga qarab uzoq turdilar, – ul sizningdur, biz
olmaymiz... Illo, bizga ash'oridin aytgin.

– Aytmaydur, – deyishdi chollar. – Qo'rg'onimiz
atrofida yer quchib, nigon bo'lgan yarim elatimiz
hurmati, hozir Olloh aning dilig'a hikmat kalomini
solmag'ay...

Sohibqiron, balki umrlarida birinchi martadir,
so'zni suhbatdoshida qoldirib, musallam orqaga
qaytdilar. Xirgoh darboriga yetmay, Ayri baxshining
tungi nolishi xotiralarga tushib, junjilib ketdilar.
Nag'mani birato'la eslab, manglaylariga mushtlab,
afsus tortdilar: «O'shanda shabixuni to'xtatib,
esni yig'ib olish ayni muddao edi-ku, qartaydikmu,
nima balo!? Olloh baxshining diliga soladur, nechuk
bizning dilimizg'a solmaydur?»

Uzoq o'tirib, ich-etlarini yeb, yana nadomat
chekdilar.

Shu mahal Ayri Qo'buz, bamisoli ruh, odaticha
beijozat paydo bo'ldi.

– Norasidani ko'rdingmu? – dedilar Sohibqiron
bosh ko'tarmay.

– O'zimni ko'rdim...

– ...

– Elning orzu-umidini ko'rdim, Sohibqiron.

– «Bani basharning rizqi...», «Hobototdin nabo-
tot!» – deya nag'ma baytlarini esladilar Sohibqiron
tovushlarida andek qahr ila.

– Abetni eshitibmu erding? Bu rivoyat,
darchaqiqat, elning ertangi maoniy va ruhoniy
rizqi xususida. El ani jon barobar bilib, o'zini o'tga
tashlab, asrab qolibdur...

– Qirg'in hisobig'a... Imo-ishorotni qo'yib, bizga
kelib oshkora aytasang bo'lmasmu edi?

– Ustozim shayx Sayyid Vaqqos aytur edilarkim,
«O'qilgan chala bo'lur, o'qilgan bo'la bo'lur», deb.

- Ishorat bashorat emas.
- Unday da'vom yo'qligini aytib edim qiblagohga.
- Men Xudoning osiy bandasi, dilinga solg'onidin o'zgani bilmasmen.
- Biz...
- Sen sipohlaringisiz Sohbiqiron emassen. Sipohlaring esa - davlatning bandalari.
- Alar Xudoning bandalari.
- Alar dunyo ishlari ila tamom band. Men alarga ilohiy sehiryat borligini eslatib, dillarini tikanak sim yanglig' chirmagan dunyo ishlardin sal chalg'itishga urunamen.
- Sen o'tgan gal ham: «Olam sehiridur, tarix jahongirning jang-u jadallaridangina iborat emas, ul afsungar afsona-yu ilohiy hikmatlar ila ham butun bo'lur», deding, bu xotirimizda.
- Sirru asror, ko'ngil davlati, ilohiy so'z, el umidi, norasidaning abeti kalomi...
- Bas... senga ne kerak? - Sohbiqiron bu so'zlarining o'rinsiz ekanini bilar, jahllarini bosisiga urinar, ammo bu shaddodni quvib chigarolmas edilar. Sezar edilar ki, undan g'ayri yanada aftodahol bo'lg'aylar.
- Mana, sen jang oldidan Qur'oni majiddin varaq ochib, oyat o'qursen, - deb davom etdi Ayri Qo'buz, mening abyotim seni taammulga solur. Qariyalar so'zidin bu holga tushding. Inchunin, bag'ritosh ermassen. Menga shu kerak...
- Bir umr joni huzur-halovat ko'rmay, jang-u jadal qonli qironlarda diyda-yu bag'ritosh qotgan bu insonning ko'nglini sal bo'lsa ham yumshatish niyat edi bu devonaga.
- Jahongirlarga bosh egmadim, insonga qulluq qiladurmen, - dedi shoir.

- Umrida ilk bor eshitayotgan bunday shaddod so'zlardan vujudlari qizib, uzog bosh solib o'tirgan Sohbiqiron asta dedilar:
- Dayrda ko'p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har neki bo'lsa, Oллоhning madadi, bandasining tadbiri biladur. Tadbirimiz taqdirga mos tushib, fath-u zafar ila shu kunga keldik. Illo biz To'xtamishdek g'anim-u fazilga berahm bo'ldik.
 - Shoirga Sohbiqironning sokin tovushlari xush keldi.
 - Tasbeh deya qo'yningga solganing ilon chiqibdur, ani yanchmoq vojib, - dedi Ayri Qo'buz...
 - Biyo'bonda tong oqarib, shabnam hovurida ko'tarilgan qo'g'a, yulg'un hidlari havoda kul-u dud bilan qorishiq edi. Sohbiqiron arkoni aqraboni chorlab amr etdilar kim, taslim bo'lgan ulusga shohona marhamat ko'rguzilg'ay. Bakovullar yugurib-yelib elga ofiyat berdilar, ulus amirlariga sovg'a-sovrun ulashib, ikki kun navozish qildilar, ulusning barcha elatlarida shikva-yu shikoyat tinglanib, bariga xiroj, juzya, qo'nalg'a, boi, shilon soliqlaridan xolislik e'lon qilindi. Sohbiqiron kechagi qariyalarga malugona xil'atlar peshkash qilib, birini ulusga voliy tain etgach, tilovati Qur'ondan so'ng yana yurishga tabal qoqturdilar. Amir noiblari chortug'-u burg'ilar bilan chiqishdi, mag'lublar ham el tutinib, ulardan ko'p o'qchilar, chopqichilar, nayzadorlar Amir lashkariga kelib qo'shildi.
 - To'xtamishxon to'dalari Xo'jand suyidan kechganidan so'ng, necha kun qochib, Gilgo'rg'on ulusidok begunoh elatlar panasida, poyonsiz qipchoq yohonlarida pusgan edi. Qorovullar g'anim saffari raftorini olib kelgach, ikki ganot to'dalari yog'iyini

g'afiatda bosib, yana chopqin qildilar, jatta yana ortga yuz tutdi. Sohbiqiron amirlari hirovul to'dasini pistirmaga joylab, chopovul bilan ot solib, yana quvdilar. Ot dupuridan biyobon tebranan edi, lak-lak lashkar g'ubor ichida mag'ribga siljir ekan, kunmi-tunmi o'tgani bilinmas, faqat sabohning namchil salqinlarida aroba g'irchi-yu qo'ychibon qurreylari, toy kishnashi-yu tuyay pishqirqlari quloqqa chalinar edi. Temur lashkarlarining mahobati yurishi haqidagi ovozasi o'zidan uch kun oldinda yurar, yog'iyini yo'lda bog'-rog'ni yoqib, tirik jonni chirqiratib, xonumonini sovrub, dala-tuzni chovurtkaday qiyratib, yaylovlarni tap-taqir qirtishlab, jonholada qochishga majbur etar edi.

Quvishning o'n yettinchisi kuni otlar o'la boshladi. Bu o'lat emas, qo'nim kerak edi, qo'nimga esa giyoh yo'q, butun og'irlik tevalar o'rkachiga tushadigan bo'ldi. Qayonga qochayotir, qayonga boshlab ketayotir bu chiyabo'ri? Qaytsang bosib keladi, quvsang qochadi, tikka jangga xushi yo'q nomard-ning. Inoqning xabariga qaraganda, bir guruh amir-u no'yon sarosimada gap qilishibdur: «To'xtamish biyobonlar ichkarisiga atay boshlab, borsa kelmas manzillarda ochlik va o'latdan tamom toliqitirib, tiz cho'ktirmoqchi ekan». Chap qanot qanbulida ters munagashalar sezilar emish. Lashkar to'dalarida bu sarosimani Sohbiqironning salobatigina bosib turardi.

Ko'p o'tmay zaxiralarning tagi ko'rindi, o'qdonlar bo'shadi. Yurishning ikkinchi oyida sipohlar dala parrandalarining yummurtasi bilan kun ko'rib, keyinroq dasht o'ti va turli lildizlarni tanovul qiladigan bo'ldilar.

Itli suvi'ga yetmish farsang qolganda Sohbiqiron tizgin tortib, bir qiyalikda qarorgoh yoydilar. Safi buzug lashkar horg'in va och edi. Tunda jaddug'-u ter hidi anqigan jolisi harb suronli bo'ldi: haligi bir guruh amir-u no'yonlar nayza-yu qilichlarini qumga sanchib: «Ul yuho domiga tortib firib beradur, bizni zabun etadur, tobora ichkariga boshlab, och-u horg'inlikdan yiqilganimizda kelib chopqin qiladur. Illo Sohbiqiron amr etsalar, biz o'linga borurmiz!» deb shovqin soldilar. Inoq boshliq amirlar va Sohbiqironning farzandlari esa, chig'atoy dasturiga ko'ra, davlatpanoh oldilarida tiz cho'kib, «Yo'q, ul iblisni tirik qo'yib bo'lmas, quvib yetish zarur, toki bayrog'ini tuban qilsun ul ulusni talonga tashlab qochayotgan nomard bilan yakkatolosh qilaylik, ilonni yanchmasak yana bosh ko'taradur, hujumga amr eting!» dedilar.

Sohbiqiron chorpayada o'tirib, og'irlik bilan tingladi: yuzlaridan u yonga-bu yonga oqganlari bilinmadi.

Keyin xos chodirlarida yolg'iz to'lg'anib, horg'inlikdan ikki rakat namozga ham hollari kelmay, yobonga qapishib qolgan qarorgohning go'riston-dagidek sukunatiga quloq osdilar. Azobli o'yarlardan yuzlari tosh qotgan, qarashlari qo'rg'oshindek zili: mulla qoqmas edilar.

Sohbiqiron harbiy safarda hali bunday beqaror bo'lganlari yo'q edi, yobonda sochilib yotgan lak-lak lashkargina emas, go'yo butun dunyo buyuk hukmdorning tonggi hukmini kutar, ammo u zotning kayollarida ziddik tarozusining shayini muallaq edi...

Og'ir xayollar qiyog'ida ko'zi ketib qolgan ekan, tongda harir bir epkindan uyg'onib, tiniq

idrok og'ushida rohat topdilar: uzoqda yulg'unzor kengliklarga Qo'buz navosi taralar edi. Sohbiqironning quloqlariga yetdi:

Ortda yobon-u kenglik,
Yog'iy bo'lmay yuz tuban,
Ot sol tonggi ekindak
Omadingni top, top!

Yog'iy bo'lmay yuz tuban,
Ko'zi qonga to'lmish-ov
Yuhon makrin tutbon,
G'orga dohil bo'lmish-ov.

G'or sovuq'i qahrli,
O'z qo'riga tortadur.
Ul mo'ltoni sohirni
Bosish xavfi ortadir

Yog'iyga ham yog'iy bor,
Yo'lining odog'i bor.
Istiqbolida zulmat,
Vahm-u rixlat dog'i bor.

O'zi topgan mog'ora,
Lahad bo'lur o'ziga.
O'pirilib, tog'aro,
Tuproq to'lur ko'ziga.

Gul ochilsin yo'lingda,
Yelkang uzra oftob
Bayzo qilich qo'lingda
Yovuz boshin chop, chop!

Inoq ham bedor ekan, eshik ochilib qullug' qildi.
Sabohga peshvoz chiqdilar. Yoyilib yotgan qarorgoh

uyg'og' edi. Amir-u amirzodalar, tumanbegi, yuzbonl, sipohsolor bahodirlar, yana yaqin-yovuqdan oziq-ovqat, sovg'a-sovrun bilan tunda yetib kelgan kent sayyidlari, ulus amirlari va amaldorlar davlatpanohning dargohborida intizor edilar: «Buyuring, Sohbiqiron, nima qilaylik?» Rioyat vakillari tiz cho'kdilar: «Talonga tashlab ketmang, qiblagoh!»

Hukmārmu Sohbiqironning besabr jo'shib turishlaridan niyatari ayon edi. Ko'zlari bilan olomonda Ayri Qo'buzni izlab, topolmagandan keyin, jilovdorga imo qildilar: «Yo hazrati Bahovuddin!» – deb uzangiga oyog' qo'yib, kumush qoshi egarga otlanganlarida qanoatlar saf tortgan edi. Ot yo'rtib, qanot qanbullari, manglay qism lashkarlariga bir-bir ser solib, saffar salohiyatini ko'ruvdan o'tkazib kelgach, marqab meshidan uzoq-uzoq sovuq suv ichdilar. Bu sohbiqarmoning bargaror xotirjamliklari belgisi edi. Demak, qarorgohda jangovar kayfiyat shay. Ullamo fatvo berib: «Yog'iyning yuzi qaro bo'lsin!» – deya g'anim tomonga bir siqim tuproq sochdilar, keyin sipoh-u rioyattan rozilik bo'lgach, dovul nog'oraning sadosi keldi-yu har bir navkarni fiyvatga kirgizuvchi mashhur «Suron!» xitoblari ikki qit'a dashtlarini tutashtirib, uzoq yangradi. Alambardorlar qo'lida hilpiragan yashil bayroq o'rtasidagi uchta to'liqoy mushkul safarning yangi kuniga peshvoz chiqqanday, tong nurida nuqradek yillillab yuksaklarda suzar edi. Amirzodalar boshliq qorovul ilg'orlari sarin havoni yorib, tog'dan tushgan bahor toshqinlariday olg'a yuradilar. Ortida – har qanotiga uch tuman lashkar qavjiroq saharo yong'inlaridan ko'kka o'rlagan tutunday, necha yuz tarang masofani qoplab, ufqdan ufqgacha g'ubor

ko'tardi. O'rtda, zaxira qo'shmlar, dalər bahodirlar qurshovida bosh qo'mondon qarorgohi ummondagi buyuk bir orolday siljib boradi. Shoitir-u jilovdorlar Sohbiqironning ipakday mayin qadami bilan qariyb yarim kurrani bosib o'tgan sevimli ogyol tulporlarini boladay erkalab, sal terlasa yuvib-tarab almashtirib turar edilar. Inoq esa bu otlar haqida bunday der edi: «Sohbiqironning qo'ng'ir tulporlari o'limning yo'qlig'iga kafil bo'la oladur!»

Hafta o'tmay g'ajarchilar xabar yetqizdikim, yog'iy yoyiqning Turatur degan kechivuda pistirma qurmish. Pistirmalarni qora tunda bosish amir Shayx Nuriddinning hunari edi. Chap qanotda g'aninning Qozonchi yetovidagi cherigi Kaysuv bo'yida qo'nim topmish edikim, shu kecha saffari buzilib topmor etildi. Ummoni Qulzum sohilda mo'g'uliy qaytag'alarning ko'p jangari to'dalari joylashgan edi, xunrezlik ko'p bo'ldi, katta talafot Sohbiqironning qonlarini chehralariga toshirdi. Bir kechasi sara qo'shin oldiga choh qazitib, bu yonini arobalar bilan to'sib, gulxanlarni so'ndirishni buyurdi, zaxira kuchlar oldida g'ul bilan o'zlari ot surdilar. Sohbiqironning salobatlari yog'iyning Bek Yorliq o'g'lon, Xudodod Oqtoy, Kunchi o'g'lon kabi mashhur muboriz baho-dirlarini qochishga mahkum etdi. Shundan keyin zobit lashkar ikki qanotini rostlab yana yurdi-yu, Itli bo'yidagi Uvak degan joyda qattiq savashdan keyin To'xtamishning bayrog'i tuban bo'ldi. Xo'inning o'zi esa o'g'lonlari, amir-u no'yonlari bilan savash maydonini tark etib, Bulg'or chakalakzorlarida jon saqlash uchun ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shundan keyin u o'zini o'nglay olmay, xonlik martabasini tamom boy berdi.

Endi shimoliy dashtlar sohibi yo'q edi. Oltin O'rda uluslarida Sohbiqironning nomlari xutbaga qo'shib o'qildi, u zotning ismi sharfflari bitilgan tilla tangalar zarb etildi.

Sohbiqiron o'z jasur bahodirlarini tarxon unvonlari, kumush kamarlar, silovsin mo'ynalari bilan, yana yuz ming kepakiy dinor ukulka hamda yaxshi otlar bilan rag'batlantirdilar, navkarlarga saxovat bilan ulufa ulashdilar. Darband, Saroy va Hojitarxon qal'alarini qayta tiklamogqa farmon berdilar.

Ibrohim Darbandiy gasrida sayyodi xosning ov go'shtidan ziyofat yegach, Movarounnahr sultonining muzaffar lashkarlari «sayqali zamin» sariga as'asa-yu nusrat ila yo'l oldilar...

Sohbiqiron bilan Ayri Qo'buzning so'nggi musohabalari shundan ko'p yillar o'tib, Shom-u Rum fathidan keyin Keshda bo'lgan edi. Bu paytga kelib ilkalalari ham qaddi dol piri safed, bir-birlaridan nechun ajralolmasliklari xususida, dayr-u oxirat, gumoh-u savob xususida ko'p o'ylaydigan, Sohbiqiron esa, ayniqsa, horg'in va ko'p asabiy bo'lib qolgan edilar...

Oppog sochi yelkasiga, oq soqoli ko'ksiga tushgan buxshi «Sultoni rub'i maskuni!» deya ta'zim bilan ostonada paydo bo'lganida Sohbiqiron odatlaricha masnad maqomlaridan tushib, o'ng qo'llaridan joy ko'rsatdilar.

Bandalik niyatlirimiz mustajob bo'lgay deya, soqol silab omin tutgach, jim bo'lib qoldilar. O'tirib Ollohga takbir aytish hamisha andak sukut taqozo etadi, ammo Sohbiqironning o'ychanliklari nechukdur to'zimsizroq tuyular edi.

- Bu kech mirzab chertmadim, Qo'buzz?
- Qaridim, davlatpanoh.
- Sendin dag'i so'rmog'chi edik: nechun abetingni tunlari talif etursen?

- Tunlari osmoni falak yaqin, davlatpanoh.

Sohibqiron horg'in jilmaydi.

- She'rni Oллоh dilingga soladur... aytgan eding. Illo, qo'y bu mavhumotni, Qo'buzz. Ani sabiyarlarga de. Ma'lumkim, faqat Qur'oni karim Oллоhdin nozil bo'lmishdur.

- Qur'oni karim ham nazmiy kalomdur, davlatpanoh. Kalom - Oллоhning irodasi. Lavhi Oллоh, aqli kull va aqli avvaldur. Illo, az vaqteki, shoir jonini asrab golding, men kalomni qilichg'a zid qo'ymadim.

- Xudo oldida shoh-u gado barobar, qolaversa, sen bizning vijdonimiz bo'lding.

- Shoirning vijdoni esa so'z, alhol, so'z - haqiqatdur, deb aytgan edim.

- Kimning haqiqati, Qo'buzz? - deb keskin so'radilar Sohibqiron.

- Haqiqatni bo'lishdan urush chiqodur.

Sohibqironning qoshlari chimirilib, qora'g'on keng yanoqlariga ajin yig'ildi. Aftidan, qalqib kelgan jahlni tiyib, aytar so'zlarini aytmadilar. Baxshi buni payqadi, o'ychan uzoq tikilishib o'tirdilar. Keyin sovlb, «Ha, qarib goldik...» deganday, boshlarini ohista sarak-sarak qildilar.

- Ayo, Ayri Qo'buzz... - dedilar Sohibqiron bosh egib o'tirganlaricha, - farosot-u bashoratingg'a tahsin ko'p aytdik, emdi... bizning qazoyimizni bashorat qilaolurmusen?

- ... Nauzanbilloh... - deb sapchib tushgan keksa baxshi nirsiz ko'zlarini katta ochib, serrayib goldi.

- Rub'i maskunga fothii muzaffar bo'lib, saltanat qurib, ismimiz Iskandari Soniy, jam'i malikul-mulkni ilgimizg'a oldik. Kimsaki, bizga yurak bermaydur, bir o'limdin g'ayri. Yer yuzida bizga bosh egmagan shu goldi. Andin bizga omon bo'lurmu, qachon bizga duch kelg'ay, ayt.

Sohibqironning qora bulutdek bosib kelgan bu xunuk kayfiyatidan astoydil cho'chigan baxshi bu dargohda ilk bor o'zini yo'qotdi.

- Bandasi mehmon... - dedi ovozi qalitrab.

- Qazoyi qadar vahdati vujudning lavhi mahfuzida, ya'ni daftari a'molida qayd etilmishdirkim, andin qutulib bo'lmaz, Sohibqiron.

- Yo'q, ayt, qachon duch kelgay? Biz bilishimiz kerak. Yeti iqlimning oshubi gardanimizda, ulgurishimiz kerak.

- Faqir avliyo emasmen, bashorat qilmam, agarchandikim, malikulmavt yuz ko'rguzsa aytib yig'lagaymen.

- Yo'q, chalg'itma, ayt, qachon?!

Yo rabi! «Kulli yavmin batardur...» Sohibqironning chehralari qorayib, ko'zlari yondi. Nahotki, moumanlik aziyatidin vos-vos bo'lib, nafsilavvomadin puschaymonlik yetib, vahimada qolg'on bo'lsalar? Alhol, yuzlarig'a so'z aytmoq ham xavfli edi. Ammo Ayri «yo'q»ga yana «yo'q» dedi. Sohibqiron vujudlarini o't olganday, o'rinlaridan turdilar.

- «Kalom» dersen, «Mehmon» dersen, dag'i «vahdati vujud...» Saroyimizda isqirt jandangi tark etmay, necha yil yurding, indamadik, so'f'yi! Ustozing Shoh Mansurning terisini shilgan edilar, yo seni ham...

Ayrining shu jandadan bo'lak yo'qotadigan shay'i yo'q, so'z esa uning sohibi edi, aytdi:

– Bu xirgani murshidim yelkam'ga yopganlar, ul zotning ramzi hollaridurkim, yechilmag'ay. So'fiylarning shayxul mashoyixi Hoja Ahmadga esa, Yassida muhtasham maqbara insho etgan sen eding, davlatpanoh. Men so'fiy emasmen, ilimim g'arib.

– Bas! Har ikki so'z aro bizni mot qilmog' dilingda iddaodur... Ko'lankang ko'rinsa o'lim yodizg'a tushar, nega aytmaydur, nega aytmaydur, deb shivirlaydur shaytoni la'in. Tunlari nag'mang halovatimizni oladur, illo... aytmaydur, aytmaydur... Sen shoir emas, shumqadamsemi!

Ayri Qo'buz angladikim, asab tarangligi tobiga yetdi, endi gap qaytarish u yonda tursin, tasalli so'zi ham kor qilmas. U so'zsiz, ta'zimkorona bosh egaroq, orqasi bilan yurib, ostonona tomon chekindi. Eshikka yetay deganda haligi tarang asab uzildi chog'i, gapni bo'lib beruvsat chiqib ketayotgan xirqapo'shni ko'rgan Sohibqironning jahl xurujiga kuchlari yetmay, «Mirg'azab!», deb yuborganlari eshitildi. Bo'lar ish bo'lgan edi. Mardud shoir shu sovuq tovushdan suringandek, shartta orqa o'g'irib saroydan chiqib ketdi.

So'nggi paytlar Sohibqironida bunday nogahoniy holatlar bo'lib turardi. Sovuq ter bosgan manglaylarini ushlab, egilib goldilar. Nima bo'ldi? Nima qilib qo'ydik? Bu dargohga beijozat kirib, beijozat chiqib ketadigan bitta-yu bitta devonayi dilovar shu edi...

Beixiyor eshikka qayrilib qaradilar. Ostonada qizil gardampo'sh yopingan, yuzi murdaday oq, lekin sogoli qop-qora mirg'azab qo'lini ko'ksiga qovushtirganicha ikki bukkilib turardi.

– Yo'qoli! – deb qattiq tovush bilan jerkidilar Sohibqiron titrab. Sharpasiz kirib kelgan jallod xuddi shunday sharpasiz g'oyib bo'ldi.

Sohibqiron beaded iztirobda to'lg'anar edilar. Xonadan xonaga shaxd bilan yurib, dar-u darichalarni lang ochtirdilar, go'yo havo yetishmas, dunyotor edi. Bunday paytda jonlariga ora kiradigan, taskin so'zini, yo haqiqat so'zini topib aytadigan, goh beozor, goh dilozor mahramlari qani? Bormidi u, yoki tushlariga indimi?

Yo'q, u hali, mumkinki, kirib keladi. Ijzatsiz, ayni mavrudida kirib keladi... Xudo xohlasai!

... Ammo Ayri Qo'buz qaytib kelmadi. Uning o'rniiga shunday xabar yetdikim, shoiri devona tun uxlamay, shu tong oldidan rihlat topibdur. Xudo rahmat qilg'ay.

Qandog'?

Shundoq. Tinch va beozor. O'z hujrasida cho'zilib yotib, gap-so'zsiz jon taslim qilibdur. tongda kirsalar, oq sogoli engagiga tarashaday tikkayib turganmish. Takya bakovulining aytishicha, marhum tuni bilan uxlamay, yuvini-poklanib, saripoy oq kiyibdi. Va aytibdiki emishkim, «Inshoolloh, tekinga qolgan bu jon ham asqotdi: ul buyuk zotni bir gunohdan asrab qolishga yaradi!», deb...

Bu xabar Sohibqironning ichlarini laxcha cho'g'iday o'trab o'tdi. Og'ir yarlardan siqtamagan, yolg'izlikda noiloj ingrab yubordilar. Sovuq edi, badanlari sovuq, ark sovuq, olam sovuq...

Hutning avvalida Chin-Mochindan yalavocho cho-par kelib, yana bir sovuq xabar yetkazdi. Qoshg'arga qulmiq qaytag'alari oralab, musulmonlarni qaqshatib talon qiliyotgan emish. Jattaning bu elati yovqur bo'ladi, nima qilmog' kerak?

Bunday savol tug'ilganda Sohbiqiron hamisha tolisi harb chorlab, musolihat qilarg'edilar. Bu gal arkoni ashruf-u umaro Shahrissabzda mashvarat qurdi: yurish kerakmi-yo'qmi?

Sohbiqiron turli fikrlarni, goh jo'shqin, goh so'lg'in nutqlarni uzoq tinglardilar-u, ammo zohiran nechukdir loqayd goldilar. Keyin Konigil tepaligida chodir qurib, Xitoy elchisini qabul qilganlarida, uning chinmiy sovg'alarini olib ra'iyaga ulashganlarida ham, ziyofat berib amirzodalarga malugona xil'at yopganlarida ham yurish xususida malum qarori qat'iyatlari bilinmadi. Nimanidir yo'qotganday, bo'shang, hamon loqayd va parishon edilar. U zotning begaror iktilanishlari amir-u sipohlar ko'nglini ham iktiga bo'ldi. Inoq bahodir Chin-Mochinga yurishning qizg'in tarafdori edikim, uning atrofiida bir sipohiy guruh jolis qilar, «Yovning yag'mosini kutmasdan saflarini buzib g'orat qilurmizi!», der edi Inoq bahodir. Qoshg'ardan kelgan chopar ko'p sergap ekan, ziyofatda kayfi oshib, lof urdikim, tushkun kayfiyatdagi sipohlarning qulog'i uning og'zida edi:

— ... Uch fil ustida temir daraxtidin bir hujra, — der edi chopar hovliqib, — andin siyosat bilan ovoz chiqaradikim: «Ey, turk, bu fillar har biri necha shahr-u kentni vayron qilg'on besh yuz yoshar jangariardur, kim muqobil bo'lsa raxtini yelkaga olur, taxti-baxtini barbod urur» deb.

Qarorgohda g'ovur tinmadi, olampanoh esa sukutda edilar....

Axiyri, Sohbiqiron lashkar-u arkoni davlat bilan O'tror mavzeyiga ko'chishga amr-farmon berdilar. Ul mavzeda yurish oldidan lashkarlarning uch oylik

ko'rigi bo'lishi lozim edi. Ammo bu safarga baribir Sohbiqironning oyoqlari tortmas, shashtari past, tunlari dillarida zafar umidini porlatguvchi Ayri Qo'buz abyoti ham yangramas edi! U zot bunday so'nug pallalarda lashkar tortib o'rganmaganlar.

Saryom shahri yaqinidan Aras soyi oqib o'tar edi. Bu yerning osmoni sokin, qishning ayoz tunlari uzun va behalovat. Bedor kechalarda Sohbiqironning quloqlariga qo'buz ohanglari kelib urilar, sayr soatlari go'yo Ayriining arvohi ta'qib etar edi: «Gunohimizdan kech, ey shoiri devona, zafarimizni karomat qilg'il...»

Shunday behalovat ayoz tunlarining birida Sohbiqiron o'rda ravoqidan horg'in yurib chiqib, sohildagi soy toshiga kelib o'tirdilar.

To'qson edi. Uzoq va ma'yus o'y surdilar, xotiralar og'ushida goldilar. Bu vaqt ulug' zotning o'g'illari Shohruh Hirotda hokim, Mironshoh to'ra Bag'dodda sulton, nabiralari Sulton Muhammad Kandahorda valiahd — barini yodladilar. Mashriqdan Mag'ribgacha hukmlari yurar, yetti yuz mo'tabar bekdodalar xizmatlarida qoyim, barini yod etdilar. Xirapo'sh, nag'makashning so'zlarini xotirladilar: «Jahongirlarga bo'yin egmadim, insonga qulliq qiladurmen...» Yo'q, Ayri, afsus, jahongirdan hayiqar eding. Shuning uchun nimanidir aytmading, nimanidir yashirib olib ketding. Nega?..

Uzoq va ma'yus o'y surdilar, Sohbiqiron. Shunda tonggi sohilning bir bodi badi muxolif kelib, tustlari tag'ayyur tepib... Falakning yuzi qoraydi...

FANO VA BAQO

«Bo'lmasa vasi! mango, ikki jahonni na qilay»

(Mashreb)

«Yozganlarim bari – hayot va o'lim haqidir»

(Edgar Po)

«Ollohning va'dasi haq. Dunyo-dun sizni
hargiz aldad qo'ymasini» (Qur'oni karimdan)

Xotin kishi bilan ish bitgandan keyin odam behafsala bo'lib qoladi. Xolxo'ja buni ilgariydan bilardi-yu, lekin bunangangisi bo'lgan emas. Haligina «Huriniso! Hurliqo!» qilib erkalagani Hurixonning basharasini ko'rgisi kelmay, uning vannadan chiqishini ham kutmasdan ko'ylagini kiyib, ketishga otlandi. Ob-havo nobop kunlar Xolxo'jaga ta'sir qilmaydi. Biroq, bugun shomdanog negadir ichi xira, bekordan bekor ezilib ketyapti. Kostumini yelkasiga tashlab, derazadan boqsa, gora tun qo'ynida nimadir bo'g'iq gumburlab... yo'q, momaqaldiroq emas, samolyot yo vertolyot ham emas, yer qa'ridan vahimali, bo'g'iq guvullash ko'tarilayotganday. Bir zumdand keyin bo'lsa, uzog-yaqinda itlar vovullab, tinchlikni buzdi. Xolxo'ja shahar joyda itning bunday chiyabo'riday xunuk ulishini eshitgan emasdi. Mash'um nishona...

Eshikka qarab yurdi. Yo'lakka chiqqanida tepasida nimadir qirsillab, ohak to'kildi. Sarg'ayibroq yonib turgan chiroqlar lipillab chayqalardi. Xolxo'ja boshi ustida beton pltaning darz ketganini ko'rib, og'zini ochib ham ulgurmay, oldinroqda shift to'sinlari qarsillab, nazarida devor ag'ganadi. Qars-qars tebranayotgan zinapoyadan o'zini pastga otdi, xuddi gugurt qutisiday mayishib yanchilayotgan beton

qavatlardan nechta orqada gildi – bilmaydi, ro'parasidagi eshik kesakisi bilan o'pirlilib, qattiq gumburdan keyin orqa-o'ngida quyug to'zon ko'tarildi. Ko'z ochib, nafas olib bo'lmas, chiroqlar o'chgan, tepadagi beton qavatlari xuddi bosib tushmoqda, na oldinga, na orqaga yo'l bor. Xolxo'ja nimagadir qoqinib-surilib, xavfsiz joy qayerda ekani ni bilmasa ham, o'zini chetroqqa olishga urinar edi. Bir joyda turishga toqati chidamay, to'zon quyunida chang yutib, qorong'ida qandaydir g'isht uyumlaridan hatlab o'tib, devorni paypasladi. Qo'li nimadandir tilinib, bilagiga issiq qon yugurganini sezdi. Sezdi-yu e'tibor bermadi, chunki bu vaqt qayerdadir g'irchillab eshik ochildi. Tepada yana ham dahshatliroq gumburlashlar eshitilardi. Xolxo'ja toyibmi, bir nimaning zarbi bilanmi, shu zahotiyoq zinadan yumalab, pastga tushib ketdi.

...Yotgan yerida lat yegan, shilingan joylarining og'rig'idan ham oldin kallasiga o'y keldi: bu mudhish zilzila edi, u esa – tirik. Lekin qayerda yotibdi? Fahmladiki, haligi g'irchillagan eshikni o'zi ochgan ekan: u yumalagan zina, bu zax joy – ko'p qavatli binoning podvali bo'lishi mumkin... Ha, yerto'la, hiddan ma'lum.

U «tirikman» dedi-yu, ammo shubhalanib qoldi. Atrof zim-ziyoy, quloqlari tom bitgan, fagat ... hiddi bilyapti, hiddi! Demak, nafas olyapti, dimoqni paxsalaydigan boyagi chang yo'q, zamin ham tinchidi chog'i. Xolxo'ja qo'l-o'yog'ini qimirlatib ko'rdi, sal zirqirasa ham, xayriyat, bari butun. Atrofni paypaslab, turib o'tirdi. Barmoqlari bilan quloq-burnini ushlab ko'rdi, shukr, u-bu sharpani eshitaypti. Lekin quloqlari zing'illar, boshi g'uwillar

edi. Keyin tushundi: jimjittikdan ekan. Haligi mudhish gumburlashlardan keyingi bu jimjittik undan battar vahimali tuyuldi... Qani endi hozir birdan uyg'onib ketas! Bordi-yu Hurning to'shagida mizg'ib qolgan bo'lsa-yu... Koshkiydi. Mana bu ko'zga turtasang ko'rinnaydigan zimistonning sassig'i - tushga o'xshamaydi, tush emas. U sho'ring qurg'urni ham hozir hoynahoy bosib qoldi-yov. Vannasida kafansiz ko'milib yotibdimi hali...

Shu zahoti necha yuzlab jon nobud bo'ldi, Xolxo'ja sen tiriksan. Sen tiriksan, Xoli Olamda shu payt ikki narsa bor: o'lig-u tirik. Uchinchi yo'q. Sen esa tiriksan, Xolxo'ja. Shu o'ylardan keyin u birdam nafas rosladi. Ammo gayerdandir yana bir nima qirilladi, guv eshitildi. Zilzila «qaytdi» shekilli. Xolxo'janing endi o'lgisi yo'q, u o'limning dahshatini boshidan kechirdi. Qutuldim deganida... endi o'limni o'ylash ming bora mudhish... U devorni paypaslab, o'rnidan turdi. Tizzalari qaltirar edi. Qorong'ida bittagina nur zarracha bo'lsa ham yorug'lik qidirib, mo'l'tirab turganida sal narida lip etib... voajabo, chiroq yondi. Xolxo'ja hushidan ketayozdi, birdan urilgan shu'ladan ko'zlarini chirt yumdi, yorug'likdan butun vujudi yayraganday bo'shashdi. Bu nima o'zi? Nima bo'ldi? Elektr chirog'i-ku! Kim yoqdi? Yo undan boshqa odam ham bormi? Xiragina qizarib, sal lipillab turgan kichkina lampaga zim-ziyo yerto'lani kunday yoritgan edi. Biron joyda sim uzilgan bo'lsa, keyingi qimirlashda o'zidan o'zi bexos ulanib qoldi chamasi. Omad-da! Xolxo'ja omadli yigit o'zi. O'ylab qarasa, omad unga bir umr soyaday ergashib yurgan ekan: soldatlikka bir yarim yosh yetmay, qirg'in urushdan chetda qoldi, ta'qib-u qamoqlardan xudo

asradi, qo'yin-chi, kasalxonaga ham tushgani yo'q-da. Baxt-u mol - dunyoning mo'may-mo'mayi gohida shundoqgina osmondan oyog'ini uzatib tushaverdi, olamda o'zidan bo'lak g'ami yo'q. Omad bu safar ham ro'parasidan chiqib qolsa, ne ajab.

U ehtiyotlik bilan devor bo'ylab yurib, bir umid ilinjida yerto'lani aylanib chiqdi, eshik-teshik degan narsa yo'q. Orqa tomon butunlay bosib yotibdi - yaqinlashish xatarli. Kirgan eshigi, yunalab tushgan zinapoyasi qayoqdan edi, aqli yetmadi. G'isht beton, tuproq o'pirilib tushgan, hammayoq gum... Xolxo'janing vahimasi oshib, havo yetmayotganday, badanidan sovuq ter chiqib ketdi: tirik ko'milgan bo'lsa-ya! Nima bo'ladi unda? Avval aqlidan ozib, jinni bo'ladi. Keyin ochlikdan, yolg'izlikdan talvasada jon berib... murdasi sasib yotadi. Bir sichqonmi - kalamush ham yugurib o'tmaydi, bu yerda... Yo'q. Nima «yo'q»? U kuchi boricha ovoz berib ko'r'di, yerto'lani yana aylanib, jon-jahdi bilan baqirib-chaqirdi. Bo'g'i q yangragan ovozni yerto'la qora go'rday o'z qo'riga yutardi. Xolxo'ja shaytonlaganday zir yugurib, devorlarga urilib, qoqinib-surinib, holdan toydi. Miyasi karaxt, hech narsa o'ylayolmay, beton devorga suyangancha uzog turdi. Yo'q... Qutqazishadi. Yerto'lada odam ko'milib qoladi-yu qutqazmaydimi... Mahalladagilar sal o'zlariga kelishsin-chi, qidirib qolishadi. Kovlashayotganda tepadan beton plitalar bosib tushmasa, bas. Ular sal ilinib, omonat turganga o'xshaydi. Xolxo'ja tepaga ko'z tashlashga botinmay, g'ujanak bo'ldi. U qo'rqishdan, vahima-yu talvasalardan toliqqan edi. Ilunagada telba bo'lib qolish mumkin. O'zingni bos, Xolxo'ja. Nafas bo'g'ilishi ham vahimadan, bu yerda

havo yetarli, ugdingmi, avval esni joyiga qo'yish kerak. Qancha vaqt o'tdi o'zi? Bir o'ylasa - necha kunlardan beri shu yerda o'tirganga o'xshaydi. «Kunlar», deganda eti jimirtab ketdi. Yo'q, yo'q, axir. Hali yarim soat ham bo'lgani yo'q. Xolxo'ja buni yaxshi biladi, qizib ketgan miyasining bir chekkasida idroki uyg'oq. Mana shuni yo'qotmaslik kerak, telbalik o'ldiradi, sovish kerak, sovuqdonlik kerak. Yarim soat emas, nazarida undan ham kam, besh-o'n minutgina... Lekin bir dunyo xayol o'tdi boshidan. Yolg'izlikda shuning o'zidan ham jinni bo'lish mumkin. Idrok dedi. Yolg'izlik-chi? Bu ikkalasining chiqishuvi qiyin yo u, yo bu yengadi.

Xolxo'ja dahshatli yolg'izlikning idrokdan ustun kelishiga ko'zi yetib turganida, allaqayodan ingragan ovoz eshitildi. Badanidagi og'riqlarni unutib, sapchib turdi, alangladi, yana qulog' soldi. Tashqaridami? Tashqarida bo'lsa, eshitilmas edi. Tuproq, g'isht ostidami? Unday bo'lsa, uni qidirib bir joyni kovlash ham xatarli. Kovlamay qulog' solib o'tirish - undan ham mudhish... Ingrash yana eshitildi. U yordamga muhtoj bir issiq jon ekanligi aniq. Xolxo'ja uyog'-buyoqqa yugurgiladi. Uni quvonch yugurtirayaptimi, vahimami - o'zi bilmadi. Burchaklarga kirdi, beton bloklari mayshib, armatura simlari chiqib, o'pirilib yotgan yon devor kovaklariga, kunjaklarga ko'z soldi. To'xtab, jimlikka qulog' tutsa, ovozidan tezroq topardi, lekin hovliqib jim turolmayapti, asablari qaqshagan, sabr-toqat tugagan, o'zining nafasidan boshqa sharpani eshitmas edi. Bunga sari o't olganday shoshib, cho'lloqlanib yuguradi, yiqiladi, yana turadi.

- Hoy, kim bor'?

Ovozim chiqmayapti shekilli, deb bir zum tinch qoluvdi, zaif ingrash yana takrorlandi. Xolxo'ja o'sha yoqqa urdi o'zini. Bu haligina o'zi kirgan eshik tomonda edi. Endi eshik yo'q. Bu yon ham o'pirilib, g'isht-u beton uyumi shiftga taqalib yotibdi. Ovoz shu yerdan keldi, bu aniq. Yana bir eshitilsa - ustidan chiqadi. Kutdi. Ingrash eshitilmadi-yu, shirirlab tuproq to'kildi. Xolxo'ja bir uchi bilan yerga qadalib qolgan balka ostiga bosh suqib qarasa, ingrash yonginasida eshitildi. Qorong'ida yarim ko'milib yotgan gavdani ko'zlari ilg'aganday bo'ldi.

- Hoy, tirikmisiz?

- ... O-o-oyog'im... - dedi haligi odam.

Tiriki! O'lib qolmasa bo'lgani. Qaysi tomondan borish kerak? Bu yerda bir nimani sal qimiratsang, bosib qolishi hech gapmas.

- Kimsiz?

U odam bir nima deb g'udrandi-yu, og'zi tuproqqa to'lganmi, tushunib bo'lmaydi. Joni uzilib qolmasa bas. O'lib qoladigan bo'lsa... hali yolg'izlik vahimasi bosayotuvdi, endi... Yoningda o'tik bilan yolg'iz qolish... O'zingni bos, Xolxo'ja. Og'ir bo'l, omaddan umid uzma. Buni qutqazish kerak. Qutqazish kerak. Bir yelkasi bilan to'sin tagiga suqilib, qo'lini uzatdi. Uning paypaslayotganini sezgan haligi odam, yana:

- O-o-yoq... - deya shivirladi siqtab.

Xolxo'ja kafti bilan uning ustidagi tuproqni sidirib tashlab, qo'l-oyog'i qayerdaligini topishga urindi. Paypaslab yuzini topdi, issiq nafasini sezdi.

- Hozir... hozir... Birpas toqat qiling. Birodar...

Bu odamning oyog'ini bosib yotgan yo'g'on xoda bir uchi bilan yerga tiralgan, bir uchi bilan tepadagi beton piltani suyab qolgan edi.

– Xodaga tegmang... oyoq... oyog'ni torting, – dedi yotgan odam. Uning ko'zi qorong'iga ko'nikib, u-bu narsani ko'rib yotganga o'xshaydi. Xolxo'ja hushyor tortib, o'zini chetga oldi. Qarasa, chindan ham xavfli: xodani qimirlatga, shift bosib tushadigan...

– Oyoq... ni, – dedi chorasiz odam qattiq og'riqdan tishini tishiga bosib. Xolxo'ja uning etigini paypaslab topib, oyog'ni xodaning ko'tarilgan tomoniga qarab surishga urindi. Tepaga qarab olib, etik poshnasidan mahkam ushladi-da, yana tortdi. Bechora jon-jahdi bilan «ya... ya... yanal» degancha tinchib qoldi. Og'riqdan hushini yo'qotdimi, nima balo? O'lib qolmasa bo'lgani. Xolxo'ja tag'in bir zo'r berib siltagan edi, u xunuk ovoz chiqarib dod soldi-yu, yana jimib qoldi. Xolxo'ja ham qimir etmay quloq solardi. Xayriyat, nafas olishi sezilyapti. Tavakkal qilib, ikkala oyog'idan torta boshladi. Uni yorug'ilikka sudrab chiqquncha vujudini qora ter bosdi. Usti-boshidan shuvillab tuproq to'kilgach, kapalak mo'ylov, o'rta yashar, naynovgina yigiting loy tekkan aft-basharasi ko'rindi. Lekin ko'zi yunmuq, yuzi ifodasiz, behush yotar edi. Xolxo'ja uning tomirini ushlab ko'rib, xunuk jilmaydi-da, yana chaqon harakatga tushdi. U o'zidan mamnun, jonlanib ketgan edi. Sho'rlikning yuz-ko'zini siypalab, ustidagi ohak kukunini qoqib tashlab, so'radi:

– Hoy, qalaysiz?

– Oyoq... – dedi yana yigit ko'zini ochmay.

Oyog'iga qaradi, etigini tortib ko'rди, lekin ikkinchi oyog'iga qo'l tegizishi bilan yigit baqirib yubordi. Xolxo'ja bo'lsa, uning faryodiga quvonganday:

– Bormisiz-e... – dedi. – Hozircha chidaysiz, birodar. Simmagan etik qo'ni saqlabdi, shukr qiling,

lekin qattiq lat yegan, chidaysizi! Shunday dedi-yu, dod solishiga qaramay, etikni sharta, yechib oldi. Yigit bir ingrab, jim bo'ldi. Xolxo'ja bir poy etikni quchoqlagancha o'tirib qoldi. Ikkalasi ham go'yo og'ir ishdan keyin dam olishar edi. Anchadan so'ng yigit ko'z ochib, shiftga, atrofga, keyin najotkoriga boqdi. Qayerda yotganini hali fahmlagani yo'q chamasi.

– Tuzukmisiz? – dedi Xolxo'ja.

– Boshim nimagadir urilib... hech nimani bilganim yo'q. Hushimga kelsam... oyoq og'riyapti. Qattiq og'riq hushimga keltirdi, chamamda.

– Hozir-chi?

– Hozir... qarang-chi, oyoq butunmi?

Xolxo'ja oyoqqa yopishib qotgan paytavani ehtiyot bilan yechib oldi-yu, qorayib-ko'kargan holdirni ushlab ko'rishga qo'rqdi.

– Bugunog chopqillab ketasiz...

– Nazarimda, qon yurdi... rahmat sizga. Qayerdamiz? Nima bo'ldi?

– Zilzila... Yomon bo'ldi. Yerto'lada qamallib yotibmiz, yuqorida nima bo'lganini bilmayman.

– Hushimga kelganimda o'zimming ham taxminim shu edi. Boshqa hech kim... biron eshik-teshik yo'qmi?

– Yo'q... Yilt etgan tuynuk ham yo'q...

– Chiroq...

– Chiroq keyin yondi, hayronman. Xullas... hozir tirik qolganimizga shukr deyishga to'g'ri keladi. Oyoq qalay?

Yigit indamadi. Ancha jim yotgandan keyin zo'r bilan sal yonboshlab, paxtaligini yechib buklab, ortasiga qo'ydi-da, devorga suyanibroq o'tirib,

momataloq bo'lib ketgan boldiriga qaradi. Oyog'ini qimirlatolmadi.

– Simgan deypsizmi? Nazarimda majqlanib ketganga o'xshaydi.

– Simgan bo'lsa hozir men bilan gaplashib o'tirarmidingiz, birodar. Og'rig'iga chidolmay, devorga tirmashardingiz, ha. Mayishib, qon uyushib qolgan, qorayib ketganini ko'rmaysizmi? Otingiz nimadi?

– Ochil, Sizniki-chi?

– Xolxo'ja. Shu uydannimisiz?

– Oltinchi qavatdan.

– Xayriyat, – devordi Xolxo'ja.

Ochil, oyog'i bilan ovora, eshitmadi. Shu uydani! Shu uydani ekan bu sho'ring qurg'ur! Hoy, buni emas, o'zingni o'limdan qutqazibsan, Xol. Buni albatta qidirishadi, yerto'lani kovlashadi! Yuragida umid uchqunladi.

– Nima dedingiz?

– Meni bu uйда hech kim bilmaydi... deyapman. Baxtsiz tasodif bilan kelib qolgandim...

Odanni o'limdan qutqazish bu qadar quvonchli bo'lishini bilmas ekan. Yaradorga yordam berish taraddudiga tushdi.

– Xizmat bo'lmasa, Xolxo'ja aka, hov sandiqni ko'rayapsizmi? Sandiq?

– Ha, ana, devorga suyab qo'yilgan.

Xolxo'ja qorong'i burchakdagi axlat tashlanadigan qopqoqli taxta qutini ko'rdi.

– O'shanda chirpit... katta shisha bor. Olib kel-sangiz.

Xolxo'ja borib qopqoqni ko'tardi. Sakkitiz litrlilik shishani topdi. «Sandiq»da yana allagan-day temir-tertsak, egri-bugri quvurlar, qog'oz qopchiq, unda

shakarni, tag'in bir nimalar bor edi. Og'ir shishani ko'ksiga bosib olib keldi, u to'la emas, tubida nimadir chayqalar edi. Ochil qo'lga olib, po'kagini ocharkan:

– Samogon, – dedi iljayib. Xolxo'ja hididan fahmlagan edi. Lekin:

– Rostdanni? – deb yana so'radi, – chag'irpazilik ham qilaman deng?

– Shu la'natini deb tushgan edim, bu qora go'rga... Nogulay jimlikni yana o'zi buzdi.

– Kuzya degan shopir og'aynim o'rgatgan. Men o'zim shopirman-da. Bu... oson, men sizga aytсам. Shakar toplisa bo'lgani, – shisha og'zini hidlab, aftini ilayrdi, – juda zakoni bo'ladi, «Stolichna»ngiz u yoqda tursin.

– Kayfi zo'rmi?

Ochil indayolmadi.

– Hozircha oyog'dan bo'lsa ham... – deb hazillashdi Xolxo'ja. Ochil «ma'qul aytdingiz» deganday bosh itg'ab qo'ydi, u ko'zini chirt yumib olgan edi. Spirt ta'sir qila boshladi chog'i, birlasdan keyin yengil tortib, sherig'iga ilaydi. Lekin bu iljayish tez so'ndi. Xolxo'ja yonida tirik odam paydo bo'lganiga quvonib ketib, hazil boshlaganidan o'zini nogulay sezdi. Bu ahvolda hazil chindan ham gustohilikka o'xshardi. Vaqtini so'rab, Ochilda ham soat yo'qligini bilgach, ko'nglini yana vahima bosdi. Qancha vaqt o'tdi, hozir tunni-kunni – ma'lum emas, taxminlab ham bo'lmas edi. Yerto'lada vahimani oshiradigan og'ir jimlik.

– Chiroqni o'chiring-chi, balki biron joyda yoritiq-mi – tuyruk bordir, – dedi Ochil, – bo'lmasligi mumkin emas. O'chiring.

Xolxo'ja hozir chiroq ham o'chsa, bu zim-ziyo jimlikka bardosh berolmasligini o'ylab, sekin chiroq

tomon yurdi. Lampani burab o'chirdi-da, qo'li kuydi, bu kichkina o't, jindakina hayot manbayi so'nib qolishi mumkinligini o'ylab, oyog'i qaltirab ketdi.

– Ochil... – dedi Xolxo'ja yuragi toshib, – bormisiz? Keyin beixtiyor chiroqni yana yoqib yubordi. – Dunyoga tuyruk bo'lmasa ham, bir-birimizni ko'rib turganimiz ma'qul, – dedi joyiga kelib o'tirarkan. Qanaqa vaziyatga tushib qolganini endi astoydil idrok etgan Ochil betoqat edi, oyog' ikkinchi masala bo'lib qoldi.

– Hammayoqni aylandingizmi?

– Ha... chor taraf – gum: tosh, beton, g'isht, tuproq...

– Menga bir tayog' topib bering.

Xolxo'ja ivirsib yurib, bitta egri quvur bo'lagini topib keldi.

– Mana, tayog'da toy kuchi bor, deganlar, haktalab yurib ketasiz.

Ochil turdi. Temirga tayanib, og'riq oyog'ini sudragancha, uzog' burchakka qarab ketdi. U endi yiqilganча aylanadi, tentiraydi. Hammayoqqa bosh uradi. Hammayoq devor. Umidning oxirgi uch kunini ham o'chirib qaytadi. Chindan shunday bo'ldi. Lekin u bo'kirib yig'lab, qaytib keldi: og'riqdanni, vahimadanni – bilish qiyin edi.

Yo'q! yo'q! O'lib ketamiz! Kovlash kerak! O'tiraveradimi o'limni kutib?!

– Kovlash – o'limning o'zi. Qayer bosadi, qayer bosmaydi – ichkaridan turib bilib bo'ladimi?

– Aniqlang, qimirlang, nimani kutaymiz? Ochilning ahvoli ayanchli edi. Bog'langan oyog'ini ham urib olganga o'xshaydi: yuzi benihoya dardli. Jim qoldilar. Birpasdan keyin Ochil zaif tovush bilan:

– Uzi... – deb qo'ydi.

Yana jim qoldilar. Anchadan keyin Xolxo'ja qarasa, sherigi uxlab qolibdi. Uyqumi, behushlikmi, ishqilib mayli, sho'rlik orom olsin. Hozir Xolxo'ja uchun u – butun bir dunyo. Shu bo'lmasa jinni bo'lib, ajaldan oldin o'lib, yerto'lada chirib ketishi aniq edi. Mana, gaplashib o'tirishibdi. Yig'ladi, jekidi, uzr so'radi, uxlayapti... Ajab, hayotda minglab, odam bilan yonna-yon yashaysan, bittasining sarig' chaqalik qadri yo'q. Boshiga tushmasa bilmas ekan bandasi. Shu o'ylar bilan o'zi ham uyquga tolganini sezmay qolibdi... Ko'z ochsa – atrof o'sha-o'sha, yarim o'pirligan shiftda sarg'ish chiroq miltillab turibdi. Ro'parasida Ochil unga tikilib o'tiribdi.

– Vaqt necha bo'ldiykin? – dedi Xolxo'ja xuddi o'zi uyida uyqudan turgandek, beg'am kerishib.

– Vaqt... Kunmi-tunmi deng.

– Vaqtni qorin ochishiga qarab bilsa bo'ladi. – Meniki nuqul o'n ikkiga borib quldiraydi, – deb hazin jilmaydi Ochil.

– Meningcha, hozir ertalab soat o'nlar bor-ov...

– Qayoqdan bildingiz?

– Men har kuni o'nda bazada nonushta qilaman...

Mana, hozir og'zim suv ochayapti.

– Magazinchimisiz, deyman?

– Oziq-ovqat bazasida mudirman.

– O... undog' bo'lsa, bu yerning taomi sizbop emas-ov...

– Mana, samagon bizbop.

– Och qorinni shilib ketadi, battar ochqaysiz. –

Siz ichmaysizmi?

– Biz shopirlar bunga o'rgansak, ajalimizdan besh

kun oldin...

- Bu yerda mashina haydamaysiz.
- Baribir, o'rganmaganman.
- Buni o'zingiz qilganmisiz, axir?
- Sotishga... Hozir bilasiz-ku, magazinlarida anqoning urug'i bo'lib ketdi, bu sabil. Mana buni...
- chirpitni chayqab qo'ydi. Ochil, - yigirma beshga olyapti shishasini.
- Quyqasini qalqitdingiz. Ha mayli, bo'tanasi qorinni ham to'yg'azadi.
- Menga qanddan ola keeling, aka.
- Xolxo'ja borib, «sandiq»dagi qog'oz xaltani ko'tarib keldi.

- Zakuskaga yaraydimi? - so'radi Xol.

- Yo'q.

- Nega, bu ham shundan bo'lgan-ku, qarindoshi bilan yig'lab ko'rishmaydimi?

- Yo'q, ko'nglingiz aynib, kecha yegan noz-ne'matlaringizni ham qayt qilib tashlaysiz.

- Bu gapingiz ham to'g'ri... - dedi Xolxo'ja, suv aralashgan sutdek oqaringqirab turgan shishaga qarab. Ichkisi kelar, xavotiri ham bor edi.

- Mayli bo'lmasa, siz kayf qiling, men qand yalayman. Tomoq tomoq emas, tomoqdan o'tgani tomoq.

U yaladi. Bu ichdi.

- ... Kayf, qand... Itmi kunini ham chiroyli gap bilan bejasa bo'ladi-ya, qarang, - dedi Xolxo'ja tomog'ini kuydirib o'tgan chag'irning qo'lansa hiddan aftini burishtirarkan.

«Itning kuni», degan so'zlar ikkalasiga ham chorasiz ahvollarini yana eslatdi. Ularni qilday umid ushlab turar, dam-badam uzoq jim qolib, tiq etgan sadoga ilhaq, tepaga qarar, quloq osar edilar.

U yerda esa, mudhish jimlik. Juda qalin qatamlar ostida ko'milib qolishgan shekilli.

- Nima bo'ldi endi, sizningcha, hozir tunmikunmi?

- Hayronman. Bori-yu kun bo'lsa, tepada biron narsa taq etardi, axir... Siz bilan bizga bu yog'i hamishalik tun bo'lmasa, deb qo'rgaman...

Ochil yalt etib qarab «yoqangga yopishsin!» devorishiga sal qoldi.

- Nafasni sovuq qilmang, aka... - dedi keyin xomush. Xolxo'janing kayfiyati unga ham ta'sir qila boshladi.

Xolxo'ja bo'lsa, o'zini qayoqqa qo'yishni bilmayapti. Kecha shishaning og'zidan ichilgan uch-to'rt qultum samogon uni ezib yuborgan edi. Xumoriga qultillatib yana ho'pladi. Ochil o'zini undan ko'ra, tadbirkorrog hisoblardi: u kam gapirib, kam harakat qilib, oz-ozdan shakar yalab, ko'proq uxlab, kuch saqlaydi. Bu yerda qancha yotishlari hali ma'lum emas. Sherigi esa, chidami tez tugab, o'zini-o'zi yeb qo'yyapti. G'azablanib, ko'p gapiradi, yana ichib qo'yadi-da, battar eziladi, tashnalikdan nolib, zang bosgan quvurlardan tomayotgan iliq suvdan ichib keladi. Ochil o'sha quvurning tagiga tunuka idish qo'yib keldi - suv yig'ilib, soviib, tinib turadi.

- Oling bundan, birodar, kayf bilan vaqt o'tganini bilmaysiz, - dedi Xolxo'ja. O'zi molday shimirib, uchib oldi. Shundan keyin yetti-sakkiz soat uxлади. Ochil bo'lsa, uning xurragini tinglab, «shift»ga qarab yetarkan, bexosdan ko'ngli buzilib, yuzini yeng'i bilan to'sib yig'ladi. Charchagach, uyquga ketdi. Uyg'onsa, barakalla-e, xurрак hali-hamon davom etardi. Uxlash albatta, yaxshi, kuch g'animat. Ammo

Ochilni borgan sari vahima bosyapti, qancha vaqt, necha kun o'tdi – ma'lum emas: yuqorida nima gap, ularni hech kim esladimi o'zi? Qidiruvchilarning sharpasi ham sezilmaydi, nahotki mana bu shoring qurg'urning sovuq gapi to'g'ri chiqib... Xolxo'ja qimirladi, bosinqirab, baqirib uyg'ondi-da, Ochilga olayib qarab, bo'kirib yig'lab yubordi. Ovozi xunuk edi. Ochil tasalliga bir nima deyolmadi. Sherigini hiqichog tutib, tinchib qoldi.

– Tuzukmisiz?

– Tushimda... bo'rilar qurshab olgannish. Tushning teskarisi bo'ladi deyishadi, ishqilib...

– Yo'q, aka, – dedi Ochil, bilag'onligi tutib, – Azroilning bir turqi – bo'ri ekan. Eshitmaganmisiz?

Xolxo'ja indamadi. Ochil ehtiyotsiz gapirib qo'yganini sezib, tilini tishlab qoldi. Keyinroq Xolxo'ja suv ichgani borganida yurishidan bilindiki, darmoni tugayapti. Suvni tunukasi bilan ko'tarib kelib, yoniga qo'ydi. Bu ishi ham to'g'ri: har safar borib kelish uchun majol kerak, shu yerda tursa, changaganda og'iz ho'llab turilaveradi. Suv yo'g'rida tayammum, degan mashoyixlar.

Kunmi-tunmi degan bahs ham tugadi. Buni endi uyqu bosishiga qarab ham aniqlab bo'lmaydi – uyqu vaqti ham chalkashib ketdi. Xolxo'ja bo'lsa, hami-sha shirakayf, uyqusirab yotgani yo'tgan. Vaqtni qorin ochishiga qarab ham aniqlab bo'lmaydi – ochlik ichni tatalab, umurtqani so'rib, tinkani quritayapti. Ovgat haqida gap ochishga jur'at yo'q, bir-birlaridan ko'zlarini olib qochishadi. Umid ipi borgan sari ingichka tortib ketayotganini sezadilar. Dildagi ro'yirost gapni aytishdan qo'rqib, soatlab g'iq etmay o'tiradilar. Sherigi yana ichib uxlab qolganida Ochil

o'zini qayovqqa qo'yishni bilmaydi. Xolxo'ja och qoringa ko'p ichyapti, bir kor-hol bo'lib qolmasa edi. Ochil anglab yetdiki, yoningda issiq jon bo'lmasa jon saqlash mushkul.

Bir safar Xolxo'ja uyg'ondi-yu, juda uzog jim yotdi.

– Aka, – dedi Ochil xavotir olib, – nimalarni o'ylayapsiz?

Xolxo'ja yana ancha o'ylaganidan keyin tilga kirdi:

– Shu... bir xayol kalladan ketmayapti. Xuddi changak solib yopishib olgan...

– Nima ekan u?

– O'zing haqingdagi yomon gapni birovlariga gapiraverma, derdilar dadam rahmatli. Bir chekkasi – bu ham to'g'ri. Yomon gapni ichingda saqlab, go'ringa olib ketganing ma'qul. Dunyoda sening to'g'ringda faqat yaxshi gap qolishi kerak. Yomondan odamlarga nima naf, to'g'rimi?

– To'g'ri.

– To'g'ri-yu, lekin hamma yomonlikka shu dunyoda o'rgandik, shu yerda ortirdik barini. Odam bolasi dunyoga sof keladi, bu yerda o'ttirgan jamiki qabihliklarini, jinoyat-u pastkashliklarini tashlab, sof ketishi kerak emasmi?

– Bu gapingiz to'g'ri. Tirikchilik – asli tirtiqchilik. U dunyoga ishonmaydi-da ko'plar. Shuning uchun qo'rqmay kirdiklorini qilaveradi. – Boqiy dunyoning borligi uning ostonasiga kelganimizdagina yodimizga tushadi. Inson uning borligiga bir umr iymon keltirsa, kaptar kelib quzg'un ketmasdi...

– Kelsa gumon – ketar iymon, degani shundan-da.

– ... o'ligimiz shu yerda qolib ketishiga ko'zim yetib qoldi, birodar.

– Unday demang, aka.

– Sizni bilmayman-u, men... Gapirishga holim bo-
rida qulog soling...

Ochil bo'shashib ketdi, oyog'ini sudrab, unga
yaqinroq siljidi. Xolxo'janing ovozi bazo'r eshiti-
lardi, nafasi tez, chindan ham...

– Aytganingizday, darhaqiqat, – deya uni chal-
gitmoqchi bo'ldi.

– Endigina mol, bilim, hunar, tajriba to'plaganing
... barini birdan... olib ketganing yomon ekan...

– Dunyo yig'ib netarsan – bir kun tashlab ke-
tarsan. Bunisi mayli, lekin gunohni olib ketma.

– Ha... Qisqa umrimizda shuncha gunoh! Ming yil
yashasak nima bo'lardikin? Dahshat!

– Yosh ekansiz – bilmaysiz: hayot o'limdan yo-
monroq. Men ne vaqtdan beri shuni o'ylab, boshim
yorilay deyapti. Hayot zararli, odam shundan o'ladi
asli. Ammo-lekin dorilbaqo... ostonasida turgan kishi
uchun fanoning o'zi ham, u tug'dirgan mudhish gu-
nohlar ham hech nima emas. Faqat ularni dunyoga
tashlab ketish kerak.

Ochil avval uni alahlayapti deb ham o'yladi. Le-
kin qarasa, gapni o'ziga yarasha mantiq bilan olib
ketyapti. Ovozi zo'rg'a eshitiladi, nafasi bo'linib-
bo'linib chiqadi-yu, lekin gapida jon bor.

– Tashlab ketib bo'lar ekanmi... – dedi Ochil, esan-
kirab.

– Bo'ladi, – dedi Xolxo'ja.

– Kingadir yorilish kerak. Yoriladiganing bo'l-
masa yomon, ichingda ketadi. Xayriyat, mana...

– To'g'ri, aka, odam odamning dardini oladi. Jon
jonga quvvat.

Xolxo'ja charchab, jimib qoldi. Ochil, o'lim oldi-
dan odam ortida qoladiganlarni o'ylasa kerak, deb

yurardi. Yo'q inson hamon o'zini o'ylarkan. Unga yo-
rilmogchi bir gunohi azim tilkalayapti ko'ksini. Shu-
ni «tashlab», «soflanib», ketmoqchi. Shundan yengil
torts, mayli lekin ulgurarmikin?

– Qandand yalang aka, darmon bo'ladi.

– Yo'q, endi foydasiz... Siz qulog tuting, – Xolxo'ja
nafas rostlab, gap boshladi. – Bir begunohni o'n besh
yilga qamatib yuborganman, birodar.

– Yopiray, qandoq?

– Yolg'on guvohlik berib. Buni men bilaman-u,
mana, endi siz bilyapsiz.

– Men bilmayman, aka, – dedi Ochil kapalagi
uchib.

– Hozir gapirib beraman. – Xolxo'ja tunukadagi
suvdan kaftiga olib, lablarini namladi. – O'n yil avval
ozig-ovqat bazasida hammol edim. Tolzordagi ma-
fazin mudiri Haydarov bilan o'sha yerda tanishgan-
man. Qo'ynimga u-bu qistirar, men uning mashina-
siga benavbat yuk ortib berardim. Keyin shu odam,
baraka topkur, qog'ozlarimni to'g'rilab, ispolkomda
uy-joy olishim uchun navbatga qo'ydi. O'zim, joyi
jannatda bo'lgur, Mastura kampirning hujrasida
iljirada turardim-da... – Xolxo'ja nafasini rostlab
olib, davom etdi: – Uch yil kutdim, to'rt yil kutdim,
navbat tegmadi. Qishloqda va'dalashgan qaylig'im
bor, Sarviniso degan... Orzularimiz ushalmadi. Re-
jalar barbod bo'lganidan alamzada bir holatda yur-
ganimda, hujramga Salim so'pog kirib keldi. Yonida
qora chopon kiygan turqi sovuq bir barzangi. Boshi
sapchadek, peshanasi do'ng. Salim so'pogni baza-
ning yerto'lasida, bir ulfatning maishatida ko'rgan
edim. U-bu buyurishgan, xizmatlarini qilganman.
So'pog bo'lsa ham g'o'daygan: boyvachcha, odamni

bir tiyinga olmaydi, u ham qaysi bir gastronomning mudiri.

– Voy-bo-o'... Shu katalakda turibsanni, kala-mush ham bordir? – dedi hujrani ko'zdan kechirib. Keyin darcha yoniga bordi-da, birdan gapni boshqa yoqqa burdi:

– Haydarovni yaxshi bilasan-a?

– Ha... – dedim.

– Uzoqdan ham, qadam olishidan tanisang kerak? Hov anovi darvozaxonaga kirib ketsa, shu darchadan turib tanisanni?

He yo'q, be yo'q, nima deyapti o'zi? Garangsib turaverdim.

– Tanيسان, tanيسان, qani beri kel-chi. – Borib, darchadan ko'chaga qaradim. – Darvozaxonani ko'ryapsanni?

– Ha.

– Haydarov shu yerga kirib ketdi deylik, albatta tanib olasan, a?

– H-ha... – deb yelkamni qisdim.

– Endi quloq sol: ertaga, kech soat oltida Haydarov kelib o'sha darvozaga kirib ketadi, – dedi u dona-dona qilib. – Sen uni «tanib» qolasan. Nima qilib yuribdi bemahalda, deb o'ylab ham qo'lasan ichingda.

– E... a... kelmasa-chi?

Hozirgacha tund, bezabon bo'lib o'tirgan qora chopon tilga kirdi:

– Kelmasa ham tanib qolasan.

Uning tovushidan vujudimga titroq yugurdi. Bu vaqt So'poq qo'ltig'imdian tutib, to'rga olib o'tdi-da, stolga bir qog'oz tashladi.

– Ol, bu senga.

Olib, ancha tikligandan keyin bildimki, uch xonalik uy-joyga order ekan. Mening nomimga yozilibdi. Endi bularning niyatiga tushunib qoldim.

– Qachongacha bu katakda o'tirasan. – Shang'il-ladi So'poq, – istasang ertagayoq ko'chib bor, shaharning qoq markazida...

– Yolg'on guvohlik...

– Nima yolg'on? Ko'rding – taniding, vassalom. Tergovchiga ham, sudga ham javob shu – bir og'iz gap, sendan boshqa hech narsa talab qilinmaydi.

– Sen xolis guvohsan, tushundingmi? – dedi qora chopon, o'rnidan turib.

– Ha, aytganday, – So'poq cho'ntagini kovladi. – Mana bu... mana bu «Gaz-24»ga chaqiruv qog'ozi. Avtomagazindan. Sening nomingga yozilgan, ko'r-dingmi? Buni suddan keyin borib olasan, – deb qog'ozni qaytib, cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Buni nima qilaman? Pulim yo'q meni.

– Bo'ladi, hammasi bo'ladi, – dedi iljayib, yelkamga qoqarkan. Jo'nab qolishdi. Faqat qora chopon kiygan barzangi ostonada turib, yana o'dag'ayladi:

– Ertaga, kech soat oltida. Ko'rding, taniding, ichingda hayron bo'lib o'ylab ham qo'yding.

U yerga qarab, kesib gapirdi. Tovushida «Endi ishimizga sheriksan, bilib qo'yl» degan tahdid bor edi. Shunday qilib, oldindan tayinlangan guvoh bo'ldim-qoldim. Qaltiroq qo'limda orderni ushlagancha karaxt bo'lib, kechgacha o'tiribman. O'sha kechasi uxlaganim yo'q. Ming xayolga bordim. Ahli rahmon bilan nafi shayton tapir-tupur olishar edi ichimda. Birri: «Darrov yirtib tashla, yov'gon oshing, beg'alva boshing, deb turibdi; biri bo'lsa: hoy, omading kelib turibdi, bola. Uch xona,

46 kvadrat metr. Sarviniso hayt desang uchib keladigan, odamga o'xshab yasha sen ham», deydi. Menga qarang, birodar, bu So'poq odam emas, odam qiyofasidagi shaytoni la'in edi, meni yo'ldan urdi o'sha kechasi, mana Xudo guvoh... – deya nochor qo'llarini yoydi Xolxo'ja sherigiga qarab. Go'yo Ochil uni hozir hamma gunohlaridan mosuvo qiladiganday.

– Ha, qizilni ko'rib Xizr yo'ldan ozgan ekan. Keyin-chi, keyin nima bo'ldi, – dedi Ochil shoshib.

– Ertasiga kechasi... o'sha darvozaxonadan o'lik chiqdi, – dedi Xolxo'ja. – Birov o'ldirib ketibdi. Qiy-chuv, milisa, «Tez yordam:», yig'i-sig'i... Men u odamni tanimas edim... Tergovda Salim so'poq tayinlagan gapni aytdim, men nomard. Haydarovni darchadan ko'rdim, dedim, soat oltida dedim. Vaqtni qayogdan bildingiz, deb so'radi. Soatga qaragan edim, dedim. Qanaqa soat deb qolsa bormi, xonumonim kuyardi. Chunki uyimda soat-poat yo'q, qartaga yutqazganman... Xudo nomardni ham asrab qolarkan, qarang.

– Bandasining o'ziga qo'yib beradi-da.

– O'zim... O'zim qildim hammasini. Omaddan rag'batlanib, sudda ham tap tortmay guvohlik berdim. Boshqa dalillar ham bor ekan, shekilli, Haydarov sho'ring qurg'ur, qotil sifatida o'n besh yilga... «O'ziga qo'yib beradi» deysiz-u, lekin... mana, o'sha begunohning qarg'ishiga uchrab o'tiribman.

– Zato u dunyolingizni yengillatdingiz menga yorilib... Xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ldi?

– Ikki oydan keyin Salim so'poqning haligi tund barzangisi mashinaning qog'ozini ham olib kelib berdi. Bir olgan madad, ikki olgan odat, buni

ham oldim. Endi nima talab qilar ekan, deb uyqum qochib yursam... yo'q, tinchib ketdi. Qaytaga, o'sha o'zim yuk tashib yurgan oziq-ovqat bazasiga mudir qilib qo'yishdi, eski mudirni bo'lsa Haydarovning o'rniga ko'tarishdi. Yog'liq joy emasmi, ko'p o'tmay mashinaga ham qurtim yetib qoldi... So'poq har ko'rganda yelkamga qoqadi: «Amerikadan nima kam joyimiz bor: u yerda lyuboy hammol prezidentlikka ko'tarilishi mumkin!» deydi kulib. Biroz dam olib, labini ho'lladi-da, uzug-yulug qilib davom etdi. Darmoni qurib borardi.

– Lekin Salim so'poqning menga hushyor bo'lib, kuzatib yurishini bilardim. Birovning qaramog'ida yashash... hech kimga nasib qilmasin. U mening mirtindan-siringacha biladi, men esa uni bilmayman: kimning xizmatida, pulni qayogdan oladi, anov sho'rlikning o'limi nega kerak edi, qotil kim... So'poq doim ko'z o'nginda, goh uzogdan ko'raman, goh ro'paramdan chiqadi. Mushuk bilan sichqonday «in-oq» bo'lib ketdik. Bir yil o'tmay, tog' etagidagi jilg'a sohilidan chorbog' ham to'g'rilab berdi, qariyb tekim.

– Chakki emas, tagingizda «Volga», suv bo'yida chorbog', uch xonali kvartir, yonginangizda Sarviniso...

– Sarvinisoni allaqachon esdan chiqarib yubor-ganmiz. Boyigan saring Sarvinisolar ko'payaverar-kan. Bu yerto'lada tiriklay ko'milib yotishim ham o'shalardan birining kasofati. Badbaxt bo'lmasam shu baloliq kunda kelamanni? Qishloqdagisining qarg'ishiga yo'lliqdim...

Xolxo'ja majoldan qoldi. Uni ovutish, chalgitish, tushkunlikka tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Ochil uchun o'lik yonida yotish... Unday desa, o'zi-ning ham sillasi qurib, qandga ko'zi tushsa oq

kafanni ko'rganday junjilib ketyapti. Shunday bo'lsa ham har zamonda ko'zini chirt yumib, yalab qo'yadi. O'lgisi yo'q.

– Kuyavermang, aka. Bu sinovdan o'tolgan odamning o'zi yo'q.

– Qanaqa sinov?

– Shu dunyoda, Xudo bandani bu dunyoga uning iymonini sinash uchun yuborar ekan. Gunoh desangiz bizda ham to'lib-toshib yotibdi. Mana yoridingiz – yengil tortdingiz. Zora xudoning qabri ham qittak yumshasa...

– Haq gap aytdingiz. Ancha yengil tortdim, qarang. Bu so'zdan so'ng Ochil ham uzoq, azobli xayolga toldi.

– Sizda nima gunoh bo'lardi, yoshsiz... – dedi Xolxo'ja yana tilga kirib. – Gunohga sho'ng'ish pallangiz endi kel... – u gapini bo'lib, ovozi pasaytirib, – bu dunyodan yosh ketgan ham ma'qul ekan.

Ochil gapning oxirini eshitmadi chog'i.

– E, unday demang, aka, yoshlikning o'zi turgan-bitgani gunoh, men sizga aytсам. Bo'lmasa men, takasaltang, xo'jayinning oyimchasini ezg'ilab yurar-midimi!

– Qanaqa xo'jayin?

– Katta xo'jayin-da.

– Siz...

– Ha, o'shani olib yuraman. Bizning viloyatimizga kelishdan oldinroq xotini qazo qilgan ekan. Ikki yil avval yigirma yashar dirkillamasiga uylandi. Jannatxon degan. To'ydan oldin ham xo'jayinni uniki, uni xo'jayinning chorbog'iga oborib-obkelib yurardim. Ketvorgan, men sizga aytсам. Odamga o'g'rincha qaraydi. To'ydan keyin, ham bozorga,

atleyga oborib yurdim. Mashina chaqirmagan kuni yo'q. «Xo'jayin, aravani yuboring» deb ertalabdan telefon qoqadi, nozanin. Bizning xo'jayin ham ovozi, «Jon» deydi-da, meni yuboradi. Bir marta men ham haddim sig'ib, xo'p bo'ladi, jon, deya hazillashib qo'yibman. Hafa bo'lish u yoqda tursin, xaxolab, quchoqlab olishiga bir bahya qoldi. Yoqdi, qarang. Men uni mashina minishga ishqiboz ekan desam, yo'q, meni ko'z ostiga olgan ekan, mo'chag'ar. Bir kuni xoli topib, kabinada chippa yopishdi. «Hoy, xo'jayindan qo'rqmaysizmi?» desam, «Xo'jayiningiz o'lsin», deb battar suykaldi. Nima deysiz, endi, yigitchilik, bo'shashdik... Bari shundan boshlandi, aka, xudo guvoh. Xotin kishi ayvor, tadbirkor bo'larkan, ikki kunning birida xoli topib keladi, kutilmagan joyda qo'lga tushiradi, kuppa-kunduzi tap tortmay ko'ksini ochadi. Xo'jayindan xavotirdaman, desam «E, qo'ying o'sha xo'jayiningizni», deb qo'l siltaydi. Men ham yo'q deyolmayman. Uch yildan beri ahvol shu. Uning noz-u ehtiroslarini ko'rsangiz, siz ham yo'q demasdingiz, aka.

Xolxo'jaga sal jon kirganday ingrab, yonboshiga ag'darildi.

– Sizning gunohingiz menikiga qaraganda holva ekan. E, gunoh emas, savob-ku bu, birodar.

– Unday demang, aka. Bizning xo'jayinni bilmay-siz. Ilgarigi xotinini rashk vajidan o'zi bo'g'ib o'ldirgan, degan mish-mishlar bor. Sezib qolsa, bormi, bunisi ham juvonmarg bo'ladi, meni bo'lsa bir kun emas bir kun «tasodifan» mashina bosib ketadi-ya. Zo'rmi tegirmon yurgizar ekan. Jonim qiling uchida turibdi, men sizga aytсам. Sirimni bita sizga aytdim...

– Boshqaga... aytmaysiz ham.

– A?

– Yengil tortdingizmi axir?

– H... ha, aytdim-qo'ydim-da endi, baribir emasmi.

Bir boshga bir o'lim. Jon bor joyda qazo bor.

– O'lim haq. Poklanib borish kerak. Parvardigorning oldiga... – dedi-yu, Xolxo'ja shliq etib chalgancha tushdi.

– Aka, aka! Sizga nima bo'ldi, mazangiz yo'qmi? Xolxo'ja indamadi. Turtklab-tortqlasa ham o'likday yotaverdi. Ochilning o'zi ham bazo'r qo'l uzatib, qolgan quyuq suvni ichib yubordi, tunuka zangi och qorini qirib o'tdi.

– Ak-ka... – deb, u ham tinchib qoldi. Anchadan keyin qulog'iga bo'g'iq bir gumburlash eshitilganday bo'ldi. Ko'zini ochib qarasa, hech gap yo'q, o'sha o'sha mash'um jimlik. Bari ochlikdan. Bunday holatda birovning ko'ziga bir nimalar ko'rinadi, birovning qulog'iga g'alati sadolar eshitiladi. Lekin Ochilning hali esi joyida. Umid bilan uzoz quloq solib yotib, ko'zi ketib qolibdi. Uyg'onganida ko'rsa, ikkalalari ham cho'zilib yotishibdi. Ochil bunga chetdan ko'rayotgan uchinchi kishiday qaradi. Vaqt o'tib, ularning o'ligini topgan odamlar mana shunday tiklilshsa kerak...

Bunday o'ylar Ochilning darmonini tamomila quritadigan. Sherigini vahima bilan, hushiga keltirdi. Xolxo'ja o'ziga keldi-yu, ko'ziga Ochil bir ko'lanka bo'lib ko'rindi shekilli, ma'nosiz boqdi.

– Menga qarang, bir nima gumburladi... Siz ham eshitingizmi? – Xolxo'ja yana indamadi, ko'zlari yumildi. U keyingi vaqtda tez-tez hushidan ketadigan odat chiqargan edi. Ochil har safar vahimaga tushadi,

loni uzilmadimi? U ketsa xuddi Ochilni ham o'zi bilan olib ketadiganday tuyulardi...

Endi ular kamdan kam gaplashadilar, so'z qotishga majol yo'q. Buning ustiga, biri o'ziga kelsa, biri behush yotgan bo'ladi. Har zamonda zaif ingrash bilan bir-birlaridan xabar oladilar. Goho esa, ikkalasi baravariga hushdan ketib, uzoz yotishadi. Qancha vaqt o'tdi, kim tirik, kim o'lik – ma'lum emas.

Xolxo'ja iliq bir to'lig'ida chayqalib uyg'ondi. Ko'zini ochib qarasa, atrof yorug'; oppoq kiyimdagi bir ayol labiga qoshiq tutyapti. Yo'q, u dunyo emas, mana, og'zida sut ta'mi sezilib tanshandi. Qayerdandir, ming'ir-ming'ir gap eshitildi. Nahot bari kechirganlari dahshatli tush bo'lsa? Ayol qoshiqni yana tutdi, shingurunchmi, manniy kashami, ishqilib sut ta'mi, biram mazali! Yana so'raganday, yutiniib tikildi ayolga.

– Shoshmang, oz-ozdan... – dedi ayol. Ovozi ham mayin.

– Ochil... – dedi negadir Xolxo'ja. Nimaga Ochil dedi bilmaydi.

– Sherigingizmi? – deb so'radi ayol, bemorning ulga kirganiga quvonib. – U kishi ham tuzuk, xavotir olmasangiz ham bo'ladi. Ancha tetik tortganidan keyin, uyidan kelib olib ketishdi.

Xolxo'ja tushundiki, bu ayol – hamshira, bu joy – shifoxona. Demak... ularni qutqazishgan, u dunyodan qaytarib olib kelishgan. Ikkinchi so'zi – «rahmat» bo'ldi. Hamshira jilmaydi. Bemor yana ko'zini yumdi. Biroq ko'p o'tmay uni boshqa hamshira uyg'ordi.

– Orom olganingiz yaxshi. Lekin ovqat yeyishingiz kerak, – dedi u ham qoshiq tutib.

Bu safargisi tovuq sho'rva edi. Ustidan dori ichirdilar. Taomlar bari shirin, mazali, ammo oz. Xolxo'ja har safar hamskira ortidan tamshanib qarab qoladi. U tez oyoqqa turti. Bemor ozib, cho'p bo'lib qolgan bo'lsa ham, ruhan tetik: tirik qolganining quvonchi endi qamradi vujudini. Boshdan kechirganini o'ylasa, aqliga sig'maydi. Birovga gapirib bersa, valloh ishonmas... Umrlining bu yog'i tekinga qolganini o'ylab, bu yerdan chiqqanida hech qanday kayf-u safo ni rad etmay, tarallabedod qilib yashash rejalarini tuzardi. Bunday kayfiyat ta'sirida tezda to'lishib, ochko'zligi ham yo'qolib, mo'l-mo'l, to'yib-to'yib ovqat yeydigan bo'lgach, unga javob berdilar.

Bazada ish ilgariqiday tiqilinch, yugur-yugur ko'p. Tarallabedod qayoqda deysiz, tirikchilik uni yana o'p'qoniga tortib ketdi. Zilziladan keyin shahar sertashvish. Ko'rganlarini gapirib tugatolmasman, eshitib hamma hayratda yogasini ushlar, meni avliyoday bilib, kelib ziyorat qilishar deb o'ylagan. Xolxo'jani hech kim tuzukroq gapga ham solmadi. Hozir shaharda unaqalar ko'p edi. U qayta kelgan dunyo ilgariqidan battar sergalva bo'lib chiqdi. Xolxo'janiq navbatdagi omadidan kelgan quvonch ham asta-sekin suvga urdi. Ish orasida Ochilni eslab qoladi. Uni topib, bir chaqhaqlashishga ham vaqt yo'q. Qalay yuribdiykin? Shofyorning «oyimcha» haqidagi gaplarini eslab, o'zicha jilmayib qo'yadi. Kunduzi eslab jilmayadi-yu, kechalari Ochilni nuqul o'sha go'rga o'xshash mudhish yerto'lada ko'radi. Bu bir alomatga o'xshar edi. O'shanday tushlardan birida bosinqirab uyg'onarkan, kallasiga kutilmagan fikr kelib urildi: axir Ochil endilikda uning mash'um sirini biladigan birdan bir odam-ku. Biror joyda

og'zidan gullab qo'ysa, nima bo'ladi? O'zingga sig'gan sir o'zgaga sig'mas, deganlar. Xolxo'ja uning chalangalla tushgan bir bechoradek his qildi o'zini. Shundan keyin tushida ham, o'ngida ham ko'z oldiga Ochil kelaverdi. Goho o'zini ovutib, «o'libdimi...» deydi-yu, yana mulohazaga tushadi. Bir tomondan, u chindan ham baxtsizlikda topishgan qadrdoni, ikkinchi tomondan... istagan vaqtda tutib berishi mumkin bo'lgan, begona sirdosh. Nega begona? Uni topish, gaplashish kerak, ahvoli, kayfiyati qalay... Axir hali bemalol gurunqlashgani yo'q, uyini ham ko'rmagan. Ochig'i - tuzukroq tanish ham emas u bilan...

Bu so'nggi fikr Xolxo'jani yana notinch qildi. Kim biladi, balki og'zi bo'sh bir maqtanchhoq mahmadonadir? Sirning og'zi enlik, el qulog'iga ellik, deganlar. Yerto'lada o'lish yo'qolishdan bo'lak gap o'tgani yo'q oralarida. Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinar. Og'ir xayollardan qiyalib o'tirganida, bir kuni Ochil o'zi yo'qlab keldi. Xolxo'ja uni zo'rg'a tanidi. Yerto'lada xonaki pijama ustidan kiyilgan isqirt paxtalikda ko'rgan edi-da. Hozir bo'lsa, egnida jilgarrang charm kurtka, mo'ylov yiltillatib taralgan, quyvuq qora sochi peshonasini bosib tushgan, og'zi qulog'ida edi, naynovning. Hukumat mashinasidan tushib, quloq yozdi, arzon atirni anqitib, qiyomati do'stday ko'rishdi. Xolxo'ja ham ko'ngildagi xavotir, shubha, vahimani o'ylarni darrov unutib, bir umrlik qadrdonday quchoqlashdi. Kulishish, eslashishdan keyin Xolxo'ja oldingi oynasi maymun, shayton, habashavachcha qiyofasidagi anvoyi tumorlar bilan bezatilgan mashinani imlab ko'rsatdi:

- Xo'jayinnikimi?

– Ha, sizniki... yuribdimi g'izillab? Bo'lmasa ko'rib beraman.

– Yo'q, tuzuk hozircha, – dedi Xolxo'ja. Shundan keyin popugi pasayib, kulmay qo'ydi. Mashinani eslashi bejizmasmikin? Ochil, yo'l-yo'lakay to'xtadim, deb shoshib turardi. Gapning bu yog'i ancha sovudi. Ko'ngillariga bir g'uluv keldimi, shuncha sarguzashtni boshidan kechirgan odamlar gaplashgani gap topolmaganday, kutilmaganda suhbatni muxtasar qilishdi.

– Ko'rishaylik axir, telefoningiz bormi?

Xolxo'ja bazaning telefon nomerini berdi. «U-bu kerak emasmi?» «Mashinaning kamchiligi bo'lsa, ayting», deya bir-birlariga manzirat qilgan bo'lishdi,

– Ko'rishaylik.

– Albatta.

Juda quyuq xayrlashgan bo'lsalar ham, asosiy mavzu chetlatib o'tilganligi, orada xatari bir chigal qolganligini ikkalalari ham sezishdi. Ayniqsa, Xolxo'janing ko'ngliga bu uchrashuv battar g'uluv soldi, unda ilon-chayonday shubhalar yana g'imirlab qoldi... Ijyayishini qara. Hayosizga har kuni hayit. Ulfati – bezori shofyorlar, piyozning po'sti ko'p, yomonning – do'sti. Kayfa gullab qo'yishi hech gapmas. O'tni tepmaydi dema, itni qopmaydi dema. Chillasi chiroq ko'rmagan bu beg'am aravakashta sir yotishi mahol. Uning mash'um soyasi endi Xolxo'jani o'y-xayollarida ham, tushlarida ham ta'qib qilaveradilar. Bu yengiltak bir joyda gullab qo'ysa – tamom... Uy-joy, mashinasi, chorbog'i, bazasi – bular bari qora go'rga. Haydarovning o'rniga oborib tiqishlari ham hech gapmas. Qamoqda chiriydi. Turma desa sochini tomirigacha muzlab,

hadiksirab yurgan Xolxo'jaga bu – o'limdan battar, undan ko'ra, o'sha yerto'lada ko'milib ketgani ma'qul edi. Yo'q, u o'limning og'zidan qaytib keldi, hayoti qayta boshlandi, yana sho'ng'ishga to'g'ri keladi gunohlarga, jinoyatlarga. Yashash o'zi shunaga... bir dard ekan. Odam asli mana shundan o'ladi... Birovning qaramog'ida yashash peshanamda bor ekan, deb nolir edi. Endi bo'lsa uni xuddi Azroil quvlab yurganday, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi, asablari, qaqshagan, uyqusida halovat yo'q. Bazadagi ola-g'ovur janjalli mashmashalar ham uni chalg'itilmadi. Har zamonda qorong'i burchakda o'tirib, ikki qo'li bilan peshanasini sigar, kechalari tanini sharros ter bosib uyg'onib ketar, cho'michlab sovuq suv ichar edi. Uning mudhish siri qora jinoyati yuribdi, odamlar orasida.

Tasodifan... yo'q, uning ochilmay qolishi tasodif bo'lardi. Endi omadga ishonish qiyin. Ozodlikka chiqqan u sir sovun ko'pigiday yer ustida omonat uchib yurarkan, Xolxo'jaga kun yo'q. Xurmachadan chiqqan bu jinni Xolning o'zidan bo'lak hech kim daf qilolmaydi. Qismat o'z qo'lida. Shunday xayollarga bordi-yu, nima demogchi, nima qilmogchi – o'zi bilmaydi. Doimiy xavfsirash, mash'um g'uluv, asabiylik xayollarining tiniqishiga yo'l qo'ymayapti. Aslida uni o'z xo'jayining qo'li bilan daf qilsa ham bo'lardiku-ya. Borib chaqsa, ya'ni shofyoringiz undog'-mundog'.. O'lguday rashkchi berahm degan edi... Lekin bunday qasdma-qasdigacha ketse, u ham jim turmaydi, Xolxo'janing jinoyati og'irroq, yutqazadi. So'ng'ra, o'z xotinini eplolmagan u hez «xo'jayin»ning bir narsa qila olishiga ishonib bo'ladimi? Yo, aksincha... u bilan oradan qil o'tmaydigan do'st tutish

ham mumkin. Yaqin olib, o'zini aka, echkisini taka deb... Lekin qachongacha? Oqbooshdan o'tin bo'lmas, o'ynashdan xotin, deganday, bir kun emas bir kun baribir... Bir umr ko'z o'ngida balo-yu qazo, hadlik bilan yashagan odam og'rimay o'lar ekan. Pesning chekiga moxov tushsa, shunday bo'ladi. Kunlardan bir kun Ochil o'zi telefonga chaqirib qoldi.

– Yo'q bo'lib ketdingiz-ku! – dedi u. Ovozi baland, kayfi chog' edi. – Yuraverasizmi bazangizda, kalamushday ivirsib? Ertaga dam olish kuni dovonga chiqaylik. O'sha yerdagi restoranda oshnam bor, gimiz topib beradi. Okey? Bir ishrat qilaylik, onasini... bu yog'i tekinga qolgan-ku!

Xolxo'ja bu kayfiyatga moslashmay, «bo'pti», deb qo'yagoldi. Uning uchun dovonda, dam olish kuni degandan boshqa gaplar ma'nosiz edi, qulog'iga kirmadi. Dovonda... o'zi chaqirib qolgani chakki bo'lmadi, hali omad Xolni tark etmaydigan o'xshaydi. Hali rejasi yo'q, ammo Ochilning hovliqma tovushi qulog'ida yangrar edi. Shang'illamay o'l, tirik qolishini bilsam, men ahmoq, seni o'limdan qutqararmidim? Bu yurishing uchun mendan qarzdorsan. Qarzni olish ham, berish ham... gunoh emas. Ko'cha xandon, xona giyyon bo'lib qoldi, Xolxo'ja. Kechasi uyqusi qochib, miyasi qizib ketadi. To'xta-chi, kalamushday ivirsib, dedimi? Haziling yogangdan olgur. Nimaga «kalamush?» U o'rnidan turib o'tirdi. G'uvullagan boshini kaftlari orasiga oldi. To'xta, Xol, hovliqma. Shoshgan ishga shayton oralaydi. Kalamush... o'z og'zidan chiqdi. Buni Xolxo'ja o'ylab topgani yo'q. Uning o'rnida bo'lsa, har qanday kishi... Xolxo'ja qilmogchi bo'lgan ishidan ham ko'ra o'zini oqlashni o'ylar, tasalli

qildirar edi. Ochil ham jim turmas, axir. Bostirib bormasang – bosilib ketasan. Shosha-pisha kiyinib, boradigan joyini hali o'zi ham bilmay, tashqariga chiqdi. Tong qorong'usi, olashovur yomg'ir yog'ar edi. Ishxonasi tomon yurdi. Odatdagi yo'li, lekin hozir – bemahalda uni bir qutqu yetaklab borar edi. Bazaning darvozasini ochib, oziq-ovqat saqlanadigan yerto'laga tushdi. Tun bo'yi dimlangan achimsiq va xush islar, omixta, unga tanish muhit... Ammo u kiribq kursiga o'tirdi, sekin yurib kelgan bo'lsa ham nafasi tez edi. Nima qilyapti o'zi?.. «Ha, olmogning bermog'i bor, yemogning – qusmog'i...»

Baribir, og'riq tishning davosi – ombur». Yana bir nimalarni shivirladi-yu, turib zax burchakka bordi. Bu yerda kalamushlarni yo'qotish uchun saqlab qo'yilgan kuchalami, margimushmi bor edi. Shisha bankada, og'zi mahkam bog'liq kichkina sellofan xaltachalar, har birida bir chindim bir chindimdan kumushrang kukun... Xolxo'ja karaxt bir holatda, titroq qo'li bilan birini oldida, qorong'ida atrofga o'g'rincha alanglab qo'yib, cho'ntagiga tiqdi... Dovon manzarasi so'lim... Atrofni qurshagan qorli tog'lar durbindagiday yaqin ko'rinadi, yonbag'irlarda o'sgan yakkam-dukkam archalarni bir-bir sanasa bo'ladi. Osmon dengizday tiniq, zangori rangda, havo siyrak, nafas yengil. Tansiqboyev mashhur suratlarini shu yerda o'tirib chizgan bo'lsamkin... Restoran uchun joy tanlagan odamga ham qoyil qolish kerak. Ana, Ochil undan o'z uyidan chiqqanday tiriyib chiqib keldi. Go'yo u bilan birga chiqib kelganday, taom hidi aralash xushbo'y tutun chulg'andi. So'rildan narida o'choq, doshqozonlar. Qo'rada ko'mir bilan saksovul qo'r

olgan edi. Ko'rishishgach, Ochl mehmonni restoran ichkarisidagi xosxonalardan biriga boshladi.

– Aytib qo'yay, ichmaymiz, ruldaman, – dedi Xolxo'ja.

– Ha, afsus... Ichsak, o'zimmikidan olib kelardim-u...

– Qo'ying, quyqa chag'iringizni ko'rgani ko'zim yo'q, shunday shirin havo turib... qarang, kayf qilyapti! Ana, kaboblar ham yurishibdi, – dedi Xolxo'ja yonbag'irlarda oq bulutday siljiyotgan qo'y podalariga ko'z tashlab.

– Ha, asli tandir kabobga urinish kerak ekan-u...

Ana, archa ham ko'p... Lekin jig'ar qovuradigan bo'ldik, tansiqroq, qarshi emasimiz? Qimiz bilan dodlab ko'rishadi.

– Nimasini aytasiz! Dasturxon tuzaldi. Ochilning tanishi ikki grafinda qimiz, kosalar keltirib qo'ydi. Derazadan tog' manzarasi ko'rinish turar, ilhomboxsh joy edi... «Omon qolganimizga!» dedi Ochl kosalariga qimiz ko'pirtirib quyarkan. Ikki kosa ichishgandan keyin jig'ar kabobning hidi ishtahalarini qitqilay boshladi.

– Qimiz yaxshi pishibdi, – dedi Xolxo'ja, – kelgusi safar bizning chorbog'da o'tirishamiz. Manzarasi bundan qolishmaydi. U domlaring nima bo'ldi?

– Avariyni bo'lib yotibdi. Buzib tashlaydi shekilli. Bizlarga yaxshi joy bergan, ko'rsataman, endi qiyomatimiz-ku. Oling.

Yer tagida yotgan kunlarini negadir xotirlashmadi. «Yodingizdami», «Esingizdadir...» qilib bir ikki boshlashdi-yu, qimizning kayfi me'yorida edi shekilli, uncha «ichkari»ga kirishmadi. Gunoh-u tavbatazartlarga «yaqinlashganlari» ham yo'q. Ikkalasi ham, qayvoqdagi gaplardan nari o'tishmadi. Kabob

kelganida esa, qimizbop xamir ovqatlar, ziraning hidi-hidsiz turlari, saksovulning nega tutunsiz yonishi singari ahamiyatsiz mavzulardagi quralash gap u yoqdan kirib bu yoqdan chiqib turdi. Grafilar yana to'ldirib kelindi, sovigan sixlar yangilandi. Bir vaqt, yangi kabob dastasi kelganda Ochl sharta o'rnidan turib, deraza tomonga baqirdi:

– Hoy, xom-ku, bu! – dedi so'kinib. Keyin kabob sixlarini dastasi bilan ko'tarib chiqib ketdi. Xolxo'ja «kayfi oshibdi» degan o'y bilan jilmayib, orqasidan qarab qoldi. Xuddi shu payt Ochilning lim to'la kosasiga ko'zi tushib, badani jimirlab ketdi.

... Borgan sari xavfli bo'ladi bu – ilon yuz yil yashasa ajdaho bo'larkan... Hozir chiqib ketganini o'zining navbatdagi omadi deb bilgan Xolxo'ja bo'shashdi-da, tashqaridagi mashmashaga bir zum quloq tutgach, sellofan tugunchadagini qimizga atalab tashladi. Saqlansang saqlanasan, saqlanmasang o'tga qoqlanasan... Ochl ancha hayallab, keyin isqirt xalati kabobpaz bilan birga kerilib kirib keldi. Choy-non, shakaro, qimiz, boshqa ne'matlar sochilib yotgan dasturxonga xushbo'y taratib issiq kabob keldi.

– Mana bu boshqa gap! – dedi Ochl qaynoq ilgardan olib. Kabobpaz bo'sh sixlarni yig'ishtirib chiqib ketganidan keyin, Xolxo'jaga ko'zi tushdi. – Ha? Rangingiz o'chgan? Havo elitgan sizni, havosi zo'r-da! Qarshi oling, chorasi shu. Oldidagi qimizni dast ko'tarib, og'zini artidi-yu ovqatga urdi o'zini. – Bu yerning havosiga o'rganish kerak. Balandlik-da. Havo siyrak. Lekin foydali.

– Yo'q... manga bo'lmadi, – dedi Xolxo'ja, – maza qochyapti. Uning ogargan rangiga qarab, Ochl ishonadi. Chindan ham yoqmad bu xunasaga, jo'nasa

tezroq jo'natib qo'yagolish kerak, quyosh ham og'di. Ular turdilar. Ochi mehmonni mashinagacha kuzatib chiqdi.

– Ehtiyot bo'ling, yo'l qiya. Yana uchrashamiz, xudo xohlasa.

– Rahmat, yaxshi o'tirlik, – dedi Xolxo'ja, eshikni ochib. «Endi Azroil bilan uchrashasan», dedi ichida. Tezroq jo'nab qolish kerak edi, gaz berdi. Salim so'pog'ning tortig'i zo'r chiqdi, necha vaqtdan beri pand bermay, g'izillatib yuribdi, mana. Cho', jonivor! Bekordan bekorga vujudi muzlab, qo'li qaltirab ketayotgan Xolxo'ja bu dovoni tezroq unutishga, o'ziga dalda berishga urinar edi. Cho', jonivor! «Gaz-24» birpasda archali qoyaga yetib keldi, bu yog'iga yo'l keskin pastlab ketar edi. Uning qo'llari hamon qaltiraydi. Miyasida ham xuddi qovog'ari g'uj'on o'ynaydi... Qizi... qanchada ta'sir qilarkin? Keyinroq... Kalamushni kuchala yegan joyidan ancha nariga borib tirishib qolganini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Xolxo'ja ikki barmog'i bilan peshanasini siqib, boshini siltab tashladi: shularni o'ylamaslikning iloji yo'qmikin? Iloji... Iloji... bu... bu qanaqasi? Tormoz bo'shab qoptimi? Tormozning pedali xuddi singan qo'liday shilq-shilq borib-kelar, ushlamas edi. Bu nimasi, haligina... Mashina qiyalikdan g'izillab ketib borardi. Tezlik 160 ga yetdi. Xolxo'janing qaltirog'i ham tindi, butun es-hushi, asablari, vujudi bir tugunga tugilganday, o'y-xayoli – omon qolishi Chapda tikka qoyatosh, o'ng yoq – jarlik. Ro'paradan tepaga chiqib kelayotgan mashinalarning biri «hurkib» o'zini chetga olar, ba'zilar qo'rqanidan faralarini yoqib, uzun signal berib qolishar edi. Tezlik ko'rsatkichi qizil chiziqdan o'tdi. Xolxo'ja ko'zini yo'ldan olishga

qo'rqar edi. Bu ketishda qayerga borib uriladi... urilish... yo'q, portlab kul bo'ladi. Ajabo, bu holatda miyasi ham xuddi uchib ketayotgan mashinaday ishlab turibdi. Xayoliga bir fikr keldi: bu ablah Ochilning ishi! Dovonga atay chaqirishi ham bejiz emas. Hali bahona topib tashqariga chiqib ketganida... ancha hayallab qolganidan ko'ngliga bir shubha oralovdi-ya... Ha, iflos. To'xtab tur, o'zing ham uzoqqa bormay, tarashaday qotasani!

Mashina nishabga qarab o'qday uchib borar, Xolxo'ja endi taqdirga tan berib, o'zini yo'qota boshlagan edi. Shalabbo ter bosdi, bo'shashdi, nima qilishini bilmaydi. Ochil gazandaga o'xshash tajribali shofyor bo'lganida-ku, bir chorasini topardi. Qo'lidan darmon ketdi. Ro'paradan yana mashinalar chiqib kelyapti. Yonidan lip-lip o'tishadi. Shofyorlar vahimada nimalarnidir baqirib qolishadi. Biri mashinasini orqaga qaytardi, shekilli. Xolxo'ja ko'zguda unga qarayman deb, yo'ldagi chog'roqgina toshni ko'rmay qoldi. Tosh yetib kelayotgan mashinaning orqa g'ildiragini jindak ko'tarishi bilan... kabina shiftiga boshi bilan urilgan Xolxo'janing zehni mashinaning charxpalak bo'lib jarga uchgani chaqnadi-yu, so'ndi. Shundan keyin uchish ham, tarq-turuq urilishlar ham yo'q, hamma narsa shunday sekinladiki... Xolxo'janing o'zi ham havoda soyaday asta suzib borib, tubsiz qorong'ilikda go'yo erib, g'oyib bo'ldi. U hushiga kelishi bilan aqli tinqib, hamma voqealar birdaniga ko'z o'ngidan o'tdi: dovon, Ochil, tormoz, uchib ketayotgan mashinaning charxpalak bo'lib jarga ag'darilishi... Ammo ko'zini ochsa – zim-ziyo. Tun, qoq yarim tun... Yo tun emas, ko'zdan qoldimi?

Unday desa, ko'zi emas, qaytaga boshi... Boshi qulog'i aralash butunlay chirmab tashlangan, yod hidi anqib turibdi. Xolxo'ja kasalxonada yotganini bu gal darhol tushundi. Demak, yana tirik. Lekin oyoq-qo'lini qimirlatishga yurak dov bermasdi: kesib tashlagan bo'lsa-ya. Barmoqlarini asta qimirlatib ko'rди, ammo oyoq... Bosh ko'tarib qarashga yurak betlamadi.

Eshik g'iyq etib, xonaga qiya shu'la tushdi. Hamshira kirib, derazaning og'ir pardalarini surib qo'ydi.

– Ha, qahramon! – dedi u. Ovozi yoqintoy ekan.

– Qachon... olib kelishdi?

– O'tgan kuni. – Kampir ko'rpa-yostiqni chaqon-chaqon tuzatib, uyq-buyoqni yig'ishtirarkan, o'z bolasiga gapirayotganday yalnardi: – Endi ketib qolmagin, bolam. Mana joying yaxshi, qo'shnilaring beozor. Kecha ikki marta hushingga kelding-u, odam tanimasdan yana... Mana, hozir ovqatlaniraman, dori beraman. Katta do'xir keladi. Mana bu matolaringni boshqatdan bog'laydi. Bilaman, og'riydi, bir baqirasan, ikki baqirasan, keyin tuzalib ketasan-da, bolam. Ko'p ko'rganmiz, bizga ham oson tutma, bari mana shu ichkilik tushmagurning kasofatidan... Xudoyim-ey, yosh-yosh bolalar...

Kampir mehribon-u, juda ezma ekan. Uning gapiga qaraganda, Xolxo'janing qonidan ham alkogol asari topilbdi, shundan keyin, albatta, mashinasini tekshirishmagan ham. Xolxo'ja kampirning bu xabarini eshitgandan keyin, boshqa javrashlariga quloq solmay qo'ydi. Obbo, Ochil maraz-ey, shu joyda ham Xolxo'jadan ayyorroq chiqdi: maydagachy chuydagacha hisobga olibdi. Lekin qora niyati bilan

ketdi – undan nari. Itning tilagi qabul bo'lganda osmondan suyak yog'ardi. Iti Yotdan yorug'lik, itdan – chorug'lik chiqmas. Seni o'limdan qutqazgan kim edi, iti Ko'r bo'l – noshukr bo'lmai!

Xolxo'ja sog'ayib chiqib ketishga astoydil qasd qildi. Endi Ochil yo'q (uning ko'p o'tmay kalamushday tirishib qotganiga amin), jin ko'zachaga qayta gamaldi. Shuning uchun u og'riqlarga tishini tishga bosib chidash berdi. Tushlarida o'zini qiyalab uchib ketayotgan mashinada ko'rib, baqirib uyg'onar, yarasini bexos urib olib, uzoz siqtanar, azobli mujallalardan keyin orom topib uzoz uxlar, kechalari taxtakachga tortib osib qo'yilgan oyog'iga qarab xayol surardi: mana, endi yashaydi u! Shu vaqtgacha o'tgan betayin umr umrmi? Endi uni ta'qib qilib, orqasidan yuradigan o'lim ko'lankasi yo'q, ichidagi sir ichida, uni sirtga chiqaradigan ahmoq Xolxo'ja o'ldi. Avariya o'ldi. Yerto'lada ko'milib ketdi. Bu yotgan butunlay boshqa, dorilbaqoning ostonasidan ikki marta qaytib, es-hushini yig'ib olgan odam bu, ha. Bunday kayfiyat uning tezroq tuzalib ketishiga yordam berdi, albatta. Ikki hafta deganda unga qo'ltiqtoy berdilar. Hamshira kampirning «qahramon-qahramon» deb erkalashlari ham dalda bo'lib, hakkalagancha yo'lakka, hatto hovliga ham chiqadigan bo'ldi. Kasalxona katta. Daraxtzor hovlini qurshab olgan korpuslarning har biri o'z nomi bilan: Xolxo'ja yotgan joy ortopediya bo'limi deb ataladi, ro'parada – kardiologiya, o'ngda – neurologiya, hov narigi sarg'ish korpus – toksikologiya bo'limi. Asfalt yo'lkalarning ikki yonida gulzorlar, yashil o'rindiqdar, qisqasi, bemorlar uchun so'lim sayrgoh.

Bugun Xolxo'ja shu yo'lkalardan birida qo'ltiqta-yoq bilan yurishni mashq qilib ketayotsa, za'faron-day sarg'ish o'sha korpus tomondan bukchayganroq, rangi zahil bir odam yaqinlashib kelaverdi. Orada yetti-sakkiz qadam qolganda dovulga duch kelganday sekinladi, surrang pijama yengini ko'ziga soyabon qildi. Xolxo'ja ham to'xtab, tayog'iga suyanib qoldi. Bir xil bemorlik jomasi kiygan bu ikki kishi, ikki shumshuk – it-mushuk, bu dunyoda bir-birlarini ko'rmaslik uchun qolgan umrlarini berishga tayyor edilar. Oldinga bir qadam qo'ymay, tikilib qolishdi. Uzoq, juda uzoq tikilishdi. «Yo' rab, sen ham qaytdingmi, sen ham tirikmisan?» degan xitob bor edi ikkalasining ham ko'zlarida. «Bo'lmasa, yerto'ladagi gapni ovoza qilishni endi ko'r!» der edi ikkalasi ham ichida. Va hamon tikilishar edi.

Ha, u ham tirik, bu ham tirik. Endi, to oxiratcha ular bir-birlarini ta'qib qiladilar. Yana oldinda umr, yana hayot, yana gunoh, yana jinoyatlar... Azobli yo'lni baribir bosib o'tish kerak. Fanoda ham, Bagoda ham. Xudovand bir insonga ikki dunyoni berib qo'yibdi. Ammo iymonni boy berganga ikkalasi ham harom ekan...

CHODIRXAYOL

Bu yerda hamisha shovullab tuproq to'kilib turadi. Tepalik o'yilgan joyda tikka devordan, belkurag-u ketmondan, sho'r bosgan yelkalardan, cho'kich zarbidan, kajava zambillardan shittirlab to'kilar. Bu shovullash o'n besh-yigirma yil naridan kelayotgan day, bo'g'i, doim bir maromda allalab eshitiladi.

Tepalik o'yilib, qo'raday katta kovak hosil bo'lgan, ichi nimqorong'i, hurmat taxtasining tepasida yonib turgan ikitagina lampochka bilan sal yorishib turibdi. Bu yerda ish tabiatning injiqliklariga qaramay, qor-u qirov, sel-u jalada ham, sovuqda ham, issiqda ham tinmay davom etadi, tuproq to'kiliadigan jargacha so'qma yo'l yaxshi shibbalangan, o'sha yerdan tepalikka qovjiroq shung'iya-yu shilvi, buj'un cho'kirtaklari chirmashib yotgan sirti bemaol ko'rinadi.

Islayotganlarning biri eng ichkarida, orqa devordan tuproqni metin bilan o'yib berib turibdi. U o'rta bo'yli, qorachadan kelgan baquvat odam, har zarbidan rosa yarim zambil tuproq to'kiliadi, ko'zlari timqoraligidan g'ira-shirada ham yiltillab ko'rinadi. Ikkinchisi tuproqni bel bilan zambil kajavasiga tashlab turibdi. Yorug'lik orqadan tushgani uchun, mlyonagina tiqmachoq gavdasi chodirxayolning qo'g'irchoq soyasidek lipillab ko'rinadi, yaqiniga borgan odam qoracho'g'larida ishga astoydil ixlosning o'tini payqaydi.

Ular o'zi yetti kishi, ikitasi, ya'ni uchinchi va to'rtinchisi zambilda. Bular aka-uka bo'lsa kerakmi, bir-biriga juda o'xshash: qorachadan kelgan yuzlari ham, pishiq-puxta jussalari ham quyib-qo'yganday. Bir-birlarini ko'z qarashlaridan tushunishadi. Qoracho'g' yilt etdimi – «ko'tar!» degani, bilinar-bilimasim qoqdimi – «ag'dar!» degani. Tuproq to'kiliadigan joyga mokiday qatnab, so'qma yo'lni shular shibhalagan. Beshinchisi yorug'roqda, kiraverishdagi eski yozuv stoli yonida... ha, darvoqe, to'xtangchi, yaxshisi bunisini oltinchi deya'lik. Chunki u... Beshinchisi esa ketmonda. U boshqalardan shu

bilan ham ajralib turadi, o'yilgan g'orning yerini qirib tekisladi, tuproqdan, dumalagan tosh-u kesaklardan tozalaydi. O'zi keksaroq bo'lsa ham, hali baquvvat, girdig'um gavdasiga chog' ketmon obdan yarashib turibdi. Endi oltinchisiga kelaylik. U, aytganimizday, eski yozuv stoli yonida (stol ustida chang-g'ubor qo'ngan telefon apparati ham bor) taxtaday koyib turadi. Ko'zi qandayligi ma'lum emas, chunki u ko'zoynak taqadi. Qoracha yuzida odamga lop etib ko'rinadigan narsa shu ko'zoynak. Lekin u boshqalardan bu biangina farq qilmaydi. Farqi yana shundaki, avvalo, hali aytganimizday, stol yonida qotib turadi, shunga bog'lab qo'yilganday. So'ngira ishlamaydi. Bir zamonlar, yoshligida, mana bu «Hurmat taxtasi»ni tashkil etib, uni hamma ko'zlarining suratlari bilan, g'orning peshtoqini esa, shior bilan bezab qo'yg'an. Endilikda shularning ta'sirini kuzatib, qimir etmas miyasini ishlatib turibdi.



Yettinchi kishi, qo'lida ketmoni bilan, keyinroq yetib keldi. Uning bo'yi past ham emas, baland ham emas. O'zi ketmon bilan quchoqlashib tug'ilganday yumaloq. Tepalikning orga tomonidan chiqib kelib, pastga yumalab tushganday birdan paydo bo'ldi.

– Ha, shu yerni kovlash kerak ekanmi? – deb so'radi kelasolb. – Nega kovlash kerak ekan?

– Hokim To'rayevich aytganlar! – dedi Ikkinchi.

– Ha unday bo'lsa... – deb kaftiga tufladi-da, barini beliga qistirib, ishga tushdi. Endi unga shu yerni kovlash kerak ekanligi ham, nega kovlash kerakligi ham ayon edi. Oftobda qoraygan peshonasiga sharros ter qalqidi.

Lekin unda yana savol tug'ildi. U boshqalardan mana shu o'rinsiz savollari bilan ajralib turardi.



– Ana u kishi nimaga ishlamayapti? – dedi u yozuv stoli yonida taxtaday qotib turgan Oltinchiga ishora qilib. Uning bu qadar sersavolligiga ham hayron bo'lib, ham g'ashi kelib turgan Birinchi ishdan bosh ko'tarmay to'ng'illadi:

– Tepadagi shiorni o'qimadingmi?

– O'qish kerakmi? – deb so'radi Yettinchi.

– Yana savol beradi-ya. Muncha savoli ko'p ekan? Keyin shiorni o'qidi: «Qo'shimcha majburiyati muddatidan oldin bajaramiz!» Uning ovozi eshitgach, qizil alvondagi bezaklar birdan jonlanib ketgandan, hamma anqayib tepaga qaradi.


– Ana endi tushundingmi? – dedi Birinchi Yettinchiga. Keyin qotib turgan Oltinchiga ishora qildi:

– U ana shuni g'oyaviy jihatdan ta'minlaydi.

Aftidan, Birinchi ko'p narsani bilar, shiorni ham o'qigan ekan shekilli-yu, kamtar ekan-da. Tarbiya ko'rgan odam kamtar bo'lishi kerak. Katta odamlar bor, kichkina odamlar bor. Kichkina, kamtar odam hargiz o'z xayollariga izn beravermasligi kerak. Hadeb savol ham beraverma, dedi o'ziga o'zi Yettinchi.

Shu bilan gap-so'z tinib qoldi, astoydil mehnat qilishga shart-sharoit tug'ildi. Tuproq shovullaydi. Betnim, bir maromda, hamma yerda tuproq shovullaydi. Telefonli stol yonida turgan Oltinchining xayoliga «Mehnat poeziyasi!» degan tanish so'z birkimasi keladi, qoracha yuzlari yorishadi. Shunday jumlikda g'ayritabiiy bir shitirlash eshitiladi. Ikki marta eshitildi. Savol beraverish naqadar noqulay bo'lsa ham, Yettinchi o'zini tiyolmadi:

– Bu, deyman, juda ichkariga o'yib kirib ketdik-ku, tepamiz o'pirilib bosib qolmasmikin?



– Bosmaydi. Bosmaydi deyishgan, – dedi Uchinchi bilan To'rtinchi barobariga bo'sh zambilni yerga qo'yib.

– Ha unday bo'lsa... – deya, xotirjam bo'lib kajaivaga tuproq tashlay boshladi Yettinchi. Tepalikning bosib qolmasligiga endi ishonchi komil edi, qoracha manglayidan mehnat terini sidirib tashladi. Lekin birpasdan keyin haligi shittirash yana eshitildi. Ilhomdaxsh mehnat jarayonida bunga kim ham e'tibor berardi. Xiyol o'tib, kiraverishda tepadan top etib ikkita kesak tushdi. Kesaklar ushalib, sochilib ketdi. Top etgan tovushga qayrilib qarashgan ham ediki xuddi o'sha joyda tepadan gup etib lo'mbazday tuproq o'pirilib tushdi. Chang to'zg'ib, tashqari ko'rinnay qoldi, yana allanimalar gursilladi. Zimistonday qorong'ida changdan nafasi qaytgan odamlar jon holatda avval uyog'-buyoqqa yugurishib, keyin gursillash-u shovullashlardan qu-loqlari ham bitgach, bir-birlaridan najot istagan-day qo'l ushlab o'rtalig'ida guj bo'lib qoldilar. Dahshatli gursa-gursalar tinganda ham, quloqlariga ishonmay, bir-birlarini qo'yib yuborishdan qo'r-qandek, tirik jon taftidan umid uzolmasdan shu holatda uzog turib qoldilar. Hech narsa eshitilmas, hech narsa ko'rinnas, u dunyodami – bu dunyodami ekanliklarini bilolmaganday garangsib, qimir etgani jur'at topolmay turaverdilar. Anchadan keyingina quyug to'zon asta bosilib, avval yon devorda «Hurmat taxtasi» tepasidagi ikki chiroq xiragina bo'lib ko'rindi. Odamlar o'z nafaslarini eshitib, bir-birlarining changga belangan aft-angorlarini ko'rdilar. Hammaga go'yo qaytadan jon kirdi, tirik ekanliklariga quvondilar, ko'zlari ham asta-sekin

qorong'iga o'rganib, o'rab olgan qora devorlarni ilg'ay boshladilar. Chor atrof kur-u gungurs edi. Yugura borib devorlarni bir-bir ushlab, itarib, tepib ko'rdilar. Ilgari ochiq turgan tomon ham butunlay bosib qolgan, ular tiriklay ko'milgan edilar.

– E... endi... nima qilamiz? – dedi Yettinchi. Bu cheksiz jimglikda qora devorlardan titroq aks sado bergan birinchi jur'ati tovush edi. U ham bo'lsa – savol. Shu holatda ham savol beradi. Yettinchi o'zi biron jo'yali fikr taklif qilolmaydi-yu, savol tashlagani tashlagan. Ammo shu birinchi sado hammamni hushiga keltirdi. Qimirlab qoldilar, kimdir ust-boshini qoqdi. Kimdir sal o'ziga kelib, zambig'altakka o'tirdi, yana kimdir og'zidagi loyni tuflab tashladi...

– Nima qilardik... Hech kim topshiriqni bekor qilgani yo'q, har qanday ob-havo... toes har qanday sharoitda...

– O'zi qaysi tomoni qaziyotuvdik? – dedi bu vahimali zim-ziyoda boshi aylanib qolgan Ikkinchi.

– Mana bu tomoni... – Beshinchi qoqila-surila orqa devor tomonga yurdi. – Mana bu yoq ochiq edi. Mana bu «Hurmat taxtasi» – yon devor, demakki... – U gapidan to'xtab qoldi.

«Hurmat taxtasi» yonida Oltinchi ishga tushgan edi. U «Hurmat taxtasi»ni maxsus latta bilan artib, unga Yettinchining ham suratini osib ulguribdi. O'zi taxtada hamma bor, fagat bita joy bo'sh qolgan edi. Endi qarabsizki, taxta ochilib ketibdi, xuddi shundan siqilib turgan ekanmi... Chiroyli! Chiroqlar ham uning tepasida. G'orni yoritib turgan chiroqlarni, ilg'orlarni – Oltinching yuzida mana shu zavqli va hayratomuz xitob portlar edi. U ommaning kayfiyatini ajoyib tezkorlik bilan payqaydi. Tuproq tagida

qolgan shiorni ham yangidan yozib osishi kerak. Stol tortnasidan tish poroshogini olib, ishga tushdi.

– Tuproq tashiydigan yo'l beklilib qolibdku-u... – deb barobar gap boshlashdi Uchinchi va To'rtinchi! Lekin Oltinchi ishini g'oyaviy jihatdan ta'minlash uchun jon chekayotgan og'ir sharoitda ortiqcha obyektiv vajh-u karsonga jim quloq solardi. Aka-ukalar tarbiya ko'rgan odamlarga xos odob bilan, jim bo'lishdi. Ammo savoling boshingdan qolgur Yettinchining isyonkorligini tiyib bo'ladimi! U savol bersa bo'lgani, kimga savol beriyapti – o'zigami, birovigami, javob oladimi – yo'qmi, bu bilan ishi yo'q, ichini bo'shatib oladi shekilli-da. Yana so'radi:

– Axir, avval bu qora go'rdan qanday chiqib qutulishni o'ylamaymizmi?

– Buni o'ylaydiganlar bor, akasi, – dedi barini beliga qistirib, ketmonni qo'lliga olgan Beshinchi. Hozir uning ishi ko'p – hamma joyda shiftan tushgan kesaklar sochilib yotibdi. – Tepada sendan katta odamlar o'tirishibdi. O'ylashadi.

– Sizning gapingiz ham gap, – dedi Yettinchi, – biz kichkina odamlarniz. Endi hamma o'z ishiga kiritishgan edi hamki, stoldagi telefon chang-g'uborni to'zg'itib, jiringlab qoldi. Yaqinroqda turgan Oltinchi trubkani oldi.

– Ahvol qalay? – degan ovoz eshitildi.

– Ahvol yomon emas...

Trubkadan kelayotgan ovoz, shubhasiz, Hokim To'rayevichniki edi. Hamma jim bo'ldi. Biroq telefon simlari shikast yegan ekanmi, qancha nafas yutib quloq solishmasin, baribir uyog'ini yaxshi eshiti-sholmadi. Lekin Oltinchi topshiriqni yaxshi uqgan edi, ommaga yetkazdi.

– Hokim To'rayevich, avvalo, qora ko'zlarga mening salomimni yetkazing, dedilar.

– Ana, aytmadimmi, o'ylaydigan kattalarimiz bor, akasi, – dedi Beshinchi kipriklarini qo'lqopi bilan artib.

– Ha, o'ylashyapti, – davom etdi Oltinchi. – G'or-dagilarni qutqarishni o'yladik, dedilar. Ammo biz tashqaridan qaziylik desak bu xavfli ekan, tepalik-ning biror joyi butunlay bosib qolishi bor. Shuning uchun topshiriq bunday: «O'zlaringiz sharoitga qarab ehtiyot bilan mustaqil harakat qilinglar», dedilar.

Topshiriqni olgandan keyin hamma erkin, chuqur nafas olib, xotirjam bo'ldi. Xuddi qora yer qa'rining zim-ziyo tutqinligidan bir mo'jiza bilan qutulib, birdan yorug'likka chiqqanday, yayrab o'tirib qoldilar. Hokim To'rayevichning ovozidan eribroq o'tirgan Birinchi Yettinchiga qaradi:

– Hammamiz uchun hurmati Hokim To'rayevich dono odam-da, topganini qarang: «Qora ko'zlar!» Muomala deb buni aytadi. Qarang, hech kimni boshqalardan ajratib ham atamaydi, hech kimni xafa ham qilmaydi. Hammaga yoqimli – «qora ko'zlar!» Shu kengligi ommaga ma'qul-da kattamizning.

– Zo'r, zo'r. Gapga jubbo kiydiradilar.

– Hech-da. Chunonchi, mana seni oting bilan aytib, alohida atasa, sen hoviqligib, bir qarich o'sib, yana, xudo saqlasin, ochilib ketib, hamma yoqni savolga to'ldirib tashlaringiz! Shunday emasmi?

– Shunday. – «Qora ko'zlar» deganda esa hamma bir qolipdan chiqqanday bab-baravar. Hech kim hovliqmaydi ham, kamsitilmaydi ham.

– Ha. – Yettinchi «ha» dedi-yu, lekin yana savol-parastligi tutib, o'rnidan turib ketdi.

– Hay, birodarlar, aytgancha, bu mustaqil harakat qilinglar, degani qanaga bo'ladi?

– O'zlaring bilib yo'lini topinglar deganidir-da.

– O'zimiz qayoqdan bilamiz, ko'rsatma bo'lmadi-ku? – Yettinchi «savolchi»ligiga o'rganib, bunga parvo qilmay qo'ygan odamlar bu safar hushyor tortishdi. Chindan ham, o'z bilgicha ish qilish mumkin ekanmi, bunisi qanaga bo'ladi?

– Telefon qilish kerak, aytishini! – dedi Ikkinchi.

– Telefon qilib bo'lar ekanmi. Telefon bir tomonlama-ku.

– Qanday «bir tomonlama»? – dedi Yettinchi.

– U tomondan gapirib bo'ladi, bu tomondan – yo'q. Uqdingmi?

– Qanday? – dedi. Sira tinchimadi bu «savolchi». Go'yo faqat u hamma narsani billishi kerak. Darrov bila qolishi kerak. Birinchi unga yana tushuntirib qo'yishga majbur bo'ldi:

– Menga qara, telefon ikki tomonlama ishlasa, tartib bo'ladimi! Sen telefon qilsang, men telefon qilsam, sen bilan menga o'xshaganlar nechta? Hokim To'rayevich bo'lsa...

«Nima qilamiz bo'lmasa?» – bu savol hammaning ham ko'nglida bor edi. Bu «savolparast» podani bulg'atdi, shekilli-da. Birinchi marta bunday bezovta bo'lishlari. Rubiy bezovtalik yomon ekan, halovat qochdi. Bu qiynoqdan ko'ra, tepallikni o'sha ko'rsatilgan joydan qaziyvergan osonroq edi. Kovlayverilsa bir joydan chiqiladi-ku, axir.

– Biz yangi ko'rsatma oldik, demakki, eskisi bekor bo'ldi. Yangi ko'rsatma shundan iboratki, mustaqil harakat qilish kerak, – dedi Oltinchi qog'o-ziga qarab qiroat bilan.

– Bu avvalgisidan mushkulroq, albatta. Ammo shunday bo'lishi qonuniy. Chunki toshpiriqlar tobora og'irlashib bormasa, olg'a qarab siljish bo'lmaydi.

– Bir joydan kovlab, teshib chiqish kerak. Havo kirsin, yo'l ochilsin.

– Unday ko'rsatma bo'lgan emas...

– Qaysi tomonni kovlaymiz?

– Ha mana, o'pirilib tushgan tomonni. Yo'l o'sha yoqda.

– U tomonni kovlashga kim ko'rsatma beradi?

– Bo'lmasa bir boshliq saylaymiz. O'sha nima desa – shu.

– Yo'g'e... – dedi Birinchi qo'rqib. – Tepada boshlig'imiz turib, yana birovni saylash uni tan olmaslikka o'xshab ketmaydimi?

– Kichkina... Kichkinagina bir boshliqcha saylaymiz-da. Bizga bo'laveradi.

– Kimni?

– Mana, sizni, masalan, – deyishdi aka-ukalar.

Birinchi mo'yi tikka bo'lib, sapchib tushdi.

– Meni?... Seni kim tayinladi, desa... Yo'q, tarbiya ko'rgan odammiz, o'zboshimchalik bo'ladi. Avvalo, yuqoridan menga ishonch bildirilishi... – u bir tomonlama telefonga mung'ayib qarab qo'ydi.

– Yo'q, birodarlar, – dedi Ikkinchi, – saylovi nima-si. Har kim o'ziga boshliq saylab olaversa... Topshiriqning har bir so'zini diqqat bilan eshitdinglar: «Ehtiyot bilan» degan joyi bor. Bu donolik bilan aytilgan. Ehtiyot bo'lmasa, mustaqillikning mana shunday xavfli tomonlari bor.

– Juda mushkul narsa ekan-da... – dedi Beshinchi ketmonini suyab o'tirarkan. Keyin u bo'xhasidan

non, mayiz, talqon olib, qiyiqchasini yerga yozdi. Buni ko'rib boshqalar ham ochiqqanini sezi chog'i, biri belbog'dan, biri to'rxatadan u bu olib o'rtaga to'kdi. Tortishuvlardan charchaganliklari ham endi bilindi. Shuncha tepalikni o'yib, shuncha tuproq tashib munchalik charchamagan edilar. Chindan ham mushkul ekan... U bu tamaddi qilgandan keyin, a'zoyi badanlari bo'shashib, uyqu tortib tursa ham, xotirjam bo'lolmas, behalovat edilar. Oziq-ovqatning hidini oldimi, poygak tomonga kalamush yugurib o'tdi.

– Huv, padaringga la'nat! – dedi ishtahasi qochib, ko'ngli betinch bo'lib o'tirgan Yetinchi. Endi uning savoli ham qolmagan edi. To'g'irrog'i – bir-biriga mingashgan chigal-chirmov savollar uni yenggan, darmonini quritgan edi. U ham endi loqayd bo'lib qoldi, ko'pga kelgan to'y, boshqalarga nima bo'lsa, unga ham shu-da.

– To'xta, to'xta! – dedi Ikkinchi shu mahal hovliqib.

Aka-uka Uchinchi-To'rtinchilarning «dasturxon» qilib yoygan ko'k qog'ozini tortib oldi. Undagi piyola yumalab, ikki hovuch jiyda, turshak, yana allanimalar sochilib ketdi. Aka-ukalarning og'zi ochilib qoldi. Ikkinchi qo'lidagi ko'k qog'ozga tikilgan edi. Qog'oz g'ijimlanib, yirtilib ketgan, cheti ho'l, bir burchagi butunlay yo'q.

– Menga qaranglar! Mana bu... Axir bu... – Hamma unga qarab engashdi. Ikkinchi g'ira-shira qog'ozdagi katta harflarni hijjalab o'qishga harakat qilardi.

– Ins... Ins...

– Insi-jinsi? Voy-dodi!

– O'zingni bos, xursandchilik-ku qaytaga... «Ins... instr...» Buyog'i sal yirtilibdi, attang», – dedi. Ikkinchi qog'ozning yirtilgan, buklangan joyini barmog'i bilan tekislab, o'qidi: – «Instr – ukuksiya» Instruksiya! – A? – dedi aka-uka barobariga, hamma oldidagi taomini unutgan edi. – Instruksiya?

– Ha-da. Manal Instruksiya topildi, birodarlari! – dedi Ikkinchi atrofiida charaqlagan qora ko'zlarga tikilib. O'zi ham xazina topganday, o'limga mahkum etilgan do'stlarining najotkoriday baxtiyor edi, ochilib ketdi: – Madaniy jamiyatda yashaymiz, azizlar. Bunday jamiyatda inson hech qanday vaziyatda ham yo'l-yo'riqsiz qolmaydi!

Instruksiya – bamisoli mushkuli kushod. To'liqgan vujudlarga halovat qaytib keldi. Ovqat, charchoq, ruhiy xotirjamlik, bu omad hammamni elitdi. Kechadan beri uxlamagan odamlar g'am-tashvishdan arib, oyoqlarini bemalol uzatdilar, a'zoyi badanlari rohatdan halimday bo'shashib, uyquga toldilar. Endi miriqib orom olsa ham bo'ladi, aha, yaxshilab hordiq chiqarish kerak, ertaga aniq, tayinli ishlar turibdi. Qayoqdadir kalamush shitirlayapti. Shitirlasa shitirlayversin... Ertasiga nonushtadan keyin hamma bel bog'lab, yeng shimarib bo'lganida Ikkinchi chiroq tagiga borib «Instruksiya»ni o'qiy boshladi. Hamma tilovat somedek jim o'tirardi.

– «Instruksiya» – deb o'qidi Ikkinchi, – «Birlamchi modda. Massani...»

– Massani?

– Ha, ommamni degani. «Massani harorat selsiya bo'yicha – 5° dan past bo'lmagan salqin joyda saqlash kerak».

– Ha salqin joyda.

– «Ikki lamchi...» buni si yirtilibdi. «To'rt lamchi modda. O'ylab bo'lgandan keyin... qo'llarni albatta, yuvib tashlash kerak»

– Yuvdik, yuvdik!

– To'xtanglar! – dedi aka-ukalardan biri, To'rtinchi – To'xtanglar, birodarlar... bu... «o'ylab» emas, «o'ynab», «o'ynab bo'lgandan keyin» ya'ni, kichkina o'g'lim qo'g'irchoq-odam yasayman deb xarxasha qilaverganidan, plastelin olib berib edim, bu o'shaning qog'ozl... Non o'rab kelgan ekanman, birodarlar!

Yuzlaridagi shu'la o'chdi. Bekorga xursand bo'lishgan ekan. «Aldanib qolgon yomon», deb bekorga aytmaydi ashulachi. Kechagi tashvishli, so'g'in holat yana qaytib keldi. Hatto Yetinchi ham biron savol topolmadi. Ikkinchi «Instruksiya»ni jahl bilan tashlab yuborgan ekan. Beshinchi uni asta olib, avaylab taxladi-da, ichki cho'ntagiga solib qo'ydi. Nima bo'lsa ham instruksiya, axir. Hurmat qilishi kerak tarbiya ko'rgan odam... Jimjitlik eza boshladi. Yalang yerga kechagiday g'uj bo'lib o'tirib qolishgan edi. Qayerdadir yana kalamush shitirlagani eshitildi. Har zamonda stoldagi telefonga qarab qo'nishadi – ko'rsatma bo'lib qolar degan ilini, sira o'lmaydigan umid bor-da...

Jimlik quloqlarda zingillab, sabr-bardoshni egovlaydi. Shu yerda dimiqib o'lib ketasizlar desa ham... ishqilib, biron bir ko'rsatmacha bo'lsa... Tavba, astag'firullo, shunday o'yg'a kelganlar ham bo'ldi-da. Axir odamni ham o'z-o'ziga qo'yib beradimil!

Bir payt bir chinqiriqdan sukut darz ketdi.

– Anuni qaranglar!

Mizg'ib o'tirganlarning quti o'chdi. Chinqirgan aka-ukalarning biri – Uchinchi edi. Uning alohida

ovozini endi eshitishadi, ovoz o'tkir ekan. Hamma u ko'rsatgan poyguk tomonga qaratdi, o'sha yerdan kichkinagina bir nuqtia yorug'lik qorong'i g'orni teshib kirgan edi. Inglehka shu'la, bir chindimgina nur ichkari tomondagi ko'r devorga o'qday qadalib turibdi.

– Yorug'lik! Yorug'lik! – deb qichqirishdi.

– Kalamush teshibdi! Kalamush!

Birinchi shu nafs nur tasmasidan sehlrlangan-day, asta o'sha tomon yurib, devor yonida to'xtadi. O'ylab turib, etigi bilan bir tepgan edi, ikki zambill tuproq o'pirlilib, shovullab tushdi-da, odam bo'yi toshik ochilib ketdi. Kun kiritib kelganday bo'ldi g'orga. Jo'ra-jamoat shovqin suron bilan o'sha tomon oshiqdi. Birinchi tashqariga qaradi:

– Og'izlaringdan gullab qo'ymlaring, kalamush yo'l ko'rsatdi deb! Kattamizning ori kelib, bizni noto'g'ri tushunib o'tirmasin!...

MEN HAYOTNI O'RGANAMAN

*Donbasslik yorug'chi do'stim tomonidan
Golovninga bog'labladim*

Ilk bo'sa, birinchi muhabbat, deydi. Bilasizmi, birinchi kitob degan gap ham bor. U ham nazarimda shular qatori.

Birinchi kitobim chiqqan kunlar yodimda. Xuddi shirakayf bo'lib yuradi odam. Atrof go'zal, hammaga yoqimtoysiz, qizlar ham faqat sizga qarayotgandek bo'ladi. Umrimda ashula aytmagan odam, o'sha kuni «Yallama-yorim»ni vang qo'yib yuborganimni o'zim ham bilmay qolibman. Hayot muncha shirin! Bundan buyon hamma yaxshi narsalar, butun dunyo ham,

shon-shuhrat ham, kelajak ham, go'yo bari - meniki. Tog'ni talqon qiladiganman. Mendan kuchli, mendan baxtli, mendan chiroyli odam yo'q...

Birinchi kitobdan keyin hovliqib ketadigan yoshlarga hayron bo'lmasa ham bo'ladi. Bu hech gap emas ekan. Meni bu falokatdan bir voqea qutqazib qolgan.

Bosar-tusarimni bilmay yurgan kunlarim deng. Ertabahor edi, shekilli. Nordon, xom olmani g'archilatlub tishlab, gazeta redaksiyasidan chiqayotsam, Hamdam qora duch kelib qoldi.

Hamdam qora eski oshnam, konda ishlaydi, gazeta topshirig'i bilan Oltintopganga borib yurib, u bilan qalin bo'lib qolganman. U chindan ham qopqora. Buning ustiga, cho'tir. Bir qarashda, xuddi cho'tiriga kon g'ubori o'tirib qolgan-u tuzukroq yuvsa ketadigandek. Aslida esa unday emas, aslida o'zi shunaga, ko'kimtir qora. Xunukligi yetmagandek, oshnam yana o'lgunday dag'al. Ichida gapi bo'lsa, yuzingda ko'zing bormi demay, ayrib solaveradi.

Mana shu odam kuldek sovurdi-da, mening quvonchlarimni. Bir og'iz gapi bilan hafsalam pir bo'lib, shalviradim-qoldim.

- O'qidim, bo'lmaydi kitobing, - desa bo'ladi dabdurustdan. Yuzing loy sachragandek ko'zimni pirtirib tikilib turdim-u, nima deysini bilmay, «he, sen nimani tushunasan», deb shartta qayrilib ketmoqchi edim, bilagimdan oldi. Qo'polning panjasi ham shunaga qo'polki, og'riqdan jahlni ham unutayozibman.

- Nima deysan, nimaga bo'lmaydi! - dedim. Aftimga qarab rahmi keldimi, o'z qo'polligini sezdimi, yer chizib sekinroq gapirdi.

- Bo'lmaydi-da, yoqmadi... nima desam ekan...
- Kitob o'qiysanmi o'zing? - men baland kela boshladim.

- O'qib turaman. Buni bo'lsa, sening ismingni ko'rib, olgan kunim kechasioq o'qib chiqdim.

Menga qayta jon kirdi: o'qibdi-ku, o'sha kechasioq qo'ldan qo'ymay o'qib chiqibdi. Yana nima kerak bu to'poriga? Ocherklarim muharrirga yoqqan, tanqidchiga yoqqan.

- Xo'sh, - dedim bo'sh kelmay, bepisandroq, teskari qarab.

- Shu-da. Xafa bo'lma. Silliq, ura-ura - olam guiston, balandparvoz gaplar. Konchilar unaga emas, sen ularni bilmayсан.

Hang-mang bo'lib qoldim.

- Nimasini bilishim kerak?

- Hech bo'lmasa biron... fazilatini, xulq-atvorini.

Bu g'alati xalq, sen bilmayсан.

- Sen bilasanmi?

- Bilaman.

- Bo'lmasa, o'zing yoz.

- Qani endi sendek yozishni bilsam, - deb birinchi marta kulib qaradi u. Kulsa, butun xunukligi qayoq-qadir yo'q bo'ladi-qoladi oshnamning. Haytovur, tan olyapti-ku. Shundan keyin mening ham jahlim sal bosilib, uzog o'ylab qoldim. Shu xilda gap-so'zsiz xyobongacha boribmiz ham, skameykaga o'tiribmiz ham, bilmayman. Xayolimda Hamdam qoraning gapi: konchilar... G'alati xalq. Fazilati, xulq-atvori... Bizning jurnalistlar bir-birining nuqsonini bu xilda yuziga solmaydi. Bu qora bo'lsa... To'satdan kallamga bir filr keldi. Hamdamning cho'tir yuziga qaradim: yo shu yuz-xotir qilmaslikning o'zi ham bir fazilatmikan-a?

– Nima qil deysan? – endi aslimga kelib, maslahat so'rab qoldim.

– Bilmadim, – dedi Hamdam qora, – boshqatdan yoz, yordam beraylik.

– Yo'q, yordamning kerak emas, hali ham... – «rahmat» deyishga bo'ynim yor bermadi, – men o'zim borib o'rganaman o'sha g'alati xalqingni.

– Borib o'rganib bo'lmaydi, ular bilan birga yashashning, iloji bo'lsa, biroq ishlashing kerak.

– Konchi bo'lib-a? – hunarim yo'q deyish o'rninga panjalarimni yoydim.

– O'rgatamiz. Mana, mening brigadanga a'zo bo'lasan-u, ishlay berasan, bir oy, qancha kerak bo'lsa.

Men o'zim ham kutmagan joyda negadir quvonib ketdim.

– Rostdanni? Brigadanga olasanmi?

Bu kuchli, tanish odam himoyasida men chindan ham ishlashim, konchilar hayoti bilan istagancha tanishishim, keyin esa yangi katta kitob ham yozishim mumkin edi. Bularning hammasi birdan ko'z oldimga kelib, o'rnimdan turib ketdim. Qarasam, Hamdam qora katta qo'pol panjasini yoyib, menga qo'l uzatib turibdi. Qars etib kaftiga urdim.

Hamdam xuddi shuni kutib turgan ekan, ish pishgandan keyin jo'nab qoldi. Shu payt mening xayolimga bir shubha keldi:

– Menga qara, bo'lmaydi, – to'xtatdim uni. – Konchilarning mening yozish niyatini bilisa... menga qara, bunday yo'l bilan ularni o'rganib bo'lmaydi.
– Yozuvchi ekaningni aytmaymiz-da, – dedi Hamdam.

– Kim deb tanishtirasan bo'lmasa?

– Ha toparmiz axir, boraver-chi, – dedi-da, shosh-gancha qo'l silkitib, jo'nab qoldi.

Tahririyatdan ikki oylik ijodiy otpuska olib, ikki kundan keyin yetib borsam, Hamdam meni kadrlar bo'limida allaqachon rasmiylashtirib ham qo'ygan ekan. Brigadaning ishga chiqadigan payti yetaklab olib ketdi. Qarasam, shaxtaning lifti oldidagi maydonchada yigirmatacha yigit brigadirni kutib turibdi.

– Mana, o'rtoqlar, brigadamizga yangi a'zo, ishga o'rgatasizlar, – deb Hamdam mening yelkamdand turt-di. Yigitar menga boshdan oyog tikilishdi.

– O'zi kim, qayerda ishlagan ekan? – degan ovozlar chiqdi.

Hamdam o'ylab o'tirmay iljaydi-da:

– Magazinda ishlagan ekan, jindek ayb qilib qo'yibdi, mehnatda o'zini oqlamoqchi! – dedi.

Gapni qarang. Yolg'on-ku – baribir yolg'on, boshqa yolg'on qurib ketganimdi, a? Odamni sharmanda qildi-ku! Hamdam qora bu fantaziyani ilgariidan o'ylab qo'yganimdi, hozir kallasiga keldimi, ishqilib, rosa qovun tushirdi. Mening butun ko'rgiliklarim mana shundan boshlandi.

Tuppa-tuzuk iljayib turgan yigitar qandalaga qaraganday bir jirkanib mendan ko'zlarini olishdi, go'yo men yo'q, ko'rmay qo'yishdi. Faqat ba'zilarigina zaharxanda, ta'na aralash gap tashlashardi.

– Ha, magazinda jindek o'margan ekanlar-da...

– Bizning konimiz turma emas edi-ku, brigadir?! O'zinni qayoqqa qo'yishni bilmayman, «yolg'on» desam ish buziladi. Ko'zinni yerdan olmay, chidashga qaror qildim; kulgi, haqorat davom etardi:

– Hunari ko'p ekan-ku, yana buni nimaga o'rga-tamiz?

– Sinchaloq bilan tarozi pallasini bosish emas, ishlash kerak bu yerda, chidarmikan?

– Konni o‘marib ketmasin tag‘in.

– Jimi – deb baqirdi Hamdam qora. Shu bir gapi bilan chindan ham jim bo‘lishdi. Obro‘si bor ekan. Lekin, endi menga hech kim qaramas edi.

– Oti nima ekan? – dedi suyagi buzug‘ yo‘g‘on bir sarig‘ yigit endi bosiqroq gapirib.

– Yo‘ldosh, – dedi Hamdam.

Haligi yo‘g‘on yigit g‘azab bilan beton piltaga tuf-ladi. Boshqalari xaxolab kulib yuborishdi.

Men otimni boshqa qo‘yaman, – dedi haligi sarig‘ jirkaniib. Tushundimki, uning ham oti Yo‘ldosh ekan, or qilyapti.

– Otingni boshqa qo‘yishga shoshma, – dedi brigadir, – mana bugundan boshlab adashingni yoningga olib, ish o‘rgat, keyin bir gap bo‘lar.

Yo‘ldosh beo‘xshov gavdasini chetga olib, bir nimalar deb norozi g‘udrandi. Lekin, ko‘rinib turibdiki, brigadirning buyrug‘i qonun edi. Jimlik cho‘kkanda, men yana aynanch ahvolda goldim. Boshlariga kaska, oyoqlariga qo‘pol etik, brezent korjoma kiygan bu proxodchiklar oldida men shumshaygan, kichkina, himoyasiz ko‘rinar edim. Xo‘rligim kelib ketdi. Yer yorilsa, yerga kirib ketar edim, deb tursam, haqiqatan ham yer yorildi – tikka proxodkaning eshigi ochilib, qorong‘i qa‘ridan guvullagancha lift chiqib keldi. Kimdir oyog‘im tagiga kaska bilan brezent kitel tashladi. Tezda kiyib, hamma qatori liftga kirarkanman, vujudimni qutsiz bir vahm qamradi. Temir liftning suroni, atrofigda odamlarning g‘ovuri, qahqahasi eshitilib turmasa, yer qa‘rining zax sovug‘i yurakni uvishtirib, odamning

vahimada dod solib yuborishi ham hech gap emas. Shuv etib pastga tushib ketdik.

Bir joyda eshik ochilib, Yo‘ldosh meni turtadi, qizil chiroq yonib turgan maydonga chiqdik, lift yana o‘z yo‘lida pastlab ketdi. Bizning ish joyimiz chakki tomib turgan tikka zaboy edi. «Bunisi – pnevmatik yukchi, bunisi – badya, bunisi – osma nasos» deb Yo‘ldosh hafsalasi kelmayroq menga bir nimalarni ko‘rsatdi-yu, uqgan bo‘lsam o‘lay agar. Men bu «g‘or»da o‘zinning ruhiy holatim bilan band edim, nafas yetmayotganga o‘xshardi. Bu o‘ylayvergandan shunaga ekan. Keyin ish ko‘payib ketgach, bu hissiyot yo‘qoldi. Bizning ishimiz – vaqtincha istehkomlarni olib tashlab, doimysini qurish uchun beton qabul qilish edi. Lekin smena boshidayoq ishkal chiqdi, opalubka teshilib, beton sizib chiga boshladi. Har to‘rt minutda tepadan tushadigan beton to‘la badyani qabul qilish bilan bir vaqtda opalubkani tuzatish mushkul edi. Nima qilish kerak? Yo‘ldoshning yo‘g‘on bo‘ynidan sharros ter to‘kildi, bu ishkalni u mendan ko‘rardi shekilli: birinchi kundani qadamim yoqmadi.

Teshilgan opalubkaning oralig‘iga qaradik: qorong‘i, zax o‘pqon.

– Tushi! – deb baqirdi Yo‘ldosh. Men garang bo‘ldim, bu jahannam qudug‘iga tushib bo‘ladimi? Tepadan badya kelib qolsa-chi? Yo meni kalaka qilyaptimi? Lekin, Yo‘ldoshning ko‘zida g‘azab, yana baqirdi:

– Tush deyaman!

Men bu tor oraliqqa odam tushishi mumkinligiga hamon ishonmasdim.

– Qo‘rg‘aysanmi? O‘g‘rilik qilishdan qo‘rqmagan-misan? Tushi!

Bu gaplarni eshitishdan jahannam qo'riga tashlagan yaxshi. Mening ham izzat-nafsim bor, axir. Shartta tushib ketdim, nima bo'lsa bo'lar. Bu tor oraliqqa haqiqatan ham Yo'ldosh semiz o'zi tusholmas edi. Oyog'im tegishi bilan suyuq beton etigimni sug'ura boshladi, yelkamdan zanglagan suv oqib turibdi, aylanib bo'lmaydi. Opalubkaning qayrilgan temirini o'rniga qo'yishim kerak, oraga tosh tiqilib qolgan. Tirnoq qayrildi shekilli, kaftimga bir nima iliq tegdi, ko'rib bo'lmaydi, qorong'i. Hali hech narsa ham qilolganim yo'q edi, tepada qizil badya ko'rindi, u tosh aralash qorishmani to'kib sochib, ustimga bostirib kelyapti... Bir etigimni beton sug'urib oldi. Namiqqan kiymim pastga tortib ketyapti. Tepada Yo'ldosh baqiradi, xavfmi, daldami – tushunmayman, darmon quridi. Xudoyim-ey, shu yerdan o'ligim chiqmasa-da. Baqirvorgim keladi: «Hoy, barzangi, men yozuvchiman! O'g'ri emasman! Nima qilyapsan, qutqazi!» Lekin yo'q, bilamanki, baqirgan bilan baribir eshitilmaydi. Undan tashqari, shu ahvolumda hali or-nomus ham bor: «Chidayman, sir bermayman!» – deb tishimni tishimga bosaman. Oraliqqa tiqilganча yonim bilan yotibman, badya ochilsa tiriklay ko'milib qo'ya qolaman. Lekin badya negadir ochilmadi, qonagan qo'lim bilan tosh-betonni tozalab, opalubka temirini qayirib joyiga tushirdim. Bir vaqt qarasam, tepamdagi badyadan beton o'rniga zanjir osilib tushyapti. Angladimki, tortib chiqarishmoqchi. Zanjirga osilib, chala o'lik holda chiqib kelsam, Yo'ldosh beton to'la badyaning avtomatik ravishda ochiladigan tub qopqog'ini ikki qo'llab ushlagancha, og'irlik zo'ridan yoritib ketguday, bo'zarib turibdi,

mushtaklari o'ynab, bo'yin tomirlari ko'karib, bo'rtib chiqibdi. Men chiqishim bilan qo'yib yuborgan edi, beton shovullab tushib ketdi. Meni deb, azamat, bir yarim tonna betoni besh minut ushlab turgan ekan. Mehrim oshib ketdi unga. Lekin, shu mahaldayoq mening nochor ahvolimni ko'rib:

– Qalay! Ha, magazin emas bu yer... – dedi-yu, yana ruhini so'ndirdi. Zo'rg'a turibman-u, gapini qarang, buncha yomon ko'rishadi?! Tavba, o'g'irlik qilib qo'lga tushganlarni turmaga qamash emas, shularning qo'lga topshirish kerak ekan, azbaroyi shifo!

Tahqir, kalaka yotoqda ham davom etadi. Men konda, ish vaqtida har qanday jismoniy ezilishlarga roziyman, ammo og'zaki xo'rlashlariga sira chidash mumkin emas. Ular mendan kulib hordiq chiqaradilar. Shu yerda yotibman-u xuddi ko'rmayotganday, meni uchinchi shaxsda atab gapiradilar.

– Magazinni qalay? Rudani torozidan urib qolayotgani yo'qmi? – deb so'rashadi Yo'ldoshdan. U yaramas ham mening barcha azoblarga chidab sidqidil ishlayotganini bila turib, biron tasning jag'ini tiyib qo'ymaydi.

– O'zi qancha o'margan ekan, so'radingmi?

Bu gaplarga Hamdam qoraning o'zi ham hingir-hingir kuladi cho'tirini bo'zartirib, qilg'ilikni qilib qo'yib, biron marta yonimga tushgani ham yo'q. O'zini xoli topib, «jo'rttaga qilyapsanmi, o'ldirding-ku, chorasini top», desam, endi orqaga qaytib bo'lmaydi, hayotni o'rganaver, deydi. O'lsin, hayotni o'rganish shunaga bo'ladigan bo'lsa. Odamni odam demaydi bu xumparlar. Askiyadan zerikib, falsafaga o'tib ketishadi, xuddi men yo'qday.

– «Mehnat tarbiyasi» degan gapga men mutlaqo qarshiman, – deydi Jabbor degani kulgidan jag'i char-chagach, karavotga cho'zilib.

– Xo'o'shi – deydi Hamdam uning hozir falsafa so'qishini oldindan bilganday, cho'zib.

– Menga desang, mehnat – yuksak tarbiya ko'rgan yuksak axloqli kishilarning olijanob ishi. Unga tekin tomog'larini aralashtirib, safimizni bul'g'ash yaxshi emas.

Balandparvoz gapni qarangi! «Yuksak tarbiya ko'rganing bittasi sennisan?» demog'chi edim-u, qo'rqdim. Mehnat masalasiga kelganda bularga bir nima deb bo'lmaydi, ayniqsa, menga o'xshagan «yulg'ich». Yeb tashlashadi. Hali ham xayriyat, satsataga o'tib ketishdi, deb vaqtincha bo'lsa-da, qutulganimdan xursand, pusib yotibman.

– Seningcha, avval nasihat bilan odam qilib, keyin ishga qo'yish kerakmi? – do'ng'illadi beso'naqay adashim. – Mehnatsiz odam bo'lib bo'pti! Mehnat maymunni ham odam qilgan.

Uning gapi hammavqat dangal va qat'iy. Lekin falsafa bobida baribir Jabborning og'ziga qaraydi. Jabbor bugun mehnat faqat sof odamlaragagina muyassar bo'lishi kerakligi haqida uzog' gap soldi. Mening smenadan keyingi ahvolimni bilasiz, bu «chuqur mulohazalar» quloqqa kiradimi? Yotibman mizg'ib.

Men haqimda gap davom etardi:

– Odamga ishonish kerak, – derdi Hamdam qora. U qilar ishini qilib qo'yib, endi bu haqoratomuz gaplarni yumshatishga urinar. Lekin, gap yumshamadi.

– Ishonch hazilakam gap emas, ishonchni qozonish kerak, – dedi Jabbor.

– Odamga ishonish mumkin. Maymunga esa...

Men shu kechadan boshlab laqabim maymun bo'lib ketadi deb juda qo'rqqan edim. Chunki, menga adash bo'lishdan or qilgan Yo'ldoshga bu ayniqsa qo'l kelardi. Ammo, yo'q, unchalikka borishmadi.

Biz yotoqda besh kishimiz. Hamdam, Yo'ldosh, Jabbor, men, yana bir bo'sh karavot ham bor, egasini hali ko'rganim yo'q. Bularning gapidan bildimki, uning ot To'lagan ekan, oralarida hurmati juda baland, ismini ataganda qandaydir ezgulik seziladi ovozlari. Yo katta odam, yo mo'ysafid bo'lsa kerak.

– Jabbor qorong'i tushguncha eshik oldidagi ustunga chiqib, lampochka qo'yib tush, – buyurdi brigadir.

– Ana, Yo'ldosh chiqsin, – dedi yotgan joyida «faylasuf».

Men? Nima ahvolda yotibman-u toqatim bormi? Anavi Yo'ldoshni aytayotgandir.

– Gapni qisqa qilinglar, To'lagan iltimos qilgan, – dedi Hamdam.

Shu mahal To'laganning otini eshitgan hamonog' Jabbor ham, Yo'ldosh ham sakrab turib, qo'shni monyor bolaning temir tirnoqlarini yelkialab, chiqib ketishdi. Ajabo, bu To'lagan deganlari brigadirdan kattaroq boshliqlardan, shekilli, dedim ichimda.

Ertasiga smenadan keyin bir bola kirib ketdi, yotoqqa, o'zi chuvakkina, o'smirlarga xos kurak suyaklari chiqqan, lekin gavadasi barvaqt pishib, yelkalari endi kengayib kelayotgan, rangparrog' bir yigitcha edi. Hamma uni o'rab oldi, kichkinagina gavadasi barzangi proxodchiklarning orasida qolib ketdi.

To'lagan mana shu ekan...

– Besh! – dedi u hammaning yuziga qarab. Keyin horg'in tovush bilan qo'shib qo'ydi. – Oxirgisi qoldi... Eng og'iri...

Proxodchiklar ortiqcha zavq-hayrat ko'rsatishmadi. Hamma yelkasidan og'ir yuk tushganday yengil tortdi-yu, To'lagan haqida qandaydir tashvish ko'lankasi yuzlarida hamon bor edi...

Keyin bilsam, To'lagan brigadada ishlab turib, Politexnika institutiga imtixon topshirayotgan ekan. Nazarimda, uni «polk o'g'li»dek, o'z bag'irlaridan institutga uzatishni juda istashar edi. Ammo, To'lagan ikkita imtihonni topshirganida otasi o'lib qolibdi. Ota bechora, bizning oiladan ham bir bilimdon chiqsin, deb vasiyat qilgan ekan. Lekin, aza kunlari To'laganga so'nggi imtihonlarni topshirish juda og'ir bo'lib qolibdi. Endi, mana, oxirgisi... Bu voqega birinchi daqiqadanog men ham beixtiyor xayrixoh bo'lib, chin dildan qo'shilib ketdim.

Bu kechasi To'laganning tumbochkasi tepasida chiroq o'chmadi. Men suyaklarim zirqirab toliqgan bo'lsam ham, uxlay olmadim, To'laganning rangpar yuzi kitob tepasida shandan yasalgan haykaldek qimir etmay turardi. Men otasini eslayapti, yig'lavormasa bo'lgani, deb cho'chib yotdim. Yo'q, yig'lamadi. Chirog'ini o'chirmay tong otirdi. Faqat men uxlamay chiqdim desam, ahvoldan hamma xabardor ekan.

Ertasiga Yo'ldosh meni bir chekkaga chaqirib:

– Men bugun smenaga chiqmayman, ishdagi yig'ligimni bildirsang!... – deb mushitini iyagimga sal tegizib, po'pisa qildi. Xo'p, dedim.

Keyin, nariroqda uning brigadirdan shaharga javob olayotganini eshitdim.

– O'sha imtixon oladiganlarga o'zim borib tushuntirib kelaman, – derdi lo'mbazday mushitini yanib. – Bo'lmasa, bu xumparlar bolaning kulfatidan bexabar, qiyinab o'tirishadi.

O'zi aytmabdi-da!

– To'lagan aytarmishmi? Shafqat so'raydiganlardan emas. Borganingni bilmasin, – deb tayinladi Hamdam Yo'ldoshga javob berib.

Uch kundan keyin To'lagan oxirgi imtihonni ham «5» ga topshirib qaytdi. Endi bu qo'pol to'ngaklar ham quvonchlarini yashirolmay qolishdi. Lekin To'lagan shu ondayoq hammasini hayratga soldi:

– Sirtqiga o'tib keldim! – dedi u kitob-daftralarini tashlab.

Hammamiz o'tirib qoldik.

Ana xolos, bu qanaga ahmoqlik.

To'lagan ham o'tirib bosh egdi. U yotoqdoshlaridan «ahmoq» so'zini tugul, berirog'ini ham eshitgan emas edi.

Axir hammasi «5» edi-ku!

– Shuncha azob, buncha uyqusiz kechalar institut deb qoq suyak bo'lib qolding-ku, yaramasi!

– Axir men institutga kirib keldim-ku, – deydi To'lagan yig'lagudek. U bunday gaplarni kutmagan ekan chog'i.

– Bilasanmi, chumchug nima? – deb qoldi Yo'ldosh beso'naqay «tomdan tarasha» qilib.

– Chumchug ham bulbulning o'zi. Lekin u konservatoriyaning sirtqi bo'limini bitirgan ekan.

Birdan portlagan qahqaha yotoqxonani zirillatib yubordi. To'lagan ham kuldi. Uning ikki haftadan beri birinchi kulishi edi, yoshini artidi.

Shunda uning konda qolib, sirtidan o'qishi chindan ham ma'qul ekanini hamma so'zsiz tan oldi. To'lagan portlatuvchilikda yaqinda birinchi razryad olgan edi. U shu kasbini gapirypapti, aslida «sizlarni tashlab qayoqqa boraman», demogchi edi. Aytolmadi, proxodchiklar orasida bunday chuchuk gapirish odat emas.

Men ham kelgusi kitobim haqida o'ylaganimda, ahvolim juda og'ir bo'lishini ko'z oldimga keltiraman. Yuzaki qaraganda, dag'al bo'lib ko'ringan bu odamlar hayotida ko'p nozik tomonlar bor, lekin buni chuchmal gaplar bilan aytishdan saqlangan ma'qul: biroq, qanday gaplar bilan aytish kerak, men u so'zlarni topa olarmikanman?

Bularning g'azabi ham, mehri ham chegarasiz. Hozir hamma iljayib qarab turgan To'laganga havasim kelib ketdi. Menga ham bir kuni iljayisharmikan? Goho shunday oyogosti qilishadiki, xo'rligim kelib, «hay, insonlar, men hech narsa o'g'irlaganim yo'q», deya mojaro solib, yig'lab yuborgim keladi. Lekin zo'r berib o'zinni tiyaman. Bularning xulqi haqida kallamda u-bu tasavvur tug'ila boshladi, ishini buzish yaramaydi, chidash kerak.

Kunduzlari zax yer qa'rida og'ir, notanish ishlardan qiyualsam, kechalari o'z o'ylarim bilan azob chekardim. O'ylarim esa endi ko'proq bo'lg'usi kitob haqida emas, o'z taqdirim haqida ekanini paygab qolaman. Men ham kasb orttirayapman, bir kun kelib bolalar mening kimligimni bilishar, o'shanda, yengilyelpi kun kechirish shaydosi emasligimni bilishganda, ularning qanchalik quvonishini endi ko'z oldimga keltira olaman. Men ham To'lagan singari ulardan ajralolmay, shu yerda qolib ketmasam hali...

Lekin, u kunlarga ancha-muncha bor, chog'imda. Mana, tag'in smenaga otlanyapmiz, qo'pol etik poshnasini do'qqillatib trotuarda ketayotgan proxodchiklar orasidaman, ularning ro'yirost dashnomlari biroz kamaygan bo'lsa ham, hali tugagan emas. Buning evaziga men nimanidir, so'z bilan aytoalmasam ham, sezib turibman, nimanidir bilib oldim.

Hamdam qoraning avtqani ham shu bo'lsa ehti-